

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi**

Samarqand davlat universiteti

Aminov I.B., Suyarov A.M.

**DASTURLASH TILLARI ASOSIDA
MATEMATIK MASALALARINI YECHISH**

O'quv qo'llanma

Samarqand - 2019

UDK 618.3

UDK 32.973

**Samarqand davlat universiteti kengasi
tomonidan 5130100-matematika va 5140300-mexanika
ta'lif yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma si-
fatida tavsiya etilgan**

Taqrizchilar:

texnika fanlari nomzodi, dotsent A.A.Ganiyev (TATU)

texnika fanlari nomzodi, dotsent A.Qarshiyev

(TATU Samarqand filiali).

**Aminov I.B., Suyarov A.M. “Dasturlash tillari asosida ma-
tematik masalalarini yechish” O’quv qo’llanma: O’zbekiston
respublikasi oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi – SamDU,
Samarqand: 2019. – 180 bet**

Matematika va mexanika ta'lif yo'nalishi bo'yicha bilim olayotgan talabalarga "Dasturlash asoslari" fanini o'qitishda fanlarning o'zaro integratsiyasiga hamda o'qitilayotgan fanning kasbga yo'nalgan sohaga tatbiqlariga jiddiy e'tibor berish lozim bo'ladi. Shu bilan bir qatorda bakalavriyatning 5130100-matematika va 5140300-mexanika ta'lif yo'nalishlarida ta'lif olayotgan talabalarga algoritmlash va dasturlash asoslarini bir xil o'qitilishi, ularga kelgusi kasbiy faoliyatida qay darajada kerak bo'lishi to'g'risidagi tushunchaga va uning o'rmini sezishga imkon bermaydi. Shuning uchun ham algoritmlash va dasturlash asoslaridan amaliy mashg'ulotlardagi tushunchalarini kasbga yo'naltirilgan holda tashkil etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

ISBN – 978-9943-537-74-3

© Aminov I.B., Suyarov A.M.

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda ta’lim tizimini isloh qilish, uning mazmunini yangilash, o’qituvchining kasbiy bilim va tayyorgarligini oshirish, o’quvchilarning shaxsiy tajribalarini boyitish, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash sohasida keng ko’lamli izlanishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish yo’llari izlanmoqda. Bularning barchasi zamonaviy maktab ta’limining umumiyligi yo’nalishini belgilash, dunyo miqyosida uning rivojlanishiga ta’sir ko’rsatadigan omillarga keng yo’l ochish imkonini beradi. Buning uchun, avvalo, uzliksiz ta’lim tizimining barcha shakldagi ta’lim muassalarida ta’lim jarayoni sifatida ta’minlovchi ilg‘or ilmiy-metodik jihatdan asoslangan zamonaviy o’qitish texnologiyalarni amalda oshirish lozim.

Insoniyat tarixining ko‘p asrlik tajribasi ezgu go‘yalardan va sog‘lom mafkura hamda zamonaviy bilimlardan maxrum har qanday jamiyat uzoqqa bora olmasligini ko‘rsatdi. Shuning uchun, mustaqillikka erishgan mamlakatimiz o‘z oldiga ozod va obod vatan, demokratik jamiyat barpo qilish, erkin va farovon hayot qurish, rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olish kabi muhim vazifalarni qo‘ydi. Bu vazifalarni hal qilish asosan yosh avlod zimmasiga tushadi.

Demak, yoshlardan zamonaviy komputerlar bilan ishlashni o‘rganish, xalq xo‘jaliginining turli masalalarini yechishga mo‘ljallangan dasturiy ta’milot bilan tanishish hamda dasturlash vositalari yordamida hali komputerda yechilmagan masalalar uchun yangi dasturlar yaratishni talab qilinadi.

Darvoqi, har bir jamiyatning bugungi kuni va kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo‘lgan ta’lim tizimining qaydarajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzlusiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning qabul qilinishi bilan uzlusiz ta’lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi.

Oliy o’quv yurtlarida talabalarni mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil etishga, bilimlarni mustaqil egallahsha va ularni amaliyotda

qo'llash malakalarini shakllantirishga qaratish o'qitishning metodlari, texnologiyalarini shunday tanlash lozimligini ko'rsatdiki, ular talabalarga nafaqat tayyor bilimlarni o'zlashtirishlarida, balki bilimlarni turli manbalardan mustaqil egallashlari, o'zlarida shaxsiy nuqtai nazarning shakllanishi, uni asoslashi va erishilgan bilimlarni yangi bilimlar olishlarida foydalanish malakalariga ega bo'lishlarini taqoza etadi. Bunday ulkan vazifani muvaffaqiyatli amalga oshirishda o'qituvchi va talabalarga davlat tilida kerakli o'quv adabiyotlarini yetkazish alohida ahamiyatga ega.

Ushbu qo'llanma "Dasturlash tillari asosida matematik masalalarni yechish" fani bo'yicha matematika va mexanika ta'lim yo'naliшlarida bilim olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, uning asosiy maqsadi algoritmlash va dasturlash tillari asosida matematik masalalarni yechish imkoniyatlaridan xabardor qilib, kompyuter bilan muloqot o'rnatish usullarini o'rgatish va unda turli masalalarni yecha olish bilim va malakalarini shakllantirishdan iboratdir.

I-bob. Algoritm va algoritmlash asoslari

1§. Algoritmlar

1.1. Masalalarini kompyuterda yechish bosqichlari.

Har qanday masalani kompyuterga tayyorlash va uni o'tkazish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

1. *Masalani qo'yilishini aniqlash va matematik modelini ishlab chiqish.*
2. *Masalani yechishning sonli usulini tanlash.*
3. *Masalani yechish algoritmini ishlab chiqish.*
4. *Kompyuter uchun dastur tuzish.*
5. *Dasturni kompyuter xotirasiga kiritish, rostlash va tekshirish.*
6. *Hisoblash natijalarini qayta ishlash va tahlil qilish.*

1. Masalaning qo'yilishini aniqlash va matematik modelini ishlab chiqish. Masalani yechishdan oldin uning qo'yilshi oydinlashtiriladi, ya'ni bunda uning maqsadi va yechilish shartlari aniqlanadi, boshlang'ich ma'lumotlar va natijalarning tarkibi asoslanadi. Bu ma'lumotlar asosida u matematik formulalar ko'rinishida ifoda qilinadi.

2. Masalani yechishning sonli usulini tanlash. Qo'yilgan matematik masalalar uchun ularning sonli yechish usulini tanlash kerak bo'ladi. Sonli usullar turli-tuman bo'lganligidan ularning eng samarali va qulayini tanlash kerak. Bu masala bilan matematikaning sonli usullar bo'limi shug'ullanadi. Yechish usulini tanlash masalaga qo'yilgan barsha talablarni va uni konkret kompyuterlarda hal qilish imkoniyatlarini hisobga olish kerak.

3. Masalani yechish algoritmini ishlab chiqish. Masalani yechish uchun tanlangan sonli usulning algoritmi ishlab chiqiladi, ya'ni masalani yechish uchun bajariladigan arifmetik va mantiqiy amallar ketma-ketligi yoritiladi. Masalani yechish algoritmlari ko'rgazmaliroq bo'lishi uchun, ular ko'p hollarda blok-sxema ko'rinishida ifodalanadi.

4. Kompyuter uchun dastur tuzish. Kompyuter uchun dastur masalaning umumiyligi yechimidir. U algoritmning mashina buyruqlari ketma-ketligi shaklidagi yozuvdir. Buning uchun dasturlash tillari (Basic, Fortran, C++, C++ va boshqalar) dan biri tanlanadi va unga mos dastur tuziladi. Tuzilgan dasturni sifatli bo'lishi va uni mashina xotirasidan kam joyni egallashi muhim ahamiyatga ega.

5. Dasturni kompyuter xotirasiga kiritish, rostlash va tekshirish. Tuzilgan dastur kompyuter klaviaturasi orqali uning xotirasiga

kiritiladi. Kiritilgan dasturni rostlash va tekshirish amalga oshiriladi, ya’ni yo’l qo’yilgan xatoliklar tuzatiladi.

6. Hisoblash natijalarini qayta ishlash va tahlil qilish. Bu bosqichdan tuzilgan dastur bo’yicha hisoblash bajariladi va hosil bo’lgan natija kompyuterning display ekraniga chiqariladi yoki chop etish qurilmasi orqali qog’ozga chop etiladi. Natijalarni jadvallar, grafiklar yoki diagrammalar ko’rinishida hosil qilish mumkin. Hosil bo’lgan natija esa foydalanuvchi tomonidan tahlil qilinadi.

Qo’yilgan masalani u yoki bu turini yechishning algoritmlarini shakllantirish va ishlab chiqish eng ma’suliyatli hamda muhim bosqichlardan hisoblanadi, chunki bu bosqichda keyinchalik shaxsiy kompyuterda bajarilishi kerak bo’lgan amallarning ketma-ketligi oldindan belgilab olinadi. Algoritmda yo’lga qo’yilgan xatoliklar hisoblash jarayonini noto’g’ri bajarilishiga olib keladi, ya’ni noto’g’ri natijalarni beradi.

1.2.Algoritm tushunchasi.

Algoritm – bu masalani yechish usullarini izohlashdir, yoki boshqacha qilib aytganda, kutilayotgan natijalarni shaxsiy kompyuter tomonidan olish uchun bajarilayotgan hisoblash jarayolarining ketma-ketliklaridir.

Algoritm - bu biror masalani yechish uchun bajarilishi zarur bo’lgan buyruqlarning tartiblangan ketma-ketligidir. Har bir algoritm aniq va tugallangan qadamlarga bo’lingan bo’lishi kerak.

Algoritm deb, masalani yechish uchun bajarilishi lozim bo’lgan amallar ketma-ketligini aniq tavsiflaydigan qoidalar tizimiga aytiladi. Boshqacha aytganda, **algoritm** –boshlang’ich va oraliq malumotlarni masalani yechish natijasiga aylantiradigan jarayonni bir qiymatli qilib, aniqlab beradigan qoidalarining biror bir chekli ketma-ketligidir.

Buning mohiyati shundan iboratki, agar algoritm ishlab chiqilgan bo’lsa, uni yechilayotgan masala bilan tanish bo’lmagan biron bir ijrochiga, shu jumladan kompyuterga ham bajarish uchun topshirsa bo’ladi va u algoritmnинг qoidalariga aniq rioya qilib masalani yechadi.

Algoritm atamasi o’rta asrlarda yashab ijod etgan buyuk o’zbek matematigi Al-Xorazmiy nomidan kelib chiqqan. **Algoritm** so’zi al-Xorazmiyning arifmetikaga bag’ishlangan asarining dastlabki sahifadagi “**Dixit Algoritmi**” (“**dediki al-Xorazmiy**” ning lotincha ifodasi) degan jumlalardan kelib chiqqan. U o’zi kashf etgan o’nli sanoq tizimida IX asrning 825 yilidayoq to’rt arifmetika amallarini bajarish qoidalarini

bergan. Arifmetika amallarini bajarish jarayoni esa al-Xorazm deb atalga. Bu atama 1747 yildan boshlab algorismus, 1950 yilga kelib algoritm deb ham ataldi. Bu yerda al-Xorazmiyning sanoq sistemasini takomillashtirishga qo'shgan hissasi, uning asarlari algoritm tushunchasining kiritilishiga sabab bo'lganligi o'quvchilarga ta'kidlab o'tiladi.

Qadimgi Gresiyalik matematik Evklid 2 ta natural A va B sonlarning eng katta umumiyligi bo'lувchisini topish algoritmini taklif etdi. Uning ma'nosi quyidagicha:

Katta sondan kichigini ayirish, natijani katta son o'rniga qo'yish va ikkala son tenglashguncha bu amalni takrorlash. Ushbu teng sonlar izlangan natijadir.

Evklid algoritmida A va B sonlarning eng katta umumiyligi bo'lувchisi ushbu sonlar ayirmasining eng katta bo'lувchisi hamda ikkala A,B sonlarning ham umumiyligi eng katta bo'lувchisi bo'lishligidan foydalanilgan.

Evklid algoritmining bu ifodasiga aniqlik yetishmaydi, shuning uchun uning konkretlashtirish zarur bo'ladi.

Haqiqiy Evklid algoritmi quyidagicha:

1. A sonni birinchi son deb, B sonni ikkinchi son deb qaralsin. 2-qadamga o'tilsin.
2. Birinchi va ikkinchi sonlarni taqqoslang. Agar ular teng bo'lsa, 5-qadamgao'tilsin, aks holda 3-qadamgao'tilsin.
3. Agar birinchi son ikkinchi sondan kichik bo'lsa, ularning o'rni almashtirilsin. 4-qadamgao'tilsin.
4. Birinchi sondan ikkinchi son ayirilsin va ayirma birinchi son deb hisoblansin. 2-qadamga o'tilsin.
5. Birinchi sonni natija sifatida qabul qilinsin. Tamom.

Bu qoidalar ketma-ketligi algoritmnинг tashkil etadi, chunki ularni bajargan ixtiyoriy ayirishni biladigan kishi ixtiyoriy sonlar jufti uchun eng katta umumiyligi bo'lувchini topa oladi.

Matematiklar uzoq vaqtlar davomida algoritmlarning bunday ifodalaridan keng foydalanib turli hisoblash algoritmlarini ishlab chiqdilar.

Masalan, kvadrat va kubik tenglamalar ildizlarini topish algoritmlari topildi. Asta-sekin olimlar qiyinroq masalalar ustida bosh qotirib, masalan, ixtiyoriy darajali algebraik tenglamalar ildizlarini topish algoritmlarini qidiradilar. Hatto, XVII asrda Leybnis ixtiyoriy

matematik masalani yechishning umumiyligi algoritmini topishga urinib ko'rgan. Ammo bunga o'xshash algoritmlarni ko'rishning iloji bo'lмаган va asta-sekin buning butunlay imkoniy yo'q degan xulosaga kelingan.

Shunday bo'lishiga qaramay, algoritm tushunchasining aniq tavsifi berilmagunga qadar, masalaning algoritmik yechimsizligini isbotlash mumkin emas edi.

Algoritm tushunchasi juda qadim zamonlardan shakllanib kelgan. Shunga qaramay, asrimizning yarmiga qadar matematiklar bu ob'ekt haqida ma'lum bir qarashlarga qanoatlanib kelganlar. Algoritm atamasi matematiklar tomonidan faqat konkret masalalarni yechish bilan bog'liq holda olinar edi.

XX asr boshida matematika asoslarida vujudga kelgan qaramaqarshiliklar va muammolar ularni hal etishga qaratilgan turli konsepsiylar va oqimlarning vujudga kelishiga olib keldi. 20- yillarga kelib, effektiv hisoblash masalalari ko'ndalang bo'ldi.

Algoritm tushunchasining o'zi matematik tadqiqotlar ob'ekti bo'lib qolganligi uchun aniq va qat'iy ta'rifga muhtoj edi. Bundan tashqari kompyuter asrini yaqinlashtiruvchi fizika va texnikaning rivojlanishi ham shuni taqozo etar edi.

Algoritmni mukammalroq tushunarli bo'lishi uchun o'quvchilarga turli hayotdan, fandan algoritmlarga misollar keltirish va bunga o'zlarini tuzishga harakat qilishlarini taklif etish mumkin. Masalan, taom tayyorlash, turli qurilmalarni ishlatalish, sport musobaqasi yoki yo'l harakati qoidalari algoritmlarini keltirish mumkin, yoki matematik formula bo'yicha qiymat hisoblash algoritmi yoki kompyuterni ishlatalish bo'yicha algoritm kabi misollar keltirilishi mumkin.

1.3.Algoritmning asosiy xossalari.

Algoritmning asosiy xossalari haqida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

1-xossa. *Diskretlilik*, ya'ni algoritmni chekli sondagi oddiy ko'rsatmalar ketma-ketligi shaklida ifodalash mumkin. Tugallangan amallar ketma-ketligi qadam deyiladi. Demak, algoritm chekli qadamlardan iborat bo'lishi kerak.

2-xossa. *Tushunarlik*, ya'ni ijrochiga tavsiya etilayotgan ko'rsatmalar uning uchun tushunarli bo'lishi shart, aks holda ijrochi oddiy amalni ham bajara olmay qolishi mumkin. Har bir ijrochining bajara olishi mumkin bo'lgan ko'rsatmalar tizimi mavjud.

3-xossa. *Aniqlik*, ya'ni ijrochiga berilayotgan ko'rsatmalar aniq mazmunda bo'lishi lozim hamda faqat algoritmda ko'rsatilgan tartibda bajarilishi shart. Algoritmning har bir qoidasi aniq va bir qiymatli bo'lishi zarurki, bunda vaqtning biror daqiqa sida olingan miqdorlar qiymati vaqtning shundan oldingi daqiqa sida olingan miqdorlar qiymati bilan bir qiymatli aniqlangan bo'ladi.

4-xossa. *Ommaviylik*, ya'ni har bir algoritm mazmuniga ko'ra bir turdag'i masalalarning barchasi uchun yaroqli bo'lishi lozim. Algoritm bitta masalani yechish uchun emas balki shunga o'xshash turdosh masalalar sinfini hal etish uchun xizmat qiladi

Masalan, ikki oddiy kasr umumiylar maxrajini topish algoritmi har qanday kasrlar umumiylar maxrajini topish uchun ishlataladi.

5-xossa. *Natijaviylik*, ya'ni har bir algoritm chekli sondagi qadamlardan so'ng albatta natija berishi lozim. Algoritm masalaning yechimiga chekli sondagi qadamlar ichida olib kelishi yoki masalani "yechib bo'lmaydi" degan xabar bilan tugashi kerak.

Bu xossalarni mohiyatini o'rganish va konkret algoritmlar uchun qarab chiqish talabalarning xossalari mazmunini bilib olishlariga yordam beradi.

1.4. Algoritmning tasvirlash usullari.

Algoritmning tasvirlash usullari haqida gapirganda algoritmning berilish usullari xilma-xilligi va ular orasida eng ko'p uchraydiganlari quyidagilar ekanligini ko'rsatib o'tish joiz:

1. Algoritmning so'zlar orqali ifodalanishi. Algoritmlarni ifodalashning eng keng tarqalgan shakli – oddiy tilda so'zlar bilan bayon qilishdir. Bu nafaqat hisoblash algoritmlarida, balki hayotiy, turmushdagi "algoritm" larga ham tegishlidir.

Masalan, biror bir taom yoki qandolat mahsulotini tayyorlashning retsipti ham oddiy tilda tavsiflangan algoritmdir. Shaharlararo telefon - avtomat orqali aloqa o'rnatishning o'ziga xos algoritmidan foydalanasisiz. Do'kondan yangi kir yuvish mashinasi yoki magnitafon sotib olinsa, ishni foydalanishning algoritmi bilan tanishishdan boshlaymiz.

Masalani kompyuterda yechishda ham, ko'pincha matematika tilini ham o'z ichiga olgan tabiiy tildan foydalinish mumkin. Algoritmning bunday tildagi yozuvi izlanayotgan natijaga olib keladigan amallar ketma-ketligi ko'rinishida bo'lib, odam tomonidan bir ma'noli idrok etilishi kerak. So'zlar bilan ifodalan gan har bir amal "algoritmning qadami" deb ataladi. Qadamlar tartib nomeriga ega bo'ladi.

Algoritm ketma-ket, qadam-ba qadam bajarilishi kerak. Agar algoritm matnida "N sonly qadamga o'tilsin" deb yozilgan bo'lsa, bu algoritmning bajarilishi ko'rsatilgan N-qadamdan davom etishini bildiradi.

2. Algoritmning formulalar yordamida berilishi. Algoritm matematik formulalar yordamida tavsiflanganda har bir qadam aniq formulalar yordamida yoziladi. Misol tariqasida

$$ax^2 + bx + c = 0 \quad (a \neq 0)$$

Kvadrat tenglama yechimlari bo'l mish x_1, x_2 ni aniqlash algoritmini ko'rib chiqaylik.

1. a, b, c koeffitsiyentlar qiymatlari berilsin.
2. $D = b^2 - 4ac$ diskriminant hisoblansin.
3. $D < 0$ bo'lsa, tenglamaning haqiqiy yechimlari yo'q. Faqat haqiqiy ildizlar izlanayotgan bo'lsa, masala hal bo'ldi.
4. $D = 0$ bo'lsa, tenglama ikkita bir-biriga teng, ya'ni karrali yechimga ega bo'ladi va ular formulalar bilan hisoblanadi. Masala hal bo'ldi.
5. $D > 0$ bo'lsa, tenglama ikkita haqiqiy yechimga ega, ular
$$x_1 = (b + \sqrt{D}) / 2a \quad \text{va} \quad x_2 = (-b - \sqrt{D}) / 2a$$

formulalar bilan hisoblanadi. Ya'ni masala hal bo'ldi.

3. Algoritmning jadval ko'rinishida berilishi. Algoritmning bu tarzda tasvirlanishdan ham ko'p foydalanamiz. Masalan, mакtabda qo'llanib kelinayotgan to'rt xonali matematik jadvallar yoki turli xil lotereyalar jadvallari. Funksiyalarning grafiklarini chizishda ham algoritmlearning qiymatlari jadvali ko'rinishlaridan foydalanamiz. Bu kabi jadvallardan foydalanish algoritmlari sodda bo'lgan tufayli ularni o'zlashtirib olish oson.

4. Algoritmning dastur shaklida ifodalanishi, ya'ni algoritm kompyuter ijrochisiga tushunarli bo'lgan dastur shaklida beriladi.

5. Algoritmning algoritmik tilda tasvirlanishi, ya'ni algoritm bir xil va aniq ifodalash, bajarish uchun qo'llanadigan belgilash va qoidalar majmui algoritmik til orqali ifodalashdir. Algoritmik tillar - algoritmni bir ma'noli tavsiflash imkonini beradigan belgilar va qoidalar majmuidir. Har qanday tillardagidek ular ham o'z alifbosi, sintaksisi va semantikasi bilan aniqlanadi

Bizga o'rta maktabdan ma'lum bo'lgan kompyutrlarsiz algoritmashga mo'ljallangan algoritmik tizim algoritmik tilning namunasidir. Algoritmik tilga misol sifatida yana algoritmlarni belgili operatorlar tizimi shaklida tavsiflashni ham ko'rsatish mumkin. Bu tillar odatdag'i tilga

o'xshash bo'lib, kompyuterda bevosita bajarishga mo'ljallanmagan. Ulardan maqsad algoritmni bir xil shaklda va tushunarli qilib, tahlil qilishga oson qilib yozishdir.

6. Algoritmlarning grafik shaklda tasvirlanishi. **Masalan**, grafiklar, sxemalar ya'ni blok - sxema bunga misol bo'la oladi. Blok - sxemaning asosiy elementlari quyidagilar: **oval (ellips shakli)**-algoritm boshlanishi va tugallanishi, **to'g'ri burchakli to'rtburchak**-qiymat berish yoki tegishli ko'rsatmalarni bajarish. **Romb - shart** tekshirishni belgilaydi. Uning yo'naltiruvchilari tarmoqlar bo'yicha biri ha ikkinchisi yo'q yo'nalishlarni beradi, **parallelogramm**- ma'lumotlarni kiritish yoki chiqarish, **yordamchi algoritmgaga murojaat** - parallelogramm ikki tomoni chiziq, **yo'naltiruvchi chiziq** - blok-sxemadagi harakat boshqaruvi,**nuqta-to'g'ri chiziq (ikkita parallel)** - qiymat berish.

Algoritmda bajarilishi tugallangan amallar ketma-ketligi **algoritm qadami** deb yuritiladi. Har bir alohida qadamni ijro etish uchun bajarilishi kerak bo'lgan amallar haqidagi ko'rsatma buyruq deb aytildi. Algoritmlarni ko'rgazmaliroq qilib tasvirlash uchun bloksxema, ya'ni geometrik usul ko'proq qo'llaniladi. Algoritmnинг bloksxemasi algoritmnинг asosiy tuzilishining yaqqol geometrik tasviri: algoritm bloklari, ya'ni geometrik shakllar ko'rinishida, bloklar orasidagi aloqa esa yo'naltirilgan chiziqlar bilan ko'rsatiladi. Chiziqlarning yo'nalishi bir blokdan so'ng qaysi blok bajarilishini bildiradi. Algoritmlarni ushbu usulda ifodalashda vazifasi, tutgan o'rniga qarab quyidagi **geometrik shakl (blok)** lardan foydalaniladi.

<i>Blokning atalishi</i>	<i>Belgilanishi</i>	<i>Tushunilishi</i>
Hisoblashlar bloki (to'g'ri-to'rtburchak)		Hisoblash amali yoki hisob-lash amallari ketma-ketligi
shartli blok (romb)		Shartlarni tekshirish
siklik jarayon (oltiburchak)		Siklning boshlanishi
qism dastur		qism dastur bo'yicha hisoblash, standart qism dasturi
birlashtirish (aylana)		Yo'nalish chizig'ini o'zgartirish

Ma'lumotlarni kiritish va chiqarish parallelogramm)		Ma'lumotlarni kiritish va natijalarni chiqarish
Algoritmning boshi va oxiri (oval)		Boshlash, tamom, to'xtash
Chiqarish bloki		Ma'lumotlarni qog'ozga chiqarish

Blok-chizmalarning asosiy afzalligini, algoritmni tasvirlashning yaqqolligi bilan izohlash hisoblanadi.

Masalani yechishning algoritmlarini blok-chizmalar asosida ifoda etib ularning yaqqolligini ta'minlash

- a) bloklarni gorizontal va vertikal holatda joylashtirish kerak;
- b) bloklar orasidagi masofani shunday olish kerakki, ularni ulab turuvchi chizig'lar yetarli darajada kalta bo'lsin;
- c) bloklarning geometrik o'lchami hisoblash jarayonini tavsiflashning hajmiga to'g'ri kelishi kerak. Shu bilan birgalikda blokning uzunligi uning balandligiga nisbatan $v=1,5*a$ ko'rinishda bo'lishi kerak;

d) blok-chizmalarda bloklarning joylashishi va guruhlarga ajratilishi shunday bo'lishi kerakki, ularni ko'rib axborotlarni yaxshi qabul qilish ta'minlanishi lozim

Yuqorida ko'rilgan algoritmlarning tasvirlash usullarining asosiy maqsadi, qo'yilgan masalani yechish uchun zarur bo'lgan amallar ketma-ketligining eng qulay holatini aniqlash va shu bilan odam tomonidan dastur yozishni yanada osonlashtirishdan iborat. Aslida dastur ham algoritmning boshqa bir ko'rinishi bo'lib, u insonning kompyuter bilan muloqotini qulayroq amalgaga oshirish uchun mo'ljallangan

Nazorat uchun savollar

1. Algoritm tushunchasi qanday paydo bo'lgan?
2. Algoritm deb nimaga aytildi?
3. Algoritm nima uchun ishlatilad?
4. Kompyuter bilan algoritmning bog'liqligi nimada?
5. Algoritmni aniqlashtirish bilan kimlar shug'ullanganlar?
6. Algoritmlarga misollar keltiring.
7. Yevklid algoritmi nima uchun ishlatiladi?
8. Masalalarning umumiyl algoritmini topish bilan kim shug'ullangan?

9. Algoritim qanday xossalarga ega?
 10. Diskretlik xossasini izohlang.
 11. Natijaviylik nima?
 12. Ommaviylik xossasiga misol ayting.
 13. Tushunarlik va aniqlik xossalarini izohlang.
 14. Algoritim ijrochisi kim?
 15. Algoritm xossalariga misollar keltiring va ularni izohlang.
 16. Kibernitika va informatika sohalari bo'yicha o'zbek olimlaridan kimlarni bilasiz?
1. Algoritim qanday ko'rinishlarda beriladi?
 2. Algoritmnini formula orqali bilishni tushuntiring?
 3. Algoritmnini jadval ko'rinishiga misollar keltiring.
 4. Blok-sxema nima?
 5. Algoritmik til nima?
 6. Algoritmlar dasturlash tillari orqali qanday beriladi?
 7. Algoritmnining qaysi ko'rinishi samaraliroq bo'ladi?
 8. Algoritmlar kim uchun tuziladi?
 9. Blok-sxemaning tarkibiy qismlarini tushuntiring.
 10. Algoritmnini tasvirlar usullarining maqsadi nima?

Mustaqil topshiriqlar

1. Choy damlash jarayonini matn usulida yozing.
2. Telefon orqali so'zlashuv jarayonini matn usulida ifodalang.
3. $y=2x$ funksiyani qiymatlar jadvalini tuzing va izohlang.
4. Taom tayyorlash jarayonini yozing.
5. Yo'l harakati qoidasiga rioya qilish jarayonini tasvirlang?
6. $y=x^2$ funksiyani grafigini chizing va uni izohlang.

2§. Algoritm turlari. Algoritmlash jarayoni.

“Algoritmlash” deganda masalani biri ketidan boshqasini bajariladigan hamda oldingisining natijalari keyingilarining bajarilishida ishlatiladigan bosqichlar ketma-ketligiga keltirish tushuniladi. Ayni paytda bu bosqichlardagi amallarni kompyuter bajara olishi ko'zda tutilishi kerak.

Kengroq ma`noda qaraydigan bo'lsak algoritmlash, o`zidan oldingi bosqich - masalani yechish usulini tanlash bosqichi ham, o`zidan keyingi bosqich - kompyuterning xususiyatlarini hisobga olgan holda

boshlang'ich, oraliq va natijaviy axborotlarni tuzilishining ifoda shakllarini tanlashni xam o'z ichiga oladi.


Algoritmlash bosqichining natijasi masalani yechish algoritmi bo'ladi, ya'ni bu bosqichda masalani yechish algoritmi ishlab chiqiladi. Bunda masalani matematik qo'yilishi va tanlangan usul qidirilayotgan natijani olishga olib keladigan harakatlar ketma-ketligini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Algoritmning turlari bilan tanishtirganda, avvalo hech qanday shart tekshirilmaydigan va tartib bilan faqat ketma-ket bajariladigan jarayonlarni ifodalaydigan **chiziqli algoritmlar** aytib o'tiladi.

2.1. Chiziqli jarayonlarni algoritmlash

Chiziqli algoritmlar algoritmlarning eng sodda va oddiy ko'rinishi hisoblanadi. Unda bajariladigan amallar ham buyruqlar ham buyruqlar ham qanday tartibda berilgan bo'lsa shunday tartibda ketma-ket bajariladi. Chiziqli tuzilishga ega bo'lgan algoritmlarda ko'rsatmalar yozilish tartibida bajariladi. Ularning blok-sxemalari ishga tushirish, to'xtatish, kiritish,chiqarish jarayoni blok hamda avvaldan ma'lum jarayon bloklari yordamida tuzilib, bir chiziq bo'ylab ketma-ket joylashgan bo'ladi.


Chiziqli tuzilishdagi algoritmni tuzish masalani yechish uchun kerak bo'ladigan boshlang'ich ma'lumotlarni tashkil qiluvchi o'zgaruvchilar nomi, ularning turi va o'zgarish ko'lagini aniqlashdan boshlanadi. Keyin oraliq va yakuniy natijalar o'zgaruvchilarining nomlari, turlari va mumkin bo'lsa o'zgarish ko'lagini aniqlash kerak. Endi algoritm mana shu boshlang'ich ma'lumotlarni qanday qayta ishlab oraliq va yakuniy natijalarni olish kerakligini aniqlashdan iborat bo'ladi.Chiziqli algoritmlarni quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin.



Bu yerda A₁,..., A_N lar chiziqli algoritmlarda bajarilishi kerak bo'lgan buyruqlar ketma- ketlidir.

1- misol. $y = 2x^3 + 4x^2 + 3x - 5$ funksiyani x ning ixtiyoriy qiymatlarida hisoblash algoritmini tuzing.


Yechish. Algoritmning blok sxema Algoritmning matn ko'rinishi:



2-misol. $S = \sqrt{p(p-a)(p-b)(p-c)}$ Geron formulasidan foydalanib uchburchak yuzini hisoblash algoritmini tuzing.

Yechish. Bu yerda boshlang'ich ma'lumotlar: a, b, c uchburchak tomonlari. Shuning uchun a, b, c , e R va $a>0, b>0, c>0$, ya'ni a, b, c —o'zgaruvchilar nomi; ular haqiqiy son qiymatlar qabul qiladi. Yana, bu uch son uchburchak tomonlarini ifoda qilishi uchun ularning istalgan biri qolgan ikkitasi yig'indisidan katta bo'lmasligi, ya'ni $a < b+c, b < a+c, c < a+b$ shartlar bajarilishi kerak. Shunday qilib, o'zgarish ko'lami ana shu munosabatlar bilan aniqlanar ekan.

Geron formulasini bilan uchburchak yuzini hisoblash uchun uning yarim perimetringi qiymati kerak. Demak, p o'zgaruvchining qiymatioraliq ma'lumot bo'ladi. Yuqorida shartlarda $p>b$. Yakuniy natija: S -uchburchak yuzi $S>0$ qiymatlar qabul qiladi.




Nazorat uchun savollar

1. Algoritm tushunchasi qanday paydo bo'lган?

2. Algoritmgan qo'yiladigan talablarni sanab o'ting.
3. Algoritmnning qanday xossalari bilasiz?
4. Masala yechimi algoritmini tuzishda qanday qoidalarga amal qilish lozim?
5. Chiziqli algoritm deb nimaga aytildi?
6. Chiziqli algoritmni bajarilish tartibini ayting.

Mustaqil bajarish uchun mashqlar


1. Asosi uzunligi va balandligi bilan berilgan uchburchak yuzasini hisoblash algoritmini tuzing.
2. To'g'ri to'rtburchakning perimetri va yuzasini hisoblash algoritmini tuzing.
3. Jismning potensial energiyasini hisoblash algoritmini tuzing.
4. Tomonlaridan biri va balandligi bilan berilgan parallelogramning yuzasini hisoblash algoritmini tuzing.
5. Kvadratning perimetri va yuzasini hisoblash algoritmini tuzing.
6. Jismning kinitek energiyasini hisoblash algoritmini tuzing.
7. Asoslarining yig'indisi va balandligi berilgan trapetsiyaning yuzasini hisoblash algoritmini tuzing.
8. Teng tomonli uchburchakning perimetri, medianasi va yuzasini hisoblash algoritmini tuzing.
9. Tomonlari va ular orasidagi burchgi berilgan parallelogramning diagnollarini hisoblash algoritmini tuzing.
10. Uchta tomoni bo'yicha berilgan uchburchakning yuzasini hisoblash algoritmini tuzing.
11. To'g'riburchakli parallilopipedning hajmi, to'la sirtining yuzi, qirralar y'ig'indisini hisoblash algoritmini tuzing.
12. Radiusu berilgan aylanaga ichki chizilgan to'g'ri oltiburchakning perimetri va yuzasini hisoblash algoritmini tuzing.
13. a,b,c sonlarining o'rta arifmetigi va o'rta geometrigini hisoblash algoritmini tuzing.
14. Geometrik progressiyaning birinchi hadi va maxraji berilgan bo'lsa, uning n -hadi va n ta hadlar yig'indisini hisoblash algoritmini tuzing.
15. Quyida berilgan shakllarning shtrixlangan sohalarini yuzalarini hisoblash algoritmini tuzing.



2.2. Tarmoqlanuvchi jarayonlarni algoritmlash.

Shunday hisoblash jarayonlari mavjud bo'ladiki, bunda qo'yilgan ayrim mantiqiy shartlarning bajarilishiga qarab, bu jarayonlar bir nechta tarmoqqa bo'linadi. Hisoblash jarayonlarining shundayiga tarmoqlangan deb ataladiki, unda u birlamchi yoki oraliq ma'lumotlar xususiyatidan kelib chiqqan holda bir yoki bir necha yo'nalish bo'yicha bajarilishi mumkin bo'ladi. Bunda har bir yo'nalish hisoblash jarayonining tarmog'i hisoblanadi. U yoki bu tarmoqning tanlanishi mantiqiy shartlarning bajarilishini tekshirish asosida ta'minlanadi. Aniq bir holda jarayon faqat tarmoqlarning bittasi bo'yicha bajariladi. Boshqa tarmoqlanish-larning bajarilishi mumkin emas. Tarmoqlanuvchi struktura odatda qandaydir mantiqiy shartni tekshirish blokini o'z ichiga oladi. Tekshirish natijasiga ko'ra, tarmoq deb ataluvchi u yoki bu amallar ketma-ketligi bajariladi va shu tarmoqlardan hyech bo'limganda bittasi bajariladi. Shartni tekshirish natijasi faqat ikki hil bo'lganda: bajarilgan hoi uchun «Ha» (yoki «+»), bajarilmagan hoi uchun «Yo'q» (yoki «—») belgilari qo'yiladi

Tarmoqlanish matematik ifoda qiymatining ishorasi bo'yicha bo'lganda (arifmetik shart): «>» — musbat, «<» — manfiy va «=» — nolga teng belgilar qo'yiladi. Ana shunday jarayonlar uchun algoritmlar tuzishda tarmoqlanuvchi algoritmlardan foydalilanadi. Tarmoqlanuvchi algoritm to'la va qisqartirilgan ko'rinishda berilishi mumkin. Ular quyidagicha sxema orqali ifodalanadi:




Tarmoqlanuvchi jarayon uchun algoritm tuzishga doir misollar keltiramiz.

1-misol. Ixtiyoriy berilgan x va y sonlaridan eng kattasini topish algoritmini tuzing.

Yechish. Buning uchun berilga ikkita sonni taqqoslaymiz: agar $x \geq y$ bo'lsa u holda x sonini katta son $z=x$ deb, aks holda esa y sonini katta son $z=y$ deb qabul qilamiz.

Algoritmning matn va blok sxema ko'rinishlari:


1. Boshlash.
2. x va y qiymatlarni kiritish.
3. agar $x \geq y$ bo'lsa, natija x deb olinib 5 ga o'tilsin.
4. natija y deb olinsin.
5. Tamom.



2- misol. $\begin{cases} 1+2x, & \text{agar } x < 0 \\ 2+x, & \text{agar } x = 0 \\ x, & \text{agar } x > 0 \end{cases}$ ifodaning qiymatini hisoblash algoritmini

tuzing.

Yechish. Bu yerda x ni qiymati kiritilgandan so'ng u 0 soni bilan taqqoslanadi. Agar $x < 0$ bo'lsa $y = 1 + 2x$, $x = 0$ bo'lsa $y = x + 1$, $x > 0$ bo'lsa $y = 2 + x$ ifodani qiymati hisoblanishi kerakligi ko'rsatiladi.



Nazorat uchun savollar

1. Tarmoqlanuvchi jarayon nima ?
2. Tarmoqlanuvchi jarayon qanday bajariladi ?
3. Tarmoqlanuvchi algoritmni ta’riflang va unga misollar keltiring.
4. Taqmoqlanuvchi jarayon qanday ko’rinishlarda beriladi?
5. To’la tarmoqlanuvchi jarayonni umumiy strukturasini tushuntirng.
6. Qisqartirilgan tarmoqlanuvchi jarayonni umumiy strukturasini ko’rsating.
7. Tarmoqlanuvchi jarayon uchun blok-sxemaning qaysi elementlaridan foydalaniladi ?
8. Algoritmning qadami nima ? Uning tarmoqdan farqi qanday ?

Mustaqil bajarish uchun mashqlar

1. Kvadrat tenglama ildizlarini topish algoritmini tuzing .
2. Berilgan a,b,c,d sonlaridan kattasini topish algoritmini tuzing.
3. a,b,c sonlarini o’sish tartibida joylashtirish algoritmini tuzing.
4. a,b,c kesmalar uzunliklari bilan berilgan. Ular orqali uchburchak yasash mumkin yoki mumkin emasligini aniqlash algoritmini tuzing.
5. Yuzasi S1 ga teng bo’lgan doira, yuzasi S2 ga teng bo’lgan kvadrtaga joylashishini aniqlash algoritmini tuzing .
6. Koordinatalari bilan berilgan a(x,y) nuqtani koordinatalar tekisligida joylashish o’rnini aniqlash algoritmini tuzing.
7. a,b,c sonlari berilgan bo’lsa, ularning manfiylarining kubi, musbatlarining kvadratidan hosil bo’lgan sonlarni chop etish algoritmini tuzing.
8. Berilgan ikkita a va b sonlarining kichigini ularning yig’indisi, kattasini esa ularning ko’paytmasi bilan almashtirish algoritmini tuzing.

9. Tomonlari bilan berilgan uchburchakning teng tomonli bo‘lishini aniqlash algoritmini tuzing.

10. $S = \max(x, y, z) + \min(a, b, c)$ ni hisoblash algoritmini tuzing.

11. Funksiya qiymatini hisoblash algoritmini ruzing:

$$z = \begin{cases} (2x + y + 3)/3, & \text{agar } x + y > 0 \text{ va } x > 0 \\ \sqrt{x^2} + 2y^{2+3}, & \text{agar } x + y > 0 \text{ va } y < 0 \\ (x^2 + y^2)/x, & \text{qolgan hollarda} \end{cases}$$

12. Tomonlari a,b,c larga teng bo’lgan uchburchakning turini aniqlash algoritmini tuzing.

13. a,b,c,d sonlarini kamayish tartibida joylashtirish algoritmini tuzing.

14. a(x,y) nuqtani uchlari koordinatalari a(x1,y1) va b(x2,y2) ga teng bo’lgan kesmaga tegishli bo’lishligini aniqlash algoritmini tuzing.


15. A(x,y) nuqtani radiusu R ga, markazi O(0,0) nuqtada joylashgan aylanaga tegishli bo’lishligini aniqlash algoritmini tuzing.

2.3. Takrorlanuvchi jarayonlarni algoritmlash.

Shunday hisoblash jarayonlari mavjud bo’ladiki, bunda uning ayrim bo’laklarini bir necha marta takroran hisoblashga to’g’ri keladi. Bunday jarayon-lar takrorlanuvchi yoki siklik jarayonlar deyiladi va ular uchun algoritmlar tuzishda takrorlanuvchi algoritmlardan foydalanoladi. Siklik jarayonlar sikl parametri va sikl tanasidan iborat bo’ladi. Hisoblash jarayonining ko’p marta takrorlanadigan qismi ichki **sikl tanasi** deb yuritiladi. Sikl tanasi bir necha marta takroran bajariluvchi amallar ketma-ketligidan iborat bo’ladi. Siklli jarayonlarni algoritmlashda bitta yoki bir nechta parametrlar qatnashadi. Ularning qiymatlarini bir vaqtida o’zgarishida sikl tanasi ichidagi amallar ketma-ketligi ko’p marotaba takrorlanadi. Masalaning qo’yilishiga qarab siklik jarayonlari **takrorlanish sonima’lum bo’lgan** va **takrorlanish soni noma’lum** bo’lgan sikllarga bo’linadi.

Takrorlanuvchi algoritmlar 2 xil ko’rinishda ifodalanishi mumkin.

Sikl-gacha takrorlanuvchi algoritm quyidagi ko’rinishga ega:




a) **sikl - gacha**

Bu ko’rinishdagi algoritmda avval sikl tanasi bajarilib, so’ngra parametr-ning qiymati, ya’ni sikldan chiqish sharti tekshiriladi

Bu yerda sikl tanasi qo'yilgan shart bajarilib turguncha takrorlanaveradi.

Sikl - hozircha takrorlanuvchi algoritm quyidagi ko'rinishga ega:



b) sikl - hozircha.

Bu ko'rinishdagi algoritmlarda avval shart tekshiriladi, so'ngra agar shart qanoatlantirsa, sikl tanasi bajariladi, aks holda hisoblash to'xtatiladi.

Aniq berilgan son asosida sikllarni tashkil qilishda sikl parametrining boshlang'ich va oxirigi qiymatlari, uning har bir takrorlanishidagi sikl parametrining o'zgarish qonunlari, siklarning takrorlanish sonlari ko'rsatilishi kerak bo'ladi.

Sikl tanasidagi birlamchi ma'lumotlar doimiy kattalik, oddiy o'zgaruvchan, indeksli o'zgaruvchan ko'rinishlarida bo'lishi mumkin.

1-misol. $S = \sum_{i=1}^{10} \frac{1}{i^2} = 1 + \frac{1}{4} + \frac{1}{9} + \dots + \frac{1}{100}$ yig'indini hisoblash


algoritmini tuzing.

Yechish: Bu yerda sikl parametrlarning barcha qiymatlari ma'lum. Yig'indini takroriy qiymatini hosil qilish uchun uning boshlang'ich qiymati sifatida $S=0$ olinadi. Sikl parametri i bo'lib u 1 dan 10 gacha qiymatlarni qabul qiladi. Uning har bir qiymatida $1/i^2$ ifoda takroran $S=S+1/i^2$ hisoblanadi.

Matin ko'rinish:


1. Boshlash.
2. $S=0$
3. $i=1$
4. $S=S+1/i^2$
5. Agar $i < 100$ bo'lsa, u holda $i=i+1$ ba 4ga o'tish. Aks holda 6 ga.
6. S ni qiymati chiqarilsin.
7. Tamom.

Blok -sxema ko'rinishi:




2 - misol. 0 dan 20 gacha juft sonlar yig'indisini hisoblash algoritmini tuzing.

Yechish: a) sikl-gacha




b) sikl – hozircha




2-misol. $y = \sqrt{x^3 + x^2 + 1}$ funksiyani x ning $[a,b]$ oraliqda $h=0.1$ qadam bilan o'zgarish qiymatini hisoblash algoritmini tuzing.

Yechish. Bu yerda algoritmlarning gacha va hozircha ko'rinishlari keltirilgan.

1) Sikl-gacha



2) Sikl – hozircha




Takrorlanishlar soni aniq bo'lмаган сиклар. Bunday сикларда тақрорланышлар сонини олдидан белгилаб була маълум бир шарт бajarilishigacha давом этади.

Такрорланышлар сони аниқ була маълум сикларга итерсия сикларни мисол қилиш мумкин булиб, унда сиклдан чиқиб кетиш аниқ бир натижага ершилгандан keyin амалга оширилади.

Hisoblashлар ершиш керак була маълум натижага босқичма-босқич яқинлашиб бориш орқали бajarилади.

3-misol. $S = \sum_{i=1}^{\infty} \frac{1}{i^i}$ ifodani ε аниқлик билан hisoblash алгоритмини тузинг.

Yechish. Бу yerda $1/i^i$ ifoda сикл параметрнинг қиymati ошиб борган сари нолга яқинлашиб боради. Hisoblash jarayoni $1/i^i \leq \varepsilon$ шарт бajarilguncha давом этади.




4-misol. Косинусни qatorga yoyishdan foydalanib $S = \cos x$ функия қиymatini $\varepsilon = 10^{-4}$ xatolik bilan hisoblash алгоритмини тузинг:

$$\cos x = 1 - \frac{x^2}{2!} + \frac{x^4}{4!} - \frac{x^6}{6!} + \dots = \sum_{n=0}^{\infty} t_n(x), \text{ бу yerda } t_n(x) = (-1)^n \frac{x^{2n}}{(2n)!}$$

Yechish. Бу yig'indini hisoblash учун, биринчидан, t_n hadning keyingi қиymatini аниqlash , иккинчидан , итерасия formula $S_n = S_{\pi} + t_n$ bo'yicha yig'indini hisoblash.

Ushbu misolda faktorialni mavjudligini hisobga олгандаги , t_n ni аниqlash учун то'г'ридан – то'г'ри умумий formula bo'yicha hisoblash emas, balki recurrent munosabat $t_n = t_{\pi-1}\varphi_n$ dan foydalaniladi



Nazorat uchun savollar

1. Takrorlanuvchi jarayon nima ?
2. Takrorlanuvchi jarayon qanday bajariladi ?
3. Takrorlanuvchi algoritmni ta’riflang va unga misollar keltiring.
4. Takrorlanuvchi jarayon qanday ko’rinishlarda beriladi?
5. Hozircha tarmoqlanuvchi jarayonning umumiyligini tus-huntirng.
6. Gacha tarmoqlanuvchi jarayonning umumiyligini strukturasini ko’rsating.

7. Takrorlanuvchi jarayon uchun blok-sxemaning qaysi elementlari dan foydalaniladi ?
8. Algoritmning ko'rsatmasi nima ?
9. Takrorlanuvchi algoritmga misol keltiring.
10. Takrorlanishlar soni noma'lum jarayon qanday bajariladi ?
11. Takrorlanishlar soni noma'lum takrorlanuvchi jarayonga misol keltiring.

Mustaqil bajarish uchun mashqlar

1. 1 dan n gacha bo'lgan natural sonlar kvadratlarining yig'indisini hisoblash algoritmini tuzing.
2. 1 dan n gacha bo'lgan natural sonlarlarning o'rta arifmetigi va o'rta geometrigini hisoblash algoritmini tuzing.
3. 1 dan n gacha bo'lgan juft sonlar yig'indisi va toq sonlari ko'paytmasini hisoblash algoritmini tuzing.
4. Barcha juft ikki xonali sonlarni hosil qilish algoritmini tuzing.
5. Barcha 4 ga karrali bo'lgan uch xonali sonlar yig'indisini hisoblash algoritmini tuzing.
6. $y = 5x^2 - 2x + 1$ funksiyani $[-5; 5]$ oraliqda $h = 2$ qadam bilan qiymatlarini hisoblash algoritmini tuzing.
7. Agar arifmetik progressiyada $a_1 = -200$; $d = 0,2$ bo'lsa uning birinchi N hadi yig'indisini hisoblash algoritmini tuzing.
8. N sonining barcha tub bo'lувchilarini hosil qilish algoritmini tuzing.
9. $[a,b]$ oraliqdagi barcha tub sonlarini hosil qilish algoritmini tuzing.
10. Berilgan N sonining raqamlari sonini hisoblash algoritmini tuzing.
11. Berilgan N sonining raqamlari yig'indisi va ko'paytmasini hisoblash algoritmini tuzing.
12. Berilgan N sonini tub ko'paytuvchilarga ajratish algoritmini tuzing.
13. Barcha toq ikki xonali sonlarni hosil qilish algoritmini tuzing.
14. Barcha 3 va 7 ga karrali bo'lgan uch xonali sonlar yig'indisini hisoblash algoritmini tuzung.
15. $S = \sum_{n=1}^{10} 2^n + \prod_{k=1}^5 3^k + \sum_{m=1}^{10} 4^m$ ni hisoblash algoritmini tuzing.

2.4. Murakkab hisoblash jarayonlarini algoritmlash

Bundan tashqari murakkab ko'rinishdagi takrorlanuvchi jarayonlar uchun algoritmlar tuzishda ichma-ich joylashgan takrorlanuvchi –siklik

algoritmlardan foydalilanildi. Takrorlanuvchi jarayon sikl parametri va sikl tanasidan iborat bo'ladi.

Agar sikl tanasi ham yana sikldan iborat bo'lsa, u holda bunday sikllar ***ichma-ich joylashgan yoki murakkab sikllar*** deb ataladi. Ichida boshqa sikl joylashgan sikl ***tashqi sikl*** deyiladi. Boshqa sikl ichida joylashgan sikl esa ***ichki sikl*** deyiladi. Tashqi va ichki sikllarni tashkil etish qoidasi oddiy sikllarnikiga o'xshab ketadi. Faqat ichma- ich sikllarni tuzishda qo'yidagi qo'shimcha shartga rioya qilish kerak: ***ichki sikl tanasining amallari to'liq tashqi sikl tanasi ichida joylashgan bo'lishi kerak.***

Murakkab sikllar shartli ravishda ichma-ichlik darajasiga bo'linadi, ya'ni eng tashqi sikl *1-darajali*, keyingi sikl *2-darajali* va hakozaclar kabi bo'ladi. Har xil darajali sikllarning parametrl qiymatlari bir vaqtida o'zgarmaydi.


Murakkab siklda avval hamma sikl parametrlari o'zlarining boshlang'ich qiymatiga ega bo'ladi. So'ngra eng ichki sikl to'liq bajariladi. Shundan keyin bunga nisbatan tashqi sikl parametri o'z qiymatini bittaga o'zgartiradi, so'ngra ichki sikl esa yana to'liq bajariladi va hokazo bu jarayon hamma darajadagi sikllar parametrlari talab etilgan barcha qiymatlarini qabul qilib bo'lguncha davom etadi. Ichma-ich joylashgan sikllar tanasining takrorlanishlarining umumiyl soni, barcha sikl parametrlarining qabul qiladigan oxirgi qiymatlarining ko'paytmasiga teng: ***N=N1*N2*...Nk***.

Ichma-ich joylashgan siklik jarayonlarni bajarilish tartibini quyidagi misol orqali berish mumkin:

$$S = \sum_{i=1}^2 \prod_{j=1}^3 (i+j)^2 = (1+1)^2 \cdot (1+2)^2 \cdot (1+3)^2 + (2+1)^2 \cdot (2+2)^2 \cdot (2+3)^2 = \\ = 4 \cdot 9 \cdot 16 + 9 \cdot 16 \cdot 25 = 576 + 3600 = 4176$$


Ichma-ich joylashgan siklik jarayonlar algoritmlar tuzishga doir misollar qaraymiz .

1-misol. $S = \sum_{i=1}^5 \prod_{j=1}^3 \frac{i+j}{2}$ ifodaning qiymatini hisoblash algoritmini tuzing. *Yechish.* Bu yerda i bo'yicha takrorlanuvchi algoritm tashqi, j bo'yicha takrorlanuvchi algoritm ichki sikllar deb yuritiladi.



2-misol. Ikkita a va v natural sonlari uchun eng katta umumiy bo'lувчи topilsin(blok-sxema ko'rinishi):

Yechish. Bu masalaning yechimi Evklid algoritmidan iborat bo'ladi.(*Evklid algoritmining tavsifi yuqorida berilgan*).



Nazorat uchun savollar

1. Sikl nima? Qanday sikllarni bilasiz?
2. Murakkab sikl nima va u qanday tuzilgan?
3. Icma-ich va iteratsion sikllar qanday bajariladi?
4. Tashqi siklni tushuntiring.

5. Ichki sikl qanday bajariladi?
6. Iteratsion sikllarga misollar keltiring.
7. Ichma-ich sikllar tanasi nima?
8. Ichma-ich sikllar nimadalardan tarkib tiogan bo'ladi?
9. Ichma-ich sikllarning takrorlanishlar soni nimaga bog'liq?
10. Ichma-ich sikllarning soni nimaga bog'liq?

Mustaqil mashqlar

1. $S = \sum_{n=1}^{10} \prod_{k=1}^5 (a^k + b^n)$ ni hisoblash algoritmini tuzing.
2. Ko'paytirish jadvali elementlarini hosil qilish algoritmini tuzing.
3. $S = \sum_{i=1}^3 \frac{\left(\sum_{j=1}^{10} j + \prod_{k=1}^4 \frac{1}{k} \right)}{i!}$ ni hisoblash algoritmini tuzing.
4. $S = \prod_{k=1}^4 \sum_{j=1}^{10} \frac{(k! + j!)}{a+b}$ ni hisoblash algoritmini tuzing.
5. $S = \sum_{k=1}^3 \left(\prod_{n=1}^4 kn^2 + \sum_{i=1}^5 ki^3 \right)$ ni hisoblash algoritmini tuzing.
6. $S = \sum_{k=1}^3 \left(\prod_{n=1}^4 kn^2 + \sum_{i=1}^5 ki^3 \right)$ ni hisoblash algoritmini tuzing.
7. $S = \prod_{k=1}^4 \sum_{j=1}^{10} (k! + j!)$ ni hisoblash algoritmini tuzing.
8. $S = \sum_{n=1}^3 \prod_{k=1}^5 \sum_{j=1}^{10} (k^2 + j^2 + n)$ ni hisoblash algoritmini tuzing.
9. $S = \prod_{k=1}^5 \sum_{j=1}^{10} (k^2 + j^4)$ ni hisoblash algoritmini tuzing.
10. $S = \sum_{n=1}^5 \prod_{i=1}^8 (n^2 + i^3)$ ni hisoblash algoritmini tuzing.

II-BOB. C++ TILIDA DASTURLASH ASOSLARI

1§. C++ tilining asosiy elementlari

1.1. C++ dasturlash tili to'g'risida qichqacha ma'lumotlar.

“Dasturlash asoslari” fani ham bugungi kunda eng ommabop bo’lgan C++ dasturlash tilini o’rgatishni o’z ichiga oladi. Ma’lumki C tili Denni Richchi tomonidan, C++ tili esa B.Straustrup tomonidan yaratilgan.

Ko’p dasturlash tillaridan farqli o’laroq to 1989 yilgacha C tili standarti mavjud emas edi. Bu davrda ishchi qo’llanma sifatida 1978 yilda bosilib chiqqan B.Kernigan va D.Ritchi kitobidan foydalanilar edi. Odadta bu kitobga ilovalar K&R maxsus qisqartmasi bilan belgilanadi. Bu kitobning ikkinchi bosmasi ANSI (American National Standards Institute) ishlab chiqqan va ANSI C deb ataluvchi til standartiga moslashtirilgandir.

Bundan tashqari ISOS (International Standard Organization S) standarti ham mavjud. Bu standartlar orasida farq ancha kam. Dastur asosan ANSIS standartiga asoslangan.

Bern Straustrup (Bjarne Stroustrup), AT&T Bell Laboratories xodimi, 1980 yili C++ tili ustida ish boshladи. Hozirgi C tiliga yaqinligini bildiruvchi C++nomi rasmiy ravishda 1983-yili berildi.

Til birinchi tijorat versiyasi 1985-oktabrida taqdim etilib, xuddi shu yili B.Straustrupning «C++ dasturlash tili» (The C++ Programming Language) kitobi bosilib chiqdi.

Til standarti ustida 1990-yili ANSI (American National Standards Institute) ish boshladи. Bu standart oxirgi varianti 1997-yil noyabrida e’lon qilindi. Hozirgi davrda C++tili eng ommaviy dasturlash tiliga aylandi.

1.2. C++ dasturlash muhiti va unda ishlash asoslari

Dasturlash muhiti deganda dasturchilar dastur tuzish va yozish uchun mo’ljallangan dastur tushiniladi. Dasturlash muhiti alohida bitta dasturlash tili yoki bir nechta dasturlash tillari uchun mo’ljallangan bo’lib, bitta guruhga kiruvchi dasturlash tillarini qayta ishlash uchun yaratiladi.

Dasturlash muhitlari dasturlarni qayta ishlash uchun bir nechta qismlarni o’z ichiga oladi:

- *muharir (редактор)- dastur matnini yozish uchun ishlataladi;*
- *kompilyator (компилятор) – dasturlash tilida yozilgan dasturni mashina tiliga tarjima qilish uchun mo’ljallangan;*

- *dasturni rostlash, ishga tushirish* (отладка) – *dasturda mavjud xatoliklarni aniqlash va uni qayta ishlash uchun ishlataladi.*

Dasturlash muhitida dasturlarni yozish va qayta ishlash bir nechta boshqichda amalga oshiriladi:

1. Dasturni muharrirlash.
2. Dastlabki qayda ishlash.
3. Tuzatish (компоновка).
4. Yuklash.
5. Bajarish.

C++ tilida tuzilgan dasturni kompilyasiya qilish, ishga tushirish va natijani olish uchun bir nechta zamonaviy kompilyatorlardan foydalaniladi. Bular Turbo C, Borland C++, Code Blocks, Dev C++ va hakoza.

C++ dasturlash asoslari o’rganishni boshlaganlar uchun Code Blocks muhitida foydalanish yengilroqdir.

Code Blocks muhitini kompyuter xotirasiga yuklash ham qiyinchilik hosil qilmaydi. C++ tilida tuzilgan dasturni yozish uchun Code Blocks muhitini ishga tushiramiz:


1. Пуск ->Всепрограммы ->CodeBlocks ->CodeBlocks .

Ishchi stolda joylashgan mos yorliqqa  sichqoncha ko’rsatkichini ketma-ket ikki marta bosish orqali.


Bu buyruqlar bajarilganida ekranda **CodeBlocks** ning bosh oynasi paydo bo’ladi.



Dastur muhitini birinchi bor ishga tushirishda quyidagi xabar paydo bo'ladi. Bu yerda uchunchi variant tanlanib **Ok** tugmachasi bosiladi.




Jimlik bo'yicha bu xabardan tashqari quyidagi oyna ham payda bo'lishi mumkin:



Tuzilgan dasturni kiritish uchun yangi loyiha, ya'ni dastur hujjatini yaratish kerak bo'ladi. Buni 2 xil usulda amalga oshirish mumkin.

1. Hosil bo'lgan quyidagi oiynadan "**Create a new project**" (Yangi loyiha yaratish) tanlanadi.



Quyida paydo bo’lgan keying oynada "Next" tugmachasini bosa-miz.




Keyingi hosil bo’lgan oynada **Finish** tugmasini bosamiz:




Yangi loyiha yaratildi.


2. Quyidagi oyna paydo bo'lgandan keyin yangi loyiha yaratishni boshqacha ham amalga oshirish mumkin:



Bu oynada quyidagi buyruq amalga oshiriladi:



Bu buyruqdan so'ng muhitning ishchi sohasi hosil bo'ladi:




Endi bu oynaga bemalol dasturni kiritish va uni kompyuter xotirasiga yangi ixtiyoriy nom bilan saqlash kerak bo'ladi.

1.2.1. Code Blocks muhitida ishlash asoslari


C++ muhiti ishga tushirilgandan keyin kompyuter ekranida uning oynasi paydo bo'ladi. Oyna sarlavxalar satri, bosh menyu va ishchi soxa (matn muxarripi) va buyruqlarsatridan iborat.

Sarlavhalar satri matn muharirida yozilgan dastur nomidan iborat bo'ladi.


C++ tilida tuzilgan dastur bilan ishlash uchun asosan bosh menyudan foydalilanadi. Bosh menyuga chiqish uchun **F10** tugmacha bosiladi




Sarlavhalar satri dastur nomi va oynani boshqarish tugmachalari-dan iborat bo'ladi:



Uskunalar paneli ma'lum bir amallarni bajarish uchun mo'ljallangan vositalar iborat bo'ladi:



Ishchi soha (muharrir) dastur matnini kiritish uchun ishlataladi:



1.2.3. C++ muhitining bosh “menyu” si.
Bosh “menyu” quyidagi asosiy bo'limlardan iborat:

1. File – fayli amallar ma’nosi bo’lib, fayllar bilan ishlash amallarini bajarishga mo’ljallangan. **File** bilan ishlash amallari:


Open – mavjud faylni muharirlash uchun yuklash. Bu bo’lim tanlangandan keyin ekranda muloqat oynasi hosil bo’ladi. Oynada yuklash lozim bo’lgan fayl nomi ko’rsatilib, **Enter** tugmachasi bosiladi. Fayl yuklangandan keyin u muharrirlash va uni bajarish uchun tayyor bo’ladi.

Save – faylni saqlash. Bu bo’lim ishga tushirilganda muharrir xotirasidagi fayl diskga yoziladi. Agar muharrirlanayotgan fayl standart **Noname.pas** nomiga ega bo’lsa, u holda saqlashda fayl nomini o’zgartirish imkoniyati mavjud bo’ladi.

Save as – muharrirlanayotgan faylni boshqa nom bilan saqlash. Ushbu buyruq amalga oshirilgandan keyin, muharrirlanyotgan faylga boshqa nom beriladi va u kompyuter xotirasiga yangi nom bilan saqlanadi.


New – yangi faylni yaratish. Bu buyruq berilgan integrallashgan muhit muharriri yangi fayl yaratish tartibiga o’tadi. Yaratilyotgan faylga **Noname. pas** nom beriladi. Faylni saqlayotgan unga ixtiyoriy nom berish mumkin bo’ladi.

Quit) – dasturlash muhitida ishni tugallash. Bu buyruq berilgandan keyin integrallashgan muhitda ish tugallaniladi va undan chiqiladi.




2. Edit – fayllarni muharrirlashni yu qo'shimcha amallari “menyu”si bo'lib, matnni muharrirlashning asosiy funksiyalarini bajaradi. Bu amallar quyidagilardan iborat:


- **matn bo'laklarini nusxalash;**
- **matn bo'laklarini o'rnatish;**
- **matn bo'laklarini o'chirish;**
- **muxarrirlanayotgan faylning boshlang'ich topshiriqini tiklash ;**




1. View –ko'inishni belgilaydi




4. Search – matn bo'laklarini izlash va almashtirish “menyu”si bo'lib, matn qismlarini izlashni, lozim bo'lganda ularni yangisi bilan almash-tirishni amalga oshiradi




5. Project – loyihalarlar bilan ishlash buyruqlaridan iborat




6. Build - kompilyasiya “menyu”si bo’lib, ishchi sohada joylashgan dasturni kompilyasiya qilish uchun ishlataladi. Bu buyruq berilganda dastur kompilyasiya qilinadi. Agar kompilyasiya vaqtida dasturda xatolik mavjud bo’lsa, u holda bu haqda kerakli xabar kompyuter ekraniga chiqariladi. Xatoliklar tuzatilgandan keyin dastur yana kompilyasiya qilinadi. Shuning uchun dasturda mavjud xatoliklarni aniqlash maqsadida, uni vaqtি-vaqtি bilan kompilyasiya qilib turish kerak bo’ladi. Kompilyasiya qilingan dastur bajariladi.



7. Debug –dasturni rostlash (otladka qilish) amallari “menyu”si bo’lib, dasturda mavjud xatoliklarni topishni yengillashtiruvchi buyruqlardan iborat



8. Help – yordam olish “menyu”si bo’lib, muhitda ishslash bo’yicha kerakli ma’lumotlarni olish uchun ishlatiladi.



Yuqorida ta’kidlaganimizdek, **bosh “menyu”ga** qarashli bo’lim – **ostki “menyu”** deb yuritiladi. Ostki “menuga” buyrug’ini tanlash uchun, uning nomi ustiga kursov ko’rsatkichi joylashtirilib, **Enter** tugmachasi bosiladi. Ostki “menyu” dan chiqish **Esc** tugmachasini bosish orqali amalga oshiriladi.

1.3. C++ tili alfaviti va asosiy elementlari.

Alfavit. C++ alfavitiga quyidagi belgilar kiradi:

- katta va kichik lotin alfaviti harflari (A,B,..,Z,a,b,..,z)
- raqamlar: 0,1,2,3,4,5,6,7,8,9
- maxsus belgilar: “ , { } | [] () + - / % \ ; ‘ . : ? < = > _ ! & * # ~ ^
- ko’rinmaydigan belgilar (“umumlashgan bo’shliq belgilari”). Leksemalarni o’zaro ajratish uchun ishlatiladigan belgilar (misol uchun bo’shliq, tabulyatsiya, yangi qatorga o’tish belgilari).

Izohlarda, satrlarda va belgili o’zgarmaslarda boshqa literalar, masalan kiril alifbosi harflarini ishlatilishi mumkin.

Identifikator. Identifikatorlar lotin harflari, ostki chiziq belgisi va sonlar ketma-ketligidan iborat bo'ladi. Identifikator lotin harfidan yoki ostki chizish belgisidan boshlanishi lozim. **Misol uchun:** *A1, _MAX, adress_01, RIM, rim*

Katta va kichik harflar farqlanadi, shuning uchun oxirgi ikki identifikator bir biridan farq qiladi.

Xizmatchi so'zlar. Tilda ishlatiluvchi ya'ni dasturchi tomonidan o'zgaruvchilar nomlari sifatida ishlatish mumkin bo'lмаган identifikatorlar xizmatchi so'zlar deyiladi.

C++ tilida quyidagi xizmachi so'zlar mavjud:

<i>int</i>	<i>extern</i>	<i>else</i>
<i>char</i>	<i>register</i>	<i>for</i>
<i>float</i>	<i>typedef</i>	<i>do</i>
<i>double</i>	<i>static</i>	<i>while</i>
<i>struct</i>	<i>goto</i>	<i>switch</i>
<i>union</i>	<i>return</i>	<i>case</i>
<i>long</i>	<i>sizeof</i>	<i>default</i>
<i>short</i>	<i>break</i>	<i>entry</i>
<i>unsigned</i>	<i>auto</i>	<i>if</i>
<i>continue</i>		

1.4. C++ tilida miqdorlar.

O'zgaruvchilar va o'zgarmaslar. C++ tilida dasturlash jarayonida miqdorlar va ularning turlaridan foydalaniladi. Miqdorlar ikki xil bo'ladi: **o'zgaruvchilar va o'zgarmaslar.**

Dasturni bajarilish jarayonida o`z qiyamatini o`zgartiradigan miqdorlar o'zgaruvchilar deyiladi. C++ tilining asosiy tushunchalaridan biri nomlangan xotira qismi – ob'ekt tushunchasidir. Ob'ektning xususiy holi bu o'zgaruvchidir. O'zgaruvchiga qiymat berilganda unga ajratilgan xotira qismiga shu qiymat kodi yoziladi. O'zgaruvchi qiymatiga nomi orqali murojaat qilish mumkin, xotira qismiga esa faqat adresi orqali murojaat qilinadi. O'zgaruvchi nomi bu erkin kiritiladigan identifikatordir. O'zgaruvchilardan foydalanish uchun ularga nom beriladi. O'zgaruvchi nomi lotin harflari, ostki chiziq belgisi va sonlar ketma ketligidan iborat bo'lishi mumkin.

Masalan: *YUZA, _yuza23, tenglama, Ildiz, _Alfa.*

O'zgaruvchi nomi sifatida xizmatchi so'zlarni ishlatish mumkin emas.

O'zgaruvchi nomida katta va kichik harflar farqlanadi, **masalan**, infor , INFOR . Bu ikki o'zgaruvchi bir biridan farq qiladi. O'zgaruvchi nomi har doim harfdan, belgidan yoki (_) chiziqdan boshlanishi lozim.

Dasturni bajarilish jarayonida o'z qiymatini o`zgartirmaydigan miqdorlar **o'zgarmas** deyiladi. C++ tilida **butun**, **haqiqiy** va **belgili** turdag'i o'zgarmaslar ishlatiladi.

1. **Butun turdag'i o'zgarmaslar** va butun sonlardan iborat bo'ladi. **Masalan:** 23, -987, 567 va hakoza.

2. **Haqiqiy turdag'i o'zgarmaslar** haqiqiy sonlardan, ya'ni butun va kasr qismlardan iborat bo'ladi. Haqiqiy o'zgarmaslar ikki xil ko'rinishda ifodalanadi:

1) **Qo'zg'almas vergulli:** **Masalan:** 9.78, -98.67, -1.87.

2) **Qo'zg'aluvchan vergulli.** Juda katta va juda kichiksonlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu turdag'i sonlar darajali (eksponensial) ko'rinishda yoziladi. **Masalan:** a) $23,567 \cdot 10^4$ soni 23.567E4 ko'rinishda yoziladi.
b) $4,67 \cdot 10^{-12}$ soni 4.67E-12 ko'rinishda yoziladi.

c) 9000000 ya'ni $9 \cdot 10^6$ soni 9E6 yoki 90E5 yoki 0.9E7 va hakoza ko'rinishlarida yozilishi mumkin.

d) 0,00000023 ya'ni $23 \cdot 10^{-10}$ soni 23 E-10 yoki 0.23 E-7 yoki 2.3 E-9 va hakoza ko'rinishlarida yozilishi mumkin.

3. **Belgili o'zgarmaslar.** Belgili o'zgarmaslar qo'shtirnoq ichiga olingan bitta belgidan yoki bittadan ko'p bo'lgan belgi (satr)dan iborat bo'lishi mumkin. **Masalan,** "3", "a" , "g", "Salom", "tenglama", "Kompyuter".

1.5.O'zgaruvchilarining turlari

Dastur tuzish jarayonida o'zgaruvchilardan foydalanish uchun ular qabul qiladigan qiymat yoki ma'lumotlarning turlarini ko'rsatish ya'ni e'lon qilish kerak bo'ladi. C++ tilida o'zgaruvchilarning quyidagi turlaridan foydalaniladi:

1. Butun sonli tur.

tur	Qiymat chegarasi
int	32768 dan 32767 gacha
char	-128 dan 127 gacha
long	-2 147 483 648 dan 2 147 483 647 gacha

Butun sonlar ta'riflanganda ko'rilgan turlar oldiga unsigned (ishorasiz) ta'rifiq o'shilishi mumkin. Bu ta'rif qo'shilgan butun sonlar ustida amallar

mod 2 n arifmetikasiga asoslangandir . Bu yerdan soni int turi xotirada egal-lovchi razryadlar sonidir. Agar ishorasiz k soni uzunligi int soni razryadlar sonidan uzun bo'lsa, bu son qiymati k mod 2 n ga teng bo'ladi. Ishorasiz k son uchun –k amali $2n - k$ formula asosida hisoblanadi. Ishorali ya'ni signed turidagi sonlarning eng katta razryadi son ishorasini ko'rsatish uchun ishlatilsa unsigned (ishorasiz) turdagи sonlarda bu razryad sonni tasvirlash uchun ishlatiladi.

O'zgaruvchilarni dasturning ixtiyoriy qismida ta'riflash yoki qayta ta'riflash mumkin. Misol uchun:

Int a, b1, ac; eki

Int a;

int b1;

int ac;

O'zgaruvchilar ta'riflanganda ularning qiymatlari aniqlanmagan bo'ladi. Lekin o'zgaruvchilarni ta'riflashda initsializatsiya ya'ni boshlang'ich qiymatlarini ko'rsatish mumkin. Misol uchun:

Int I=0;

Char c='k';

Typedef ta'riflovchisi yangi turlami kiritishga imkon beradi.

Misol uchun yangi COD turini kiritish:

Typedef unsigned char COD;

COD simbol;

2. Haqiqiy tur. Haqiqiy turli o'zgaruvchilarni e`lon qilish uchun **float** kalit so`zidan foydalilanadi. Agar o'zgaruvchilarning qiymati juda katta va juda kichik, ya`ni $5.18 \cdot 10^{18}$ yoki $9,15 \cdot 10^{-12}$ ko`rinishlarda bo`lsa **double** yoki **long double** kalit so`zlaridan foydalanib e`lon qilinadi. $\alpha \cdot 10^{\beta}$ ko`rinishdagi sonlarda α -sonning tartibi deyiladi.

tur	Qiymat chegarasi
float	$3.4 \cdot 10^{-38} - 3.4 \cdot 10^{38}$
double	$1.7 \cdot 10^{-308} - 1.7 \cdot 10^{308}$
long double	Juda ko'p

3. Mantiqiy tur. Mantiqiy turlar bilan ishslash jarayoni matematik mantiq fanning qonuniyatlariga asoslanayapti. Matematik mantiq fikrlashning shakli va qonuniyatlarini o`rganuvchi fandir. Matematik mantiq o`zi mulohazalarga asoslanadi. Mulohaza esa ixtiyoriy fikr bo`lib, uning qiymati **rost (true)** yoki **yolg`on (false)** ekanligi ta`minlanishi shart.

1.6. C++ tilida amallar

Arifmetik amallar. C++ dasturlash tilida ham 4 ta arifmetik amal (+ - qo'shish; - -ayirish; * -ko'paytirish; / -bo'lish, % - modul olish ya'ni qolqiqli bo'lish) laridan foydalaniladi. Ularning bosqichlarga bo'linishi, bajarilish tartibi, qavslar ishtirokida bajarilish tartibi matematikadagi tartibidan farq qilmaydi. Amallar odatda unar ya'ni bitta operandga qo'llaniladigan amallarga va binar ya'ni ikki operandga qo'llaniladigan amallarga ajratiladi.

<i>C++ tilida arifmetik amallar</i>			
<i>amallar</i>	<i>belgilash</i>	<i>amallar</i>	<i>belgilash</i>
<i>ko'paytirish</i>	$a*b$	<i>ayirish</i>	$a-b$
<i>bo'lish</i>	a/b	<i>bo'linmagoldig'i</i>	$a\%b$
<i>qo'shish</i>	$a+b$	<i>Darajaga ko'tarish</i> x^n	$pow(x,n)$

Binar amallar additive ya'ni + qo'shuv va - ayirish amallariga , hamda multuplikativ ya'ni * ko'paytirish, / bo'lish va % modul olish amallariga ajratiladi.

Additiv amallarining ustivorligi multurlikativ amallarining ustivorligidan pastroqdir. Amallar quyidagicha bajariladi:

- 1) qavs ichidagi amallar, keyin...
- 2) funksiyalarga murojat, keyin, ...
- 3) chapdan o'ngga qarab ko'paytirish, bo'lish va bo'lish qoldig'i, keyin,
- ...
- 4) chapdan o'ngga qarab qo'shish va ayirish.

Masalan: 2 1 5 4 3 8 6 7

$$x = (a + 5 * b) * fabs(c + d) - (3 * b - c);$$

Butun sonni butun songa bo'lganda natija butun songacha yaxlitlanadi. Misol uchun $18/5=3$; $(-18)/5=-3$; $18/(-5)=-3$.

Butun sonni butun songa bo'lishda qoldiq qismi tashlab yuboriladi, ya'ni $5/2$ ning natijasi 2 ga teng bo'ladi. Shuning uchun bo'luvchi yoki bo'linuvchilardan bittasi haqiqiy son sifatida ifodalash kerak bo'ladi. Natija ham haqiqiy sondan iborat bo'ladi. $5/2$. yoki $5./2$ ning natijasi $2,5$ ga teng bo'ladi. **Masalan:**

inti, n;

floatx;

i = 7;

x = i / 4; // x=1, butun son butun songa bo'linadi

x = i / 4.; // x=1.75, butun son kasr songa bo'linadi;

x =(float) i / 4; // x=1.75, kasr son butun songa bo'linadi;

n = 7. / 4.; // n=1, natija butun o'zgaruvchiga beriladi

a % b modul amali butun sonni butun songa bo'lishdan hosil bo'ladigan qoldiqqa tengdir. Agar modul amali musbat operandlarga qo'llanilsa, natija ham musbat bo'ladi, aks holda natija ishorasi kompilyatorga bog'liqdir.

Masalan:

$$37\%32=5; -43\%8=-3; 64\%(-12)=4;$$

Darajaga ko'tarish amali **pow (x,n)** funksiyasi yordamida bajariladi: $\text{pow}(x,n) = x^n x^n$. **Masalan:** $\text{pow}(3,4)=81$; $\text{pow}(7, 3)= 343$;

Pow10 (intp) funksiyasi 10^p ni hisoblaydi. Bunda p-butun son bo'lishi shart. **Masalan:** Pow10 (2)=100, Pow10 (5)=10000

Inkrement va dekrement amallar. Dasturlarda o'zgaruvchiga 1 ni qo'shish va ayirish amallari juda ko'p hollarda uchraydi. C++ tilida qiyamatni 1 ga oshirish inkrement, 1 ga kamaytirish esa dekrement deyiladi. Bu amallar uchun maxsus operatorlar mavjuddir.

Inkrement operatori (++) o'zgaruvchi qiymatini 1 ga oshiradi, dekrement operatori (-) esa o'zgaruvchi qiymatini 1 ga kamaytiradi. Masalan, s o'zgaruvchisiga 1 qiymatni qo'shamoqchi bo'lsak quyidagi ifodani yozishimiz lozim: $s++ // s$ o'zgaruvchi qiymatini 1 ga oshirdik.

Bu ifodani quyidagicha yozishimiz mumkin edi.

$$s=s+1;$$

Bu ifoda o'z navbatida quyidagi ifodaga teng kuchli:

$$s+=1;$$

Bundan tashqari qiymat berish buyrug'ini qisqartirilgan va to'liq ko'rinishlarda berish mumkin. **Masalan:**

Qisqartirilgan yozuv	To'liq yozuv
x += a;	x = x + a;
x -= a;	x = x - a;
x *= a;	x = x * a;
x /= a;	x = x / a;
x %= a;	x = x % a;
y -= a	y = y - a
y % = a ++	y = y % a; a = a + 1
y* = a + 3	y = y * (a + 3)
y* = - - a	y = y - a; a = a - 1
y + = - - y	y=y-1; y=y+y
i++	i=i+1
i - -	i=i-1

Prefiks va postfiks. Inkrement operatori ham, dekrement operatori ham ikki variantda ishlaydi: prefiksli va postfiksli. Perefiksli variantda ular o'zgaruvchidan oldin ($++Age$), postfiksli variantda esa o'zgaruvchidan keyin ($Age++$) yoziladi.

Oddiy ifodalarda bu variantlarni qo'llanishida farq katta emas, lekin bir o'zgaruvchiga boshqa o'zgaruvchining qiymatini o'zlashtirishda ularning qo'llanilishi boshqacha xarakterga ega. Perefeksli operator qiymat o'zlashtirilguncha, postfiksli operator esa qiymat o'zlashtirilgandan keyin bajariladi. Qiymat berish buyrug'ining $y=++a$; **va** $y=--a$; ko'rinishlari uning **prefiks** ko'rinishi, $y=a++$; **va** $y=a--$; ko'rinishlari **postfiks** ko'rinishlari deyiladi.

Munosabat amallari. Munosabat amallari qiymatlari 1 ga teng agar munosabat (true) bajarilsa va aksincha (false) bo'lsa 0 ga tengdir. Munosabat amallari arifmetik turdag'i operandlarga yoki ko'rsatkichlarga qo'llaniladi.

Nomi	Operator	Misol	Hosil bo'ladigan qiymat
Tenglik	$= =$	$100 = = 50$ $50 = = 50$	0 (false) 1 (true)
Teng emas	$!=$	$100 != 50$ $50 != 50$	1 (true) 0 (false)
Katta	$>$	$100 > 50$ $50 > 50$	1 (true) 0 (false)
Katta yoki teng	\geq	$100 \geq 50$ $50 \geq 50$	1 (true) 1 (true)
Kichik	$<$	$100 < 50$ $50 < 50$	1 (true) 0 (false)
Kichik yoki teng	\leq	$100 \leq 50$ $50 \leq 50$	0 (false) 1 (true)

Misollar:

- $1 != 0$ qiymati 1 ga teng;
- $1 == 0$ qiymati 0 ga teng;
- $3 >= 3$ qiymati 1 ga teng;
- $3 > 3$ qiymati 0 ga teng;
- $2 <= 2$ qiymati 1 ga teng;
- $2 < 2$ qiymati 0 ga teng;

Katta $>$, kichik $<$, katta yoki teng \geq , kichik yoki teng \leq amallarining ustivorligi bir xildir. Teng $=$ va teng emas \neq amallarining ustivorligi o'zaro teng va qolgan amallardan pastdir.

Mantiqiy amallar. Mantiqiy ma'lumotlar uchun quyidagi mantiqiy amallardan foydalanish mumkin: \parallel - qo'shish (**va**); $\&\&$ - ko'paytirish (**yoki**); $!$ - inkor (**yo'q**). Or va **and** mantiqiy amallar ikkita kattalik bilan, **not** amali esa bitta kattalik bilan bajariladi.

amal	belgilash	misol
qo'shish (or);	\parallel	a \parallel a
ko'paytirish (and);	$\&\&$	a $\&\&$ b
inkor (not).	!	!a

Mantiqiy qiymatlar ustida amallar natijasi quyidagicha:

<i>a</i>	<i>b</i>	!	\parallel	$\&\&$
<i>true</i>	<i>true</i>	<i>false</i>	<i>true</i>	<i>true</i>
<i>true</i>	<i>false</i>	<i>false</i>	<i>true</i>	<i>false</i>
<i>false</i>	<i>true</i>	<i>true</i>	<i>true</i>	<i>false</i>
<i>false</i>	<i>false</i>	<i>true</i>	<i>false</i>	<i>false</i>

Misol. Agar $a = 25$ va $b = 20$ bo'lsa:

- a) $(a > 10) \parallel (b < 12)$ (*true*) b) $(a > 10) \&\& (b < 3)$ (*false*)
- c) $(a > 10) \&\& (b > 12)$ (*true*) d) $(a > 10) \parallel (b > 12)$ (*true*)
- e) $!((a > 10) \&\& (b > 12))$ (*false*)

Nazorat uchun savollar

1. C++ tilining tarkibiy asosiy qismlari qanday?
2. Ma'lumot nima va uning qanday turlari bor?
3. Ma'lumotlar qanday tavsiflanadi?
4. Butun, haqiqiy, satrli va mantiqiy turlarni tushintiring.
5. C++ tilida qanday amallar ishlatiladi?
6. Qanday arifmetik amallarni bilasiz?
7. Munosabat amallarni bajarilish tartibini tushuntiring?
8. C++ tilida o'zgarmas nima? Qanday o'zgarmaslarni bilasiz?
9. Qanday mantiqiy amallarni bilasiz?
10. Taqqoslash amallari nima uchun ishlatiladi?
11. Sanab o'tiladigan turlarni tushuntiring?
12. Nima uchun literalli o'zgarmasga nisbatan belgili o'zgarmasni ishlatish yaxshiroq?
13. Butun sonli va haqiqiy tiplarni qanday farqi bor?
14. unsigned short int va long int tiplarining o'zaro farqi nimada?

15. const kalitli so'zini **#define** direktivasi o'rniga qo'llashni afzalligi nimada?

Mustaqil topshiriqlar

1. Quyidagilar qaysi biri butun turga tegishli:
a) -3 b) 12a +5.2 c) -999999999999999 d) ++60 e) +-+--3957
2. Quyidagilar qaysi biri haqiqiy turga tegishli:
a) 0.3 b) -2.56 c) 3,5 d) 6.5487E3 e) +.3 f) -7. j) 0.0E6
3. Quyidagilar qaysi biri belgili turga tegishli:
a) 'abc' b) 'ы' c) '3,5' d) "начало" e) '////' f) 'Алексј) '0"0's) "ко-нец"
4. Quyidagilar qaysi biri mantiqiy turga tegishli:
a) true b) False c) t d) 'false' e) истинаf) trunc j) TRUE
5. Quyidagilardan qaysi biri identifikator bo'lishi mumkin:
a) Alphab) begin c) a125 d) 2be) end3 f) Жукj) end_for
6. Agar $a = 11$ va $b = 22$ bo'lsa natijani aniqlang:
a) $(a > 10) \&\& (b < 12)$ b) $(a > 10) \parallel (b < 3)$ c) $(a > 10) \&\& (b > 12)$
d) $(a > 10) \parallel (b > 12)$ e) $!((a > 10) \&\& (b > 12))$
7. Agar $x = 9$ bo'lsa natijani aniqlang:
a) $x / 3$ b) $x / 3.$ c) $(float x) / 3$
8. Natijani aniqlang:
a) $12.37 \% 4$ b) $-9 \% 8$ c) $66 \% (-12)$ d) $\text{pow}(4,6)$ e) $\text{pow}10(6)$

2§. C++ tilida standart funksiya va ifodalar

2.1. C++ tilida standart funksiyalar.

C++ tilida **math.h**matematik funksiyalar kutubxonasiga tegishli quyidagi funksiyalar mavjud:

funksiya	ifodalanishi	funksiya	ifodalanishi
$\sin x$	$\sin(x)$	$\arctan x$	$\text{atan}(x)$
$\operatorname{tg} x$	$\tan(x)$	$\arccos x$	$\text{acos}(x)$
e^x	$\exp(x)$	$\sqrt[3]{x^2}$	$\text{pow}(x, 2/3.)$
$\ln x$	$\log(x)$	$\log_2 x$	$\log(x) / \log(2)$
$\lg x$	$\log10(x)$	x dan kichik bo'lмаган butun son	$\text{ceil}(x)$
x^a	$\text{pow}(x, a)$	x dan katta bo'lмаган butun son	$\text{floor}(x)$
\sqrt{x}	$\text{sqrt}(x);$ $\text{pow}(x, 1/2.)$		
$ x $	$\text{abs}(x)$ yoki $\text{fabs}(x)$		

Masalan : $\text{ceil}(4.8) = 5$, $\text{floor}(4.8) = 4$, $\text{pow}(2,5) = 32$,
 $\text{fmod}(5,3) = 2$.

Trigonometrik funksiyalarning qiymatlari radian o'lchov birligida hisoblanadi.

Masalan: $\sin(1.2) = 0.932039$, $\cos(1.2) = 0.362358$,
 $\tan(1.2) = 2.57215$.

Agar trigonometrik funksiyalarni qiymatlarini graduslarda hisoblash kerak bo'lsa, ular radianga aylantiriladi yoki π orqali ifodalanadi.

Masalan: $\sin 60^\circ = \sin(\pi/3) = \sin(\pi * 60 / 180) = 0.86576$.

2.2. C++ tilida ifodalar.

C++ tilida ifodalar o'zgarmaslardan, o'zgaruvchilardan, funksiyalardan, amallar ishorasidan va qavslardan tuzilgan bo'lib, ostki va uctki indekslarsiz bir satrga yoziladi.

C++ tilida dasturlash tilida arifmetik, mantiqiy va satrli ifodalar ishlataladi.

Arifmetik ifoda. C++ tilida arifmetik ifodalar o'zgarmaslardan, o'zgaruvchilardan, funksiyalardan, amallar ishorasidan va qavslardan tuzilgan bo'ladi.

Ifodalarda qatnashayotgan o'zgarmaslar, o'zgaruvchilar va funksiyalar dasturda e'lon qilingan bo'lishi yoki standart nomiga ega bo'lishi kerak. Sonli qiymatlarni hisoblash uchun arifmetik ifoda qo'llaniladi.

Arifmetik ifodada bo'lish va ko'paytirish amallari qo'shish va ayirish amallaridan oldin bajariladi.

Masalan: $3 + 2 * 5 - 3$ ifodaning bajarilishidan 10 hosil bo'ladi.

Bir xil o'rinni amallar ishtirok etgan ifodalarda ular chapdan o'ngga qarab bajariladi.

Masalan. $4 * 6 / 3$ ifoda natijasi 8 ga teng.

Qavs ichiga olingan ifodalar birinchi navbatda bajariladi.

Masalan. $(7-2) * (5+4)$ ifoda natijasi 45 ga teng

Arifmetik ifodada haqiqiy va butun turdag'i ma'lumotlar qatnashi mumkin , natija ham mos ravishda haqiqiy yoki butun bo'ladi.

Oddiy yozuvda	C++ tilida
$\frac{a+12,686}{c_2 - 1,87 \cdot 10^3} + \gamma$	$(a+12.686)/(C2-1.87E3)+gamma$
$\frac{ 2\sin 4x+x }{3x}$	$fabs(2*sin(4*x)+x)/(3*x)$
$\frac{2^2 + \ln 1,13}{\operatorname{tg} 2x}$	$(2*2+log(1.13))/tan(2*x)$
$\frac{a^2 + 2^{1,17}}{\sqrt{x+y}}$	$(pow(a,2)+pow(2,1.17))/sqrt(x+y)$
$\frac{ x - y }{1+ xy }$	$(fabs(x) - fabs(y)) / (float)(1 + fabs(x * y))$
$\ln \left(y - \sqrt{ x } \right) \left(x - \frac{y}{z + x^2 / 4} \right)$	$log(fabs((y - sqrt(fabs(x))) * (x - y / (z + pow(x,2) / 4.0))))$

Mantiqiy ifoda. Mantiqiy ifodalar mantiqiy qiymatlar, mantiqiy va munosabat amallari, arifmetik hamda belgili qiymatlar qatnashib, natijasi **true** va **false** qiymat bo'lishi mumkin. Unda amallar quyidagi tartibda bajariladi:

1. *not (yo'q);*
2. ** (ko'paytirish), / (bo'lish), div, mod, and (va)*
3. *+ (qo'shish), - (ayirish), or (yoki);*
4. *< (kichik), <= (kichik yoki teng), = (teng), <> (teng emas), >= (katta yoki teng), > (katta);*

Bitta satrda berilgan amallar bir xil bajarilish o'rniga ega. Mantiqiy ifodalarda faqat oddiy qavslar yoziladi.

Masalan. 1) $(A>3)$ and $(B=A+6)$ or not $(c=4)$

2) $(A<=x)$ and $(x<=B)$ or $(c<=x)$ and $(x<=d)$

2.3. C++ tilida dasturning umumiy tuzilishi

C++ tilidagi dastur quyidagi tarkibdan tashkil topadi:

1. **Direktivalar** – # include <file.h> direktiva – instruksiya degan ma'noni beradi. C++ tilida dasturning tuzilishiga, ya'ni ehtiyojiga qarab, kerakli direktivalar ishlataladi. Ular <> belgisi orasida keltiriladi. Umuman olganda quyidagi direktivalar mavjud (jami 32 ta):

- #include <stdio.h> - C++ da oddiy kiritish/chiqarish dasturi uchun. Bu yerda std - standart, i – input, o - output degani.
- #include <iostream.h> - C++ da kiritish/chiqarish uchun, oddiy amallar bajarilsa.
- #include <math.h> - standart funksiyalarni ishlatish uchun.

- #include <conio.h> - dasturning tashqi ko’rinishini shakllantirish uchun.
- #include <string.h> - satr toifasidagi o’zgaruvchilar ustida amallar bajarish uchun.
- #include <stdlib.h> - standart kutubxona fayllarini chaqirish uchun.
- #include <time.h> - kompyuter ichidagi soat qiymatlaridan foydalanish uchun.
- #include <graphics.h> - C++ tilining grafik imkoniyatlaridan foydalanish uchun.

Bu fayllar maxsus kutubxona e’lon fayllari hisoblanadilar va ular alohida INCLUDE deb nomlanadigan papkada saqlanadilar. Hozirda C++ kutubxonasi yangilandi va undagi fayllarning nomlaridan .h (head – bosh ma’nosida) kengaytmasi olib tashlandi va oldiga c harfi qo’shildi (C dan qolgan 18 tasiga). Bu fayllarda funksiya prototoifalari, toifalari, o’zgaruvchilar, o’zgarmaslar ta’riflari yozilgan bo’ladi.

Direktivalar dasturni uni kompilyasiya qilinishidan oldin tekshirib chiqadi.

2. Makroslar - # define makro qiymati. Masalan:

```
#define y sin(x+25) – u = sin(x+25) qiymati berildi;
#define pi 3.1415 - pi = 3.1415
#define s(x) x*x - s(x) = x*x (; belgisi qo'yilmaydi)
```

Global o’zgaruvchilarni e’lon qilish. Asosiy funksiya ichida e’lon qilingan o’zgaruvchilar lokal, funksiyadan tashqarida e’lon qilinganlari esa global o’zgaruvchilar deyiladi. Global o’zgaruvchilar dastur davomida ishlaydi va xotiradan ma’lum joyni egallaydi. O’zgaruvchini bevosita ishlatishdan oldin e’lon qilsa ham bo’ladi, u holda o’z lokal bo’ladi. Global o’zgaruvchilar nomi lokal o’zgaruvchilar nomi bilan bir xil bo’lishi ham mumkin. Bunday holatda lokal o’zgaruvchining qiymati joriy funksiya ichidagini qiymatini o’zgartiradi, funksiyadan chiqishi bilan global o’zgaruvchilar ishlaydi.

Asosiy funksiya - **main ()** hisoblanadi. Bu funksiya dasturda bo’lishi shart. Umuman olganda C++ dagi dastur funksiyalardan iborat deb qaraladi. main () funksiyasi { boshlanadi va dastur oxirida berkitilishi shart }. main – asosiy degan ma’noni beradi. Bu funksiya oldida uning toifasi ko’rsatiladi. Agar main () funksiyasi beradigan (qaytaradigan) javob oddiy so’z yoki gaplardan iborat bo’lsa, hech qanday natija qaytarmasa, void so’zi keltiriladi. main () funksiyasi

dastur tomonidan emas, balki OS tomonidan chaqiriladi. OSga qiymat qaytarish shart emas, chunki u bu qiymatdan foydalanmaydi. Shuning uchun main () funksiyasining turini *void* deb ko'rsatganimiz ma'qul. Har bir funksiyaning o'z argumenti bo'ladi, shuning uchun main funksiya () lari ichiga uning parametri keltiriladi. Ba'zan u bo'sh bo'lishi ham mumkin. Bu funksiyadan chiqish uchun odatda *return* operatori ishlatiladi. 0 (nol) qiymatining qaytarilishi operasion tizimga ushbu dastur normal bajarilib turganini bildiradi. *return* orqali qaytadigan qiymat toifasi funksiya e'lonidagi qaytish toifasi bilan bir xil bo'lishi kerak. Masalan int main () va 0 (nol) qiymat butun toifalidir. Bu funksiyadan so'ng lokal o'zgaruvchilar, qism dasturlar, ularning haqiqiy parametrlar e'lon qilinadi. So'ngra dasturning asosiy operatorlari (kiritish/chiqarish, hisoblash va h.k.) yoziladi. Agar bu operatorlar murakkab toifali bo'lsalar, ularni alohida {} qavslarga olinadi. C++ tilida dastur kichik harflarda yoziladi. Ba'zi operatorlar katta harflar bilan kelishi mumkin, bunday xollarda ular alohida aytib o'tiladi. Operatorlar oxiriga ; belgisi qo'yiladi. Operatorlar bir qatorga ketma-ket yozilishi mumkin. Dasturda izohlar xam kelishi mumkin, ular /* */ belgisi orasiga olinadi. Agar izoh bir qatorda tugasa, uni // belgisidan keyin yoziladi. Masalan:

main () // C++ tilining asosiy funksiyasi

Izohlar /*..... */ ichida yoziladi va ularni kompilyator tarjima qilmaydi.

Agar dasturda **clscl();** prosedurasi ishlatilsa, ekranda avvalgi natijalari tozalanib, yangisi hosil bo'ladi.

Nazorat uchun savollar

1. Qanday arifmetik amallarni bilasiz?
2. Qiymat berish amali qanday?
3. Ifoda qanday tuzilgan?
4. Qanday turdag'i ifodalardan foydalilanadi?
5. Inkrement va dekrement amallarini izoxlab bering?
6. Prefiks va postfiks amallarini tushintiring.
7. Qanday standart funksiyalar ishlatiladi?
8. Sizeof amali nima?
9. C++ tilida qanday qismlardan iborat?
10. Direktiva nima va qanday direktivalar ishlatiladi?
11. O'zgaruvchilar qanday tavsiflanadi?

Mustaqil bajarish uchun mashqlar

1. Arifmetik ifoda qiymatini hisoblang:

- 1) $\sin(\sqrt{x} - 1) + 2 * \operatorname{abs}(y) / \cos(2 + y)$ bu yerda $x = 1, y = -2$
- 2) $\operatorname{ceil}(6.9) - \operatorname{floor}(6.2)$
- 3) $30 \% 6 - 30 \% 5 + \operatorname{floor}(2.7)$
- 4) $4 * \operatorname{arctan}(1) - 1 + \operatorname{fabs}(-1)$
- 5) $1 + 2.5$

2. Arifmetik ifoda turini aniqlang:

- 1) $1 + \sqrt{4} + \sin(0) + 0.1$
- 2) $\sqrt{2.0} + \sqrt{121} - \operatorname{ceil}(-11.7)$
- 3) $\operatorname{ceil}(32.7) + 10 \% 3$
- 4) $\operatorname{floor}(\sin(0)) + 1$

3. Quyidagilardan qaysi biri qiymat berish operatori

- a) $a := b$
- b) $a = c + 1$
- c) $z := 0$
- d) $y := y$
- e) $w := w - 1$
- f) $y := y$
- f) $b := \operatorname{true}$
- j) $x := 'a' + 1$

4. Agar int i, j, k, m; char c, d; i = 1; j = 2; k = -7; m = 0; c = 'w'; bo'lsa quyidagi ifodalardan qaysi biri to'g'ri yozilgan:

- a) $d = 'a' + 1 < c$
- b) $m = -i - 5 * j \geq k + 1$
- c) $i + j++ + k == -2 * j$
- d) $m = 3 < j < 5$
- e) $m = 3 == j < 5$
- f) $m == c = 'w'$
- j) $m = c != 87$
- s) $m = c = !87$
- l) $m = !c = 87$
- i) $m = !c + 87$
- o) $i - k == '0' + 9 < 10$
- p) $m != c + 87$

5. Ifodani C++ tilida yozing:

$$\begin{array}{ll}
 \text{a)} \ z = (1+u) \frac{x+\frac{y}{u}}{a-\frac{1}{1-x^2}}; & \text{b)} \ a = \frac{(x+y)^3 + \sqrt[3]{|x+y|}}{3} \\
 \text{c)} \ S = 2\pi R^3 + \sqrt{R + vt} & \text{d)} \ y = a * e^{\lg x} - \sqrt{ax+b} \\
 \text{e)} \ C = \sqrt{\frac{x^2 + y^2}{3}} + \ln|x + y|; & \text{f)} \ S = \ln \frac{x + \sqrt{1+x^2}}{x} + \operatorname{tg}^3 \frac{1-e^x}{1+e^x};
 \end{array}$$

3§.C++ tilida oddiy operatorlar

3.1. Qiymat berish buyrug'i .

Qiymat berish buyrug'i deyilganda qandaydir o'zgaruvchilarga biror qiymatni berish haqidagi buyruq tushuniladi.

C++ dasturlash tilida qiymat berish buyrug'i matematikadagi tenglik belgisi ("=") yordamida beriladi. Masalan: X=6; yozushi matematikada "x oltiga teng" deb o'qilsa, C++ dasturlash tilida "x ga olti qiymat berilsin" deb o'qiladi.

O'zgaruvchilarga qiymat berish uchun o'zlashtirish operatori qo'llaniladi. Masalan, **Width** o'zgaruvchisiga 5 qiymatni berish uchun quyidagilarni yozish lozim:

unsigned short Width;

Width = 5;

Bu ikkala satrni Width o'zgaruvchisini aniqlash jarayonida birgalikda yozish mumkin.

unsigned short Wigth = 5;

Bir necha o'zgaruvchilarni aniqlash vaqtida ham ularga qiymat berish mumkin:

Long width = 5, length = 7;

Ma'lumki, dasturlash tillarida har bir e'lon qilingan o'zgaruvchi qiymatni yozib qo'yish uchun xotirada joylashtiriladi. Siz qiymat berish buyrug'ining mohiyatini to'g'ri tushunish uchun kompyuter xotirasini daftarning bir varog'i deb, varoqning har bir katakchasini xotira yacha-ykasi deb tushuning. Natijada, o'zgaruvchiga berilgan har bir qiymatni go'yo o'sha katakcha o'lchamidagi qog'ozga yozib, o'sha katakchaga kleylab qo'yiladi deb tushunasiz. Demak, bitta o'zgaruvchi bir nechta qiymatlar olsa, oxirgisi ko'rinishi, oldingilari ko'rinasdan qoladi.

Misol: $X = 5; X = X + 3; Y = 10; X = X - Y; X = X + Y; Y = X + Y$. Buyruqlar bajarilgach, X va Y lar qanday qiymatlar oladi.

Javob: qiymat berish buyrug'i ba'zi adabiyotlarda "o'zlashtirish operatori" yoki "o'zlashtirish amali" yoki "ta'minlash operatori" deb ham yuritiladi.

3.2.Ma'lumotlarni kiritish operatori.

Ma'lumotlar **cin** operatori yordamida kiritiladi. Qiymati kiritiladigan o'zgaruvchilar bu operatordan keyin bir-birlaridan ">>" belgi bilan ajratilgan holda yoziladi.Uning umumiyligi ko'rinishi quyidagicha:

cin>>a1>>a2>>...>>an;

Bu yerda a1,a2,...,an qiymatlari kiritilishi talab etilgan o'zgaruvchilarning nomi. **cin** operatori bajarilganda dastur bajarilishi to'xtaydi va kerakli ma'lumotlarni kiritilishini kutadi.

3.3. Ma'lumotlarni chiqarish operatori.

Dasturda hosil bo'lgan natijalarni chiqarish uchun chiqarish operatori ishlataladi. Dastur natijalari **cout** operatori yordamida ekranga chiqariladi.

O'zgaruvchilar **cout** operatoridan keyin bir-birlaridan “<<” belgi bilan ajratilgan holda ko'rsatiladi. Uning umumiy ko'rinishi quyidagicha:

cout<<b1<<b2<<.....<<bn; bu yerda **b1,b2,...,bn** chiqarilayotgan natijalar.

3.4. **Sizeof amali**

O'zgaruvchilar, o'zgarmaslar va turlarning xotiradan qancha joy egallashini aniqlash maqsadida **sizeof** amalidan foydalaniladi. Buni quyidagi dastur misolida ko'ramiz:

```
int main ()  
{ int a, b, c; float x, y, z;  
cout << "\n butun =" << sizeof (int);  
cout << "\n haqiqiy =" << sizeof (float);  
cout << "\n bul turi =" << sizeof (bool);  
cout << "\n a =" << sizeof (a);  
cout << "\n x =" << sizeof (x);  
return 0;  
}
```

3.5. C++ tilida dasturda izohlar berish

C++ tilida dasturda operatorlarning bajarilishi hamda unda qatnashayotgan o'zgaruvchi va o'zgarmasga izohlar berish imkoniyati mavjud. Izohlar matn ko'rinishida beriladi. Izohlar kompilyatorda qayta ishlanmaydi va operatorning bajarilishiga ta'sir qilmaydi.

C++ tilida izohlarni ikki xil ko'rinishda joylashtirish mumkin:

- ikkita ketma-ket keluvchi qiyshiq chiziq (//) orqali. Uni dasturni ix-tiyoriy satriga joylashtirish mumkin. Bundan qisqa izohlar berish uchun foydalaniladi.
- Izohning boshiga /* belgini va oxiriga */ belgisini qo'yish orqali. /* va */ belgilari orasidagi matn izohni bildiradi. Bu usulda uzun izohlarni berish uchun foydalaniladi.

Masalan:

```
{  
int i, n, k; // i, n, k lar butun turli o'zgaruvchilar  
float x,y,z; /* x,y,z o'zgaruvchilar haqiqiy turga tegishli ekanligi  
ko'rsatilgan va ular qabul qiladigan qiymat haqiqiy ko'rinishda bo'ladi  
*/  
.....  
}
```

Nazorat uchun savollar

1. Operator nima?
2. C++ tilida dastur qanday tuzilgan?
3. Dasturning har bir qismini izohlab bering.
4. Ma'lumotlarni kiritish uchun qanday operatorlar ishlataladi?
5. Kiritish operatoridan foydalanish usullarini tushintiring.
6. Ma'lumotlarni chiqarish uchun qanday operatorlar ishlataladi?
7. Chiqarish operatoridan foydalanishni tushintiring.
8. O'zgaruvchilar qiymati va o'zgarmaslar qanday chiqariladi?
9. C++ tilida dasturi izohlar qanday beriladi?
10. Chiziqli dastur nima?

Mustaqil bajarish uchun mashqlar

1. Ifodani qiymatini hisoblash dasturini tuzing:

$$a = \sqrt[3]{x + \sqrt[4]{y}}; \quad b = \sqrt{yl^{-(y+4/2)}},$$

2. Tomonlari bilan berilgan uchburchakning perimetri va yuzasini hisoblash dasturini tuzing.
3. Uchlarining koordinatalari bilan berilgan uchburchakning perimetri va yuzasini topish dasturini tuzing.
4. Asosi uzunligi va balandligi bilan berilgan uchburchak yuzasini hisoblash dasturini tuzing.
5. To'g'ri to'rburchakning perimetri va yuzasini hisoblash dasturini tuzing.
6. Tomonlaridan biri va balandligi bilan berilgan parallelogramning yuzasini hisoblash dasturini tuzing.
7. Kvadratning perimetri va yuzasini hisoblash dasturini tuzing.
8. Radisi berilgan aylanaga ichki chizilgan to'g'ri olti burchakning perimetri va yuzasini hisoblash dasturini tuzing.
9. a,b,c sonlarining o'rta arifmetigi va o'rta geometrigini hisoblash dasturini tuzing.
10. Geometrik progressiyaning birinchi hadi va maxraji berilgan bo'lsa, uning n -hadi va n ta hadlar yig'indisini hisoblash algoritmi va dasturini tuzing.

4§.C++ tilida murakkab operatorlar

4.1. Shartsiz o'tish operatori.

Bu operator hech imkon bo'lmay qolgan holda dasturning tabiiy bajarilishini buzib, boshqaruvni dasturning ixtiyoriy joyiga uzatish uchun xizmat qiladi.

O'tish operatori quyidagicha beriladi:

goto nishon(belgi);

bu yerda **goto(..ga o'tish)** - *operator nomi*, **nishon** – bu belgi bo'lib, u harf, harflar yoki harf va sonlar bo'lishi mumkin. Bu operatordan foydalanish uchun boshqaruv shartsiz ravishda uzatiladigan operator belgilanadi. Operatorni belgilash uchun uning oldiga **nishon** va : qo'yiladi: **nishon : operator;**

Masalan: **goto a;**

.....

a: y=x*x+c;

Bu yerda **goto a;** operatori bajarilgandan keyin boshqaruv to'g'ridan-tog'ri **a:y=x*x+c;** operatorga uzatiladi.

4. 2. Shartli o'tish operatori.

C++ tilida shartli o'tish operatorining qisqa va to'liq ko'rinishlaridan foydalaniladi.

Qisqa shartli o'tish operatori. Shartli operatorning qisqartirilgan ko'rinishi quyidagicha:

if (ifoda) {s1;s2;...;sn;};

Bu yerda **if** kalit so'zi bo'lib, **agar** degan ma'noni bildiradi hamda har doim lotin alifbosining kichik haraflari bilan yoziladi. Qavs ichida yozilgan **ifoda** arifmetik, mantiqiy, taqqoslash va boshqa amallardan tashkil topgan mantiqiy ifoda bo'lib, u **true** yoki **false** qiymatlarini qabul qiladi. **s1,s2,..sn** operatorlar ketma-ketligi.

To'liq shartli o'tish operatori. Shartli operatorning to'liq ko'rinishi quyidagicha: **if (ifoda) {s1;s2;...;sn;} else {p1;p2; ...;pm;}**

Bu yerda **if** va **else** kalit so'zlar bo'lib, mos ravishda **agar** va **aks holda** degan ma'noni bildiradi hamda ular har doim lotin alifbosining kichik haraflari bilan yoziladi. Qavs ichida yozilgan **ifoda** arifmetik, mantiqiy, taqqoslash va boshqa amallardan tashkil topgan mantiqiy ifoda bo'lib, u **true** yoki **false** qiymatlarini qabul qiladi. **s1;s2;...;sn;}** va **p1;p2; ...;pm** lar operatorlar ketma-ketligi.

? shart operatori.

? shart operatorining umumiy ko'rinishi quyidagicha:

X=B1 ? S1: S2;

bu yerda X-operatorni bajarilish natijasini qabul qiluvchi o'zgaruvchi; B1-mantiqiy ifoda bo'lib chin (true) yoki yolg'on (false) qiymatni qabul

qiladi; S1-mantiqiy ifodaning qiymati true bo'lgan bajariladigan operator; S2-mantiqiy ifodaning qiymati false bo'lgan bajariladigan operator.

4.3. Tanlash operatori.

Tanlash operatori C++ tilida hosil qilinadigan operatorlardan hisoblanib, shartli operatorning umumlashmasidan iboratdir.

Tanlash operatori quyidagicha umumiyo ko'rinishga ega :

switch (ifoda)

```
{ case 1-o'zgarmas ifoda: 1-operatorlar ketma-ketligi; break;
    case 2-o'zgarmas ifoda: 2-operatorlar ketma-ketligi; break;
```

```
.....
```

```
case n-o'zgarmas ifoda: n-operatorlar ketma-ketligi; break;
```

```
default:
```

```
    operatorlar ketma-ketligi;
```

```
}
```

Tanlash operatorida ifodaning qiymatiga qarab, dasturda berilgan operatorlar ketma-ketligidan birini tanlaydi.

break operatori dastur bajarilishini **switch** operatoriga taluqli blokdan chiqarib yuboradi.

Agar ifodaning qiymati ro'yxatda berilgan ifodalarning qiymati bilan bir xil bo'lmasa **default** operatoridan keyingi operatorlar bajariladi va tanlash operatorini bajarilishi tugaydi.

Switch (x<=0)

```
{ case true: y:=sqrt(sqr(x)-x+2);cout<<y;break;
    case false: y:=ln(x+3);cout<<y;break;
default:
}
```

4.4. Sikl operatorlari. Parametrli sikl operatori.

Agar sikllik jarayonlarda takrorlanish soni oldindan ma'lum bo'lsa, ko'p hollarda parametrli sikl operatoridan foydalaniladi.

Parametrli sikl operatorining umumiyo ko'rinishi quyidagicha:

for (x=x₀; x<=x_n ; x=x+x_{qad})

```
{ 1-operator; 2-operator;...;k-operator; }
```

Bu yerda **for (uchun)** - xizmatchi so'z; **x**- *sikl parametri* deb ataluvchi o'zgaruvchi; **x₀,x_n** - sikl parametrining mos ravishda *boshlangich va oxirgi qiymatlari*; **x_{qad}** - *sikl parametrining o'zgarish qadami*; { 1-operator; 2-operator;...;k-operator; }- *sikl parametrning qabul qiladigan har bir qiymatida takroran bajariladigan operatorlar*.

Agar bu operatorlar bittadan ko'p bo'lsa { } belgi ichiga olinadi, aks holda shart emas.

4.5. Sharti oldin qo'yilgan sikl (while) operatori.

Sharti oldin qo'yilgan sikl (**while**) operatorining umumiy ko'rinishi quyidagicha:**while B {s1;s2;...;sn}**- bu yerda **while** (toki)xizmatchi so'z, **B**-mantiqiy ifoda, **{s1;s2;...;sn}**-operatorlar.

Bu operatorda **{s1;s2;...;sn}** operatorlar ketma-ketligi bajarilmasligi yoki bir martadan ortiq bajarilishi mumkin, chunki **{s1;s2;...;sn}** operatorlarning har bir bajarilishidan oldin **B** mantiqiy ifodaning qiymati tekshiriladi. Agar ifoda chin (true) qiymat qabul qilsa **{s1;s2;...;sn}** operatorlar bajariladi, aks holda, ya'ni **B** yolg'on (false) qiymat qabul qilsa, sikl operatorining bajarilishi tugaydi.

Agar **B** mantiqiy ifoda birinchi hisoblanishidayoq *yolg'on qiymatni* qabul qilsa, **{s1;s2;...;sn}** **operatorlar** bir marta ham bajarilmaydi. Ko'rinib turibdiki, bu yerda siklik jarayonning tugallanish sharti **{s1;s2;...;sn}** **operatorlar** bajarilishidan oldin tekshiriladi. Shuning uchun bunday ko'rinishdagi sikl operatori - *sharti oldin qo'yilgan sikl operatori* deb yuritiladi. Bu yerda ham takrorlanadigan operatorlar bittadan ortiq bo'lsa ular { } belgi ichiga olinadi, aks holda shart emas.

Masalan: 1) $y:=1; k:=0; m=5;$ **while** $y \leq m \{ y:=y+3; k:=k+; \}$

2) $x:=3; y:=1; v:=1; eps:=0,0001;$

while $abs(v) >= eps \{ V:=(x/y-y); y:=y+v; \}$

4.6 .Sharti keyin qo'yilgan (do..while) sikl operatori.

Bu operator takrorlanuvchi hisoblash jarayonlarida takrorlanishlar soni ma'lum, noma'lum bo'lgan holatlarda ishlataladi. Operatorning umumiy ko'rinishi quyidagicha Sharti oldin qo'yilgan sikl (**while**) operatorining umumiy ko'rinishi quyidagicha:**do {s1;s2;...;sn ;} while B** bu yerda **while** (toki), **do** (bajar) xizmatchi so'zlar, **B**-mantiqiy ifoda, **{s1;s2;...;sn ;}** -operatorlar ketma-ketligi..

Bu operatorda **{s1;s2;...;sn ;}** operatorlar ketma-ketligi hech bo'limganda bir marta va undan ortiq bajarilishi mumkin, chunki **{s1;s2;...;sn ;}** operatorlar bajarilgandan keyin **B** mantiqiy ifodaning qiymati tekshiriladi. Agar ifoda chin (true) qiymat qabul qilsa **{s1;s2;...;sn ;}** operatorlar bajariladi, aks holda, ya'ni **B** yolg'on (false) qiymat qabul qilsa, sikl operatorining bajarilishi tugaydi.

Bu operatorda siklik jarayonning tugallanish sharti **{s1;s2;...;sn ;}** operatorlar bajarilgan dan keyin tekshiriladi. Shuning uchun bunday

ko'inishdagi sikl operatori - *sharti keyin qo'yilgan sikl operatori ham* deb yuritiladi. Bu yerda ham takrorlanadigan operatorlar bittadan ortiq bo'lsa ular { } belgi ichiga olinadi Operatorning bajarilishida **do...while** operatorlari orasida joylashgan operatorlar ketma- ketligi bir marta va undan ortiq bajarilishi mumkin. Bu jarayon qo'yilgan mantiqiy ifoda **yolg'on qiymat** qabul qilgunga qadar davom etadi.

do..while operatorining **while** operatoridan farqi shundaki, bunda eng avval operatorning qiymati hisoblanib, so'ngra qo'yilgan shart tekshiriladi. Bu esa bunda berilgan operatorning hech bo'limganda bir marta bajarilishiga imkon yaratadi.

Masalan:

```
y:=1; do
v:=(2*x/y-3*y)/2; y:=y+2*v
while( abs(v)<eps);
```

4.7. Continue va break operatorlari

continue operatori sikl tanasining qolgan qismini o'tkazib yuborish uchun ishlatiladi, ya'ni u takrorlanish tanasi bajarilishini to'xtatib, keyingi qadamga o'tishni ta'minlaydi. **While** va **do ... while** operatorlarida u boshqaruvni sikl shartini qayta tekshirish uchun uzatadi, ya'ni **while** keyin qavs ichida yozilgan ifoda hisoblanadi va tahlil qilinadi, so'ngra agar u rost bo'lsa siklni ishlashi davom etadi.

for operatorida qiymatni oshirish qismi bajariladi, so'ngra shart tekshiriladi, agar u rost bo'lsa sikl bajariladi.

Nazorat uchun savollar

1. Tarmoqlanuvchi jarayonni tushuntiring.
2. Tarmoqlanuvchi jarayonlarni dasturlash uchun qanday operatorlar ishlatiladi?
3. Shartli o'tish operatori qanday tuzilmalarga ega?
4. To'liq shartli o'tish operatorini bajarilishini tushuntiring.
5. Murakkab shartli o'tish operatorlari qanday bo'ladi?
6. Shartsiz va shartli o'tish operatorlarini vazifasini tushuntiring.
7. Tanlash operatorining vazifasi nimadan iborat va uning umumiyligi ko'rinishi?
8. Tanlash operatorining shartli operatoridan farqi qanday?
9. ? shart operatorini bajarilishini tushintiring.
10. Nima uchun gotooperatori ko'p ishlatilmaydi?
11. Takrorlanuvchi jarayonni tushuntiring.
12. Takrorlanuvchi jarayonlarni dasturlash qanday amalga oshiriladi?

13. Takrorlanuvchi jarayonlar uchun shartli o'tish operatorlari orqali dastur qanday tuziladi?
14. Qanday takrorlash operatorini bilasiz?
15. while, do-while operatorlari qanday ishlaydi?
16. while va do .. while operatorlarini qanday farqlari bor?
17. For operatoridan foydalanish tartibini tushuntiring.
18. Boshqaruv operatorlari qayerda ishlatiladi?
19. Qaysi sikl operatorlarining imkoniyatlari keng?
20. Dasturlash jarayonini tushuntiring.
21. Sikl operatorlarining farqi nimada?
22. for siklida bir nechta schyotchik ishlatish mumkinmi?
23. Tanasida biror amal yozilmagan for operatori yordamida sikl tashkil etish mumkinmi?
24. for sikli ichida while siklini tashkil etish mumkinmi?
25. Hech qachon tugallanmaydigan sikl tashkil etish mumkinmi?

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. a,b,c sonlarini o'sish tartibida joylashtirish dasturini tuzing.
2. a,b,c kesmalar uzunliklari bilan berilgan. Ular orqali uchburchak yasash mumkin yoki mumkin emasligini aniqlash dasturini tuzing.
3. Yuzasi S1 ga teng bo'lgan doira, yuzasi S2 ga teng bo'lgan kvadratga joylashishini aniqlsh dasturini tuzing .
4. Koordinatalari bilan berilgan a(x,y) nuqtani koordinatalar tekisligida joylashish o'rnnini aniqlash dasturini tuzing.
5. Berilgan ikkita a va b sonlarining kichigini ularning yig'indisi, kattasini esa ularning ko'paytmasi bilan almashtirish dasturini tuzing.
6. a,b,c,d sonlarini kamayish tartibida joylashtirish dasturini tuzing.
7. a(x,y) nuqtani uchlari koordinatalari a (x1,y1) va b (x2,y2) ga teng bo'lgan kesmaga tegishli bo'lishligini aniqlash dasturini tuzing.
8. A(x,y) nuqtani radiusi R ga, markazi O(0,0) nuqtada joylashgan aylanaga tegishli bo'lishligini aniqlash dasturini tuzing.
9. 1 dan n gacha bo'lgan natural sonlarlarning o'rta arifmetigi va o'rta geometrigini hisoblash dasturini tuzung.
10. Barcha juft ikki xonali sonlarni hosil qilish dasturini tuzung.
11. Barcha 4 ga karrali bo'lgan uch xonali sonlar yig'indisini hisoblash dasturini tuzung.
12. $y = 5x^2 - 2x + 1$ funksiyani $[-5; 5]$ oraliqda $h = 2$ qadam bilan qiymatlarini hisoblash dasturini tuzing.
13. $[a,b]$ oraliqdagi barcha tub sonlarini hosil qilish dasturini tuzing.

14. Berilgan N sonining raqamlari yig'indisi va ko'paytmasini hisoblash dasturini tuzing.
15. Berilgan N sonini tub ko'paytuvchilarga ajratish dasturini tuzing.
16. Barcha toq ikki xonali sonlarni hosil qilish dasturini tuzung.
17. Barcha 3 va 7 ga karrali bo'lgan uch xonali sonlar yig'indisini hisoblash dasturini tuzung.
18. Oylarning tartib raqamiga mos ravishda bahor, yoz, kuz va qish so'zlarini hosil qilish dasturini tuzing
19. Oylarning tartib raqamiga mos ravishda kvartallarni hosil qilish dasturini tuzing.
20. Talabalarning reyting natijalari asosida a'lo, yaxshi, qoniqarli va yomon so'zlarini hosil qilish dasturini tuzing.
21. $S = \sum_{n=1}^{10} 2^n + \prod_{k=1}^5 3^k + \sum_{m=1}^{10} 4^m$ ni hisoblash algoritmi va dasturini tuzing
22. $S = \prod_{a=1}^{10} \prod_{i=2}^4 \frac{k^3}{k+a}$ ni hisoblash dasturini tuzing.
23. $S = \sum_{n=1}^3 \prod_{k=1}^5 \sum_{j=1}^{10} (k^2 + j^2 + n)$ ni hisoblash dasturini tuzing.
24. $S = \prod_{k=1}^3 (a \prod_{n=1}^4 kn^2 + b \sum_{i=1}^5 ki^3)$ ni hisoblash dasturini tuzing.
25. EKUK(a,b,c) ni topish dasturini tuzing.

5§. C++ tilida massiv elementlari bilan ishlash

5.1. Bir o'lchovli massiv elementlari bilan ishlash

C++ tilida massiv elementlarining indekslari 0 dan boshlanadi va uning eng katta qiymati massiv e'lonidagi uzunlikdan bitta kam bo'ladi
Bir o'lchovli massivlar quyidagicha tavsiflanadi:

tur nom [<uzunlik>];

bu yerda **tur**-massiv elementlarining turi bo'lib, u **int**, **float**, **char** kabi ma'lumotlar turidan iborat bo'lishi mumkin; **nom** – massiv nomi bo'lib foydalanuvchi tomonida ixtiyoriy aniqlanadi va identifikatorlar qoidasi bo'yicha yoziladi; **uzunlik** – butun sondan iborat bo'lib, massivni tashkil etgan elementlar soni, yoki elementlar joyshadigan yachaykalar sonini aniqlaydi.

Masalan: 1) **float A[10];**

2) **n=10; float A[n];**

3) **int a[10] = {9,8,-8,-6,-5,5,4,3,12,14};**

Massiv elementlarini kiritish

Massiv elementlarini quyidagi ko'rinishlarda berish mumkin:

1) Massiv elementlarini tavsiflash vaqtida:

- a) **int a[10] = {9,8,-8,-6,-5,5,4,3,12,14}**
- b) **int n=20; a[n] = {9,8,-8,-6,-5,5,4,3,12,14}**
- c) **char T[11]={‘M’,’a’,’T’,’e’,’M’,’a’,’T’,’и’,’к’,’а’};**
- d) **char T[11]=“математика”;**

Bunda agar massiv elementlari soni ko'rsatilgan chegaradan kam bo'lsa, uning qolgan elementlari 0 qiymatni qabul qiladi. Agar massiv elementlari soni ko'rsatilgan chegaradan ko'p bo'lsa, u kompilyatorga uchun tushunarsiz bo'ladi.

2) Massiv elementlarini klaviaturadan kiritish. Buning uchun sikl poeratorlaridan foydalilanadi. Masalan,

```
for (i=0; i<=9; i++)
    cin>>a[i];
```

Bu yerda **a[i]** massivning **a[0]** dan **a[9]** gacha elementlariga qiymat beriladi.

```
for (i=1; i<=10; i++)
    cin>>a[i];
```

Bu holda **a[i]** massivning **a[1]** dan **a[10]** gacha elementlariga qiymat beriladi. **a[0]** element 0 qiymatga ega bo'ladi

3) Ayrim hollarda massiv elementlarini tasodifiy sonlar datchgi orqali ham berish mumkin:

```
const n=5; int a[n]; randomize();
for (int i=0; i<n; i++)
    a[i]=random(100);
```

Massiv elementlarini chiqarish

Uncha katta bo'limgan massivlar elementlarini quyidagicha chop etish mumkin:

```
cout<< “\n Массив: \n “;
    for (int i=0; i<n; i++)
        cout<<A[i]<<" ";
        cout<<endl;
```

Katta hajmdagi massivlar elementlarini quyidagicha chop etish mumkin:

```
int K=10;
for (int i=0; i< n; i++)
{   cout<<A[i]<<" ";
    if ((i+1) %K == 0) cout<<endl;
}
```

5.2. Ikki o'lchovli massiv elementlari bilan ishlash

Ikki o'lchovli massivlar matematikada matrisa yoki jadval tushunchasiga mos keladi. Jadvallarning inisializasiya qilish qoidasi, ikki o'lchovli massivning elementlari massivlardan iborat bo'lgan bir o'lchovli massiv ta'rifiga asoslangandir. Aytaylik $a(n,m)$ o'lchovli matrisa berilgan:

$$A = \begin{vmatrix} a_{00} & a_{01} & \dots & a_{0n} \\ a_{10} & a_{11} & \dots & a_{1n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{m0} & a_{m1} & \dots & a_{mn} \end{vmatrix}$$

Matrisa elementlarini belgilash uchun ikki indeksli o'zgaruvchi ishlataladi, $a[n][m]$, bu yerda n-satrlar soni, m-ustunlar soni.

Matrisa quyidagicha e'lon qilingan bo'lishi mumkin:

const n=5, m=5; int A[n][m],

bu yerda n - satrlar soni(birinchi, chap o'lchov), m – ustunlar soni yoki satrdagi elementlar soni (ikkinci o'ng o'lchov). Matrisa tezkor xotirada satr bo'yicha joylashadi va uzliksiz joyni egallaydi, hamda uning hajmi $n*m*sizeof(int)$ ga teng bo'ladi, bu yerda int – matrisa elementlarining turi.

Matrisani tavsiflashning u yoki bu usulu konkret masalaning turiga qarab belgilanishi ham mumkin. Matrisa satr va ustunlarni nomerlash 0 dan boshlanadi.

Matrisani inisialeziyalash uni tavsiflash vaqtida amalga oshirilishi mumkin, masalan:

$$a = \begin{vmatrix} 1 & -2 & 3 \\ 10 & 20 & 33 \\ -11 & 22 & 36 \end{vmatrix}$$

int A[3][3]= {{1, -2, 3}, { 10, 20, 33}, {-11, 22, 36}};

Agar satrda talab qilinganidan kam sondagi element berilgan bo'lsa, u holda qolganlari 0 bilan inisialaziya qilinadi:

int A[5][3]= {{1, -2, 3, -4, 5}, { 10, 20, 33, -40}, {-11, 22, 300, 400, 500}};

Bu misolda 2-satrning oxiri elementi 0 ga teng bo'ladi.

Misol uchun ikki qator va uch ustundan iborat bo'lgan haqiqiy turga tegishli d massiv boshlang'ich qiymatlari quyidagicha ko'rsatilishi mumkin:

```
float a[2][3]={ (1,-2.5,10),(-5.3,2,14) };
```

Bu yozuv quyidagi qiymat berish operatorlariga mosdir:
a[0][0]=1;a[0][1]=-2.5;a[0][2]=10;a[1][0]=-5.3;a[1][1]=2;a[1][2]=14;

Bu qiymatlarni bitta ro'yxat bilan hosil qilish mumkin:

```
float a[2][3]={ 1,-2.5,10,-5.3,2,14 };
```

Inisializasiya yordamida boshlang'ich qiymatlar aniqlanganda massivning hamma elementlariga qiymat berish shart emas. Misol uchun: **int x[3][3]={ (1,-2,3),(1,2),(-4) }.** Bu yozuv quyidagi qiymat berish operatorlariga mosdir: **x[0][0]=1;x[0][1]=-2;x[0][2]=3;x[1][0]=-1;x[1][1]=2;x[2][0]=-4;**

Inisializasiya yordamida boshlang'ich qiymatlar aniqlanganda massivning birinchi indeksi chegarasi ko'rsatilishi shart emas, lekin qolgan indekslar chegaralari ko'rsatilishi shart. Misol uchun:

```
Double x[] [2]={ (1.1,1.5),(-1.6,2.5),(3,-4) }
```

Bu misolda avtomatik ravishda qatorlar soni uchga teng deb olinadi.

Ikki o'lchovli massiv elementlarini kiritish

Oddiy ko'rinishda ikki o'lchovli massiv elementlarini kiritish quyidagicha bajariladi:

```
for ( i=0; i<n; i++ )
```

```
    for ( j=0; j<m; j++ )  
        cin>>A[i][j];
```

Matrisa elementlarini tasodifiy sonlar orqali aniqlash

Matrisa elementlarini kiritish uchun ketadigan vaqtini tejash maqsadida ba'zi masalalarni yechish uchun massiv elementlarini tasodifiy sonlar generatori orqali aniqlash mumkin:

```
for ( i=0; i<n; i++ )
```

```
    for ( j=0; j<m; j++ )
```

```
        A[i][j]=rand();
```

Agar masalaga qo'yilgan shart bo'yicha, matrisa elementlari [a,b) oraliqqa tegishli bo'lishi kerak bo'lsa, bu yerda $a > b$, u holda sikl operatorida $A[i][j] = \text{random}(b-a)+a$ yozish kerak. Bu usuldan matrisa elementlari uchun cheklov qo'yilmagan paytda foydalanish mumkin

Massiv elementlariga son qiymat berishda kompyuter xotirasidagi tasodifiy butun sonlardan foydalanish xam mumkin. Buning uchun standart kutubxonaning **rand()** funksiyasini ishga tushirish kerak. **rand**

() funksiyasi yerdamida **0 ^ 32767** oraliqdagi ixtiyoriy sonlarni olish mumkin. Bu qiymatlar umuman tasodifiydir. (**psevdo** - tasodifiy degani). Agar dastur qayta-qayta ishlatsa, ayt补齐 tasodifiy qiymatlar takrorlanaveradi. Ularni yangi tasodifiy qiymatlar qilish uchun **srand** () funksiyasini dasturda bir marta e'lon qilish kerak. Dastur ishlashi jarayonida ixtiyojga qarab **rand** () funksiyasi chaqirilaveradi. Tasodifiy qiymatlar bilan ishslash uchun <stdlib.h> fayilni e'lon qilish zarur.

Ikki o'lchovli massiv elementlarini chiqarish

Oddiy ko'rinishda ikki o'lchovli massiv elementlarini kiritish quyidagicha bajariladi:**for (i=0; i<n; i++)**

for (j=0; j<m; j++)

cout<<a[i][j];

Nazorat uchun savollar

1. Massiv deb nimaga aytildi?
2. C++ tilida qanday turdag'i massivlar ishlatiladi?
3. C++ tilida massivlarni qanday tavsivlanadi?
4. Bir o'lchovli massiv elementlarini kiritish va chiqarish usullari qanday?.
5. Massiv elementlariga son qiymat berishda tasodifiy qiymatlardan foydalanish qanday bajariladi?
6. Massiv elementlarini natija sifatida chiqarish usullari qanday?
7. Bir o'lchovli massiv elementlari uchun qanday o'zgaruvchilar ishlatiladi?
8. Ikki o'lchovli massivlarni ta'riflang.
9. Ikki o'lchovli massiv elementlari qanday tavsiflanadi?
10. Ikki o'lchovli massiv elementlari qanday kiritiladi?
11. Ikki o'lchovli massiv elementlari qanday chiqariladi?
12. Ikki o'lchovli massiv elementlari uchun qanday o'zgaruvchilar ishlatiladi?
13. Ikki o'lchovli massiv elementlari qanday anqilanadi?

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

1. A va B ikkita vektoring elementlari butun sonlarda iborat. A vektoring toq elementlardan tashkil topgan, lekin B vektoring elementi bo'limgan C vektorni hosil qiling.
2. Qo'shimcha, massivdan foydalanmasdan turib, massiv elementlarini teskari tartibda joylashtiring.
3. X(N) massivning eng kichik va eng katta elementlarini

- ro' yxatdan chiqarib, massivning o'rta arifmetigini hisoblang.
4. B(N) massiv elementlarini, B massiv elementlari yig'indisiga bo'lib, yangi elementlardan tashkil topgan B massivni hosil qiling.
 5. X(M) vektoring eng katta elementigacha bo'lган barcha elementlarini nol bilan almashtiring.
 6. R(K) massivning musbat elementlari orasidan eng kichigini va manfiy elementlari orasidan eng kattasini toping.
 7. Y(N) vektoring eng kichik elementidan keyingi barcha elementlarini nol bilan almashtiring.
 8. X butun son va A(N) butun tipdagi massiv berilgan. Massiv elementlarini shunday o'zgartiring, birinchi X sondan kichiklar, keyin X ga eng bo'lganlari va undan so'ng X dan kattalari joylashsin, faqat ularning massivda turgan tartibi buzilmasin.
 9. Tekislikda R va R1 ichki va tashqi radiusga ega bo'lган doiraviy halqaning markazidan s[1],s[2],...,s[10] uzoqlikda nuqtalar joylashgan. Xalqa ichida joylashgan nuqtalar sonini aniqlang.
 10. X vektor berilgan. Vektor elementlarining tartibini buzmasdan, yangi massiv kiritmasdan, faqat nolga teng bo'lган elementlarni massivning oxiriga joylashtiring.
 11. Berilgan N musbat butun son uchun A(N,M) matritsa hosil qiling, uning diagonal elementlari birdan, qolganlari noldan iborat bo'lsin.
 12. Berilgan N musbat butun son uchun A(N,M) matritsa hosil qiling, uning diagonal elementlari satrlarining tartib raqamiga, qolgan elementlari noldan iborat bo'lsin.
 13. U(K) massivi berilgan. [a,b], intervaliga tegishli bo'lган elementlar sonini aniqlang va ekranga chop eting.
 14. R(N) massivi berilgan .D massivga uning maksimal va minimal elementidan tashqari bo'lган elementlarni yozing
 15. X(N) massivining o'rta arifmetik va o'rta geometrik qiyematlarini aniqlang. X massivining o'rta arifmetik qiymatidan katta va o'rta geometrik qiymatdan kichik bo'lган elementlar sonini aniqlang va chop eting.
 16. U(K) massivining musbat, toq indeksli elementlarining yig'indisini toping.
 17. Z(K) massivining manfiy, juft indeksli elementlarining ko'paytmasini toping.
 18. H(N) massivining o'rta arifmetik qiymatidan kichik bo'lган elementlarining ko'paytmasini toping.

19. $H(N)$ massivining eng katta va eng kichik elementlarini toping va massivda ulardan qaysi biri avval joylashgani ni aniqlang.
20. Berilgan ikkita $X=(X_1, X_2, \dots, X_n)$ va $Y=(Y_1, Y_2, \dots, Y_n)$ vektorning skalyar ko'paytmasini toping.
21. $X(N)$ massiv berilgan. X massiv elementlarini kamayib borish tartibida joylang.
22. $X(N)$ massivining musbat elementlaridan Y massivini tashkil eting, so'ngra Y massiv elementlarini o'sib borish tartibida yozing
23. $A(N,N)$ matritsaning p va q tartib raqamli satrlari o'rnini almashritiring.
24. $A(N,M)$ matritsaning oxirgi satridan oldinda joylashgan satrini o'chirib yangi matritsa hosil qiling.
25. $X(K,L)$ matritsaning eng katta va eng kichik elementlari o'rnini almashtiring.
26. $A(N,N)$ matritsa elementlarini quyidagi tartibda tanlang: diagonal elementlari birdan, diagonaldan yuqoridagi elementlar noldan, diagonaldan pastdagi elementlar mos indekslarning yig'indisiga teng bo'lsin.
27. $B(3,5)$ matritsa berilgan. B matritsaning eng kichik elementi joylashgan satr va ustunni yo'qotish yo'l bilan V matritsani hosil qiling.
28. $A(M,N)$ matritsa berilgan. Matritsani $(M+1)$ satr va $(N+1)$ ustun bilan to'ldiring, bu satr va ustunning elementlari dastlabki matritsaning mos satr va ustunlarining yig'indisidan tashkil topsin.
29. $X(N,M)$ matritsani transponerlarni.
30. $A(3,4)$ matritsaning satr elementlari ko'paytmasidan B massivni hosil qiling.

6§.C++ tilida funksiyalardan foydalanish

6.1. Funksiyalarini tavsiflash

Funksiya ta'rifida funksiya nomi, tipi va formal parametrlar ro'yxati ko'rsatiladi. Formal parametrlar nomlaridan tashqari tiplari ham ko'rsatilishi shart. Formal parametrlar ro'yxati funksiya signaturasi deb ham ataladi. Funksiya ta'rifi umumiy ko'rinishi quyidagichadir:

Funksiya turi funksiya nomi(formal_parametrlar_ta'rifi)

Formal parametrlarga ta'rif berilganda ularning boshlang'ich qiymatlari ham ko'rsatilishi mumkin.

Funksiya qaytaruvchi ifoda qiymati funksiya tanasida **return** ; operatori orqali ko'rsatiladi.

Misol: Float min(float, float b) { if (a<b) return a; return b; }

Funksiyaga murojaat qilish quyidagicha amalga oshiriladi:

Funksiya nomi (haqiqiy parametrlar ro'yxati)

Haqiqiy parametr ifoda ham bo'lishi mumkin. Haqiqiy parametrlar qiymati hisoblanib mos formal parametrlar o'rnida ishlataladi.

Misol uchun yuqoridagi funksiyaga quyidagicha murojaat qilish mumkin:

```
Int x=5,y=6,z; z=min(x,y) yeki int z=Min(5,6) yeki int x=5; int  
z=min(x,6)
```

Masalan: d:=sin(0.7); f:=fak(45);

S1:=uchburchak(2,6,7);

6.2. Funksiyalarga murojaat qilish.

Funksiyaga murojaat standart funksiyalarga o'xshash amalga oshiriladi (*sin, cos, tan va hakoza*) va ifodadagi operandalarni turli xilligi bilan procedurani chaqirishdan farq qiladi. Qayerda ifodani yozish kerak bo'lsa, o'sha joyda funksiya nomi yoziladi, undan keyin qavs ichida faktik parametrlar beriladi. Agar parametrsiz funksiya chaqirilsa, u holda faqatgina funksianing nomi ko'rsatiladi.

Funksiyaga murojaat qilinganda biror haqiqiy parametr ko'rsatilmasa, uning o'rniga mos formal parametr ta'rifida ko'rsatilgan boshlangich qiymat ishlataladi.

Misol uchun: **float min(float a=0.0, float b) { if (a<b) return a; return b; }**

Bu funksiyaga yuqorida ko'rsatilgan murojaat usullaridan tashqari quyidagicha murojaat qilish mumkin:**Int y=6,z; z=min(,y) yeki int z=Min(,6);**

Agar funksiya hech qanday qiymat qaytarmasa uning tipi **void** deb ko'rsatiladi.

Misol uchun: **Void print; { Cout<<("\n Salom!"); };**

6.3. Rekursiya.

Rekusiv funksiyalar. Rekursiv funksiya deb o'ziga o'zi murojjat qiluvchi funksiyaga aytildi . Misol uchun faktorialni hisoblash funksiyasini keltiramiz:

```
Long fact(int k) {if (k<0) return 0; if (k==0) return 1; return  
k*fact(k-1);}
```

Manfiy argument uchun funksiya 0 qiymat qaytaradi. Parametr 0 ga teng bo'lsa funksiya 1 qiymat qaytaradi. Aks holda parametr qiymat birga kamaytirilgan holda funksianing o'zi chaqiriladi va uzatilgan par-

ametrga ko'paytiriladi. Funksiyaning o'z-o'zini chaqirish formal parametr qiymati 0 ga teng bo'lganda to'xtatiladi.

Keyingi misolimizda ixtiyoriy haqiqiy sonning butun darajasini hisoblash rekursiv funksiyasini keltiramiz. **Double expo(double a, int n)**

```
{ if (n==0) return 1; if (a==0.0) return 0; if (n>0) return a*expo(a,n-1);  
if(n<0) return expo(a,n+1)/a; }
```

Nazorat uchun savollar

1. Funksiya deb qanday strukturaga aytildi?
2. Funksiya nimalardan tashkil topadi?
3. Funksiyadan qanday chiqiladi?
4. Funksiyaning soxta parametrleri qanday aniqlanadi?
5. Funksiyaga murojaat qilish, uning haqiqiy parametrlarini aniqlash.
6. Funksiyalarni e'lon qilish qoidalari.
7. Funksiya ichida parametrlar qiymatlarini o'zgartirish.
8. Funksiya - proseduralar hosil qilish va ularga murojaat qilish.
9. Rekursiya holati. Rekursiyani to'xtatish.

Mustaqil topshiriqlar

Functiondan foydalanib hisoblash dasturini tuzing

$$1. U = f(a,b) + f(a^2, b^2) + f(a^2 - 1, b), \text{ buyerda}$$

$$f(u,t) = \begin{cases} u^2 + t^2, & \text{agar } u > 0, t > 0 \\ u + t^2, & \text{agar } u \leq 0, t \leq 0 \\ u^2 + t, & \text{qolgan hollarda} \end{cases}$$

$$2. U = \frac{EKUB(m+n, n, k+m)}{EKUB(m, n+k, m+n)} + EKUB(m+n, n+k, m+k)$$

$$3. S = f(a,b) + f(a^2, b^2) + f(a^2 - 1, b), \text{ buyerda}$$

$$f(u,t) = \begin{cases} u^2 + t^2, & \text{agar } u > 0, t > 0 \\ u + t^2, & \text{agar } u \leq 0, t \leq 0 \\ u^2 + t, & \text{qolgan xollarda} \end{cases}$$

4. N ta uchburchak o'z tomonlari bilan berilgan. Bu uchburchaklar yuzlarini hisoblang va ulardan kattasini aniqlang.

$$5. Z = f(\sqrt{x}, y) + f(a, b) + f(\sqrt{x} + 1, y) + f(x + y, x), \text{ bu yerda}$$

$$f(u,t) = \begin{cases} u + 2t, & \text{agar } u > 0 \\ u + t, & \text{agar } u \leq -1 \\ u^2 - 2t + 1, & \text{qolgan xollarda} \end{cases}$$

6. n ta uchburchakning uchlari koordinatalari bilan berilgan. Bu uchburchaklarning yuzlarini hisoblang va ulardan kichigini toping.

$$7. P = \frac{EKUB(n, m, n+n) + EKUB(n+m, n+k, m+k)}{EKUB(m^2, n^2, m+n)}, \quad m, n, k \in N$$

8. n ta uchburchak o‘z tomonlari bilan berilgan. Bu uchburchaklarga ichki chizilgan aylana radiuslarini hisoblang va ularning kattasini aniqlang.

$$9. B = \begin{cases} T(3x+z, y+x) + T(x^2 - y, z^2) & \text{bu yerda, } T(a,b) = \begin{cases} \sqrt{a^2 + b^2}, & \text{agar } a > b \\ \sqrt[3]{2a^2 - b}, & \text{agar } a \leq b \end{cases} \\ T(x - y^2, z) + T(2x + y, z + y) \end{cases}$$

10. n ta muntazam uchburchak tomonlari bilan berilgan, bu uchburchakka tashqi chizilgan aylana radiuslarini hisoblang va ularni kamayib borish tartibida joylashtiring.

Testlar

1. Ci dasturlash tilida funksiyayordamida faollashtiriladi.

A) funksiyaga murojaat B) funksiyani tafsivlash C) funksiyani aniqlash

D) funksiyani yopish E) funksiyani o‘zgarishi

2. Funksiya ichida ma’lum va unda aniqlangan o‘zgaruvchi – bu

A) lokal o‘zgaruvchi B) global o‘zgaruvchi C) haqiqiy turdag'i o‘zgaruvchi

D) bazaviy o‘zgaruvchi E) rekursiv o‘zgaruvchi

3. Ixtiyoriy blok yoki funksiyadan tashqarida e’lon qilingan o‘zgaruvchi-bu...

A) lokal o‘zgaruvchi B) global o‘zgaruvchi C) haqiqiy turdag'i o‘zgaruvchi

D) bazaviy o‘zgaruvchi E) rekursiv o‘zgaruvchi

4. Qaysi funksiya tasodifiy sonlarni hosil qilish uchun ishlataladi?

A) rand B) srand C) return D) atan2 E) floor

5. O’z-o‘ziga murojot qiliuvchi funksiya-bu..

A) rekursiv funksiya B) bazaviy funksiya C) bosh funksiya
D) prototip funksiya E) global funksiya

III-bob. Matematik masalalar uchun dasturlash tillarida dastur tuzish.


3.1. Matematik masalalar uchun chiziqli dastur tuzish

Chiziqli dastur tuzish masalani yechish uchun kerak bo'ladigan boshlang'ich ma'lumotlarni tashkil qiluvchi o'zgaruvchilar nomi, ularning turi va o'zgarish ko'lmini aniqlashdan boshlanadi. Keyin oraliq va yakuniy natijalar o'zgaruvchilarining nomlari, turlari va mumkin bo'lsa o'zgarish ko'lmini aniqlash kerak.

Chiziqli dastur deganda masalaning algoritmiga mos keluvchi buyruqlar ketma-ketligi dasturda uchrash tartibiga mos ravishda bajariladigan dasturlar tushuniladi. Dasturning bitta satrida bir nechta buyruqlar kelishi mumkin. Bunda ular bir-biridan «;» belgisi bilan ajratiladi. C++ tilidagi dastur qo'yilgan masalaning yechish algoritmidagi buyruqlarni kompilyatorga «tushunarli» bo'lgan ko'rinishda yuqoridagi umumiy sxemaga muvofiq ifodalash natijasida hosil bo'ladi.

1-masala. A va B ikkita haqiqy sonlar berilgan. Ularning yig'indisi, ayirmasi va ko'paytmasini hisoblang.

Yechish. A va B sonlar yig'indisini S, ayirmasini D, ko'paytmasini K bilan belgilasak, $S=a+b$, $D=a-b$, $K=a*b$ formulalar o'rini bo'ladi.

Algoritm	C++ da dasturi
	#include<iostream.h> int main() { float a,b,s,p,k; cout<<"a=";cin>>a; cout<<"b=";cin>>b; s=a+b; k=a-b; p=a*b; cout <<"s=" <<s; cout<<"p=" <<p; cout<<"k=" <<k; system("PAUSE"); return 0; }

2-masala. Ikkita musbat son berilgan, bu sonlarning o'rta arifmetik va o'rta geometrik qiymatlarini aniqlang.

Algoritm	C++ da dasturi:
<pre> graph TD A([boslash]) --> B[/a,b/] B --> C["s=(a+b)/2"] C --> D["p=sqrt(a*b)"] D --> E[/s,p/] E --> F([tamom]) </pre>	<pre> #include <math.h> #include<iostream.h> Int main() { float a,b,s,p; cout<<"a=">>a; cout<<"b=">>b; s=(a+b)/2; p=sqrt(a*b); cout <<"s=" <<s; cout<<"p=" <<p; system("PAUSE"); return 0; } </pre>

3-masala. Tomonlari A va B ga teng to'g'ri to'rtburchakning yuzi va peremetri hisoblansin.

Algoritm	C++ da dasturi
<pre> graph TD A([boslash]) --> B[/a,b/] B --> C["s=a+b"] C --> D["p=2*(a+b);"] D --> E[/s,p/] E --> F([tamom]) </pre>	<pre> #include<iostream.h> int main() { float a,b,s,p; cout<<"a=">>a; cout<<"b=">>b; s=a+b; p=2*(a+b); cout <<"s=" <<s; cout<<"p=" <<p; system("PAUSE"); return 0; } </pre>

4-masala. Berilgan radius bo'yicha aylana uzunligi va u bilan chegaralangan doira yuzini toping.

Algoritm	C++ da dasturi
<pre> graph TD A([boshlas]) --> B[/R/] B --> C[L := 2 * Pi * R] C --> D[S := Pi * R * R] D --> E[/S,L/] E --> F([tamom]) </pre>	<pre> #include <iostream> #include <math.h> using namespace std; int main() { float r, Pi, s, l; cout << "Aylana radiusini kiriting = "; cin >> r; l=2*Pi*r; s=Pi*r*r; cout << "aylana uzunligi = " << l<<endl; cout << "doira yuzasi = " << s; return 0; } </pre>

5-masala. a,b,c tomonlari bilan berilgan uchburchakni yuzasini hisoblash algoritmi va dasturini tuzing.

Bu masalani yechish uchun Geron formulasidan foydalanamiz.
Uning dasturi quyidagicha bo'ladi:

Algoritm	C++ da dasturi
<pre> graph TD A([boshlas]) --> B[/a,b,c/] B --> C[p := (a+b+c)/2] C --> D[s := sqrt(p*(p-a)*(p-b)*(p-c))] D --> E[/p,S/] E --> F([tamom]) </pre>	<pre> #include <iostream> #include <math.h> using namespace std; int main() { float a,b,c,p,s; cout << "Uchburchak tomonlarini kiriting (a+b)>c,(c+a)>b,(c+b)>a bo'lsin = "; cin >> a>>b>>c; p=(a+b+c)/2; s=sqrt(p*(p-a)*(p-b)*(p-c)); cout << "Uchburchakning perimetri = " << p<<endl; cout << "Ucburchakning yuzasi = " << s<<endl; system("pause"); return 0; } </pre>

6-masala. Arifmetik progressiyaning bиринчи hadi va ayirmasi berilgan bo'lsa uning n-hadi va n ta hadlari yig'indisini hisoblash algoritmi va dasturini tuzing.

Bu yerda arifmetik progressiyaning bиринчи hadi a₁, ayirmasi d va hadlar soni n berilgan bo'lsin.

U holda uni yechish algoritmi va dasturi quyidagicha bo'ladi:

Algoritm	C++ da dasturi
<pre> graph TD A([boshlas]) --> B[/a,d,n/] B --> C[an := a1 + (n - 1) * d] C --> D[Sn := (a1 + an) / 2 * n] D --> E[/an,Sn/] E --> F([tamom]) </pre>	<pre> #include <iostream> #include <math.h> using namespace std; int main() { float a1,d,xn,sn; int n; cout<<"arifmetik progressi- yaning 1-hadini kiritng= "; cin>>a1; cout<<"arifmetik progressiyaning ortirmasini kiritng= "; cin>>d; cout<<"arifmetik progressiyaning hadlar sonini kiritng= "; cin>>n; xn= a1+(n-1)*d; sn=(a1+xn)/2*n; cout<<"arifmetik progressiyaning "<<n<<" hadi= "<<xn; cout<<"\narifmetik progressiyaning "<<n<<" ta hadi yig'indisi= "<<sn; system("pause"); return 0; } </pre>

7-masala. Koordinatalari X₁,Y₁ va X₂, Y₂ ga teng bo'lган nuqtalari orasidagi masofani hisoblang.


Algoritm	C++ da dasturi
<pre> graph TD A([boshlash]) --> B[/x1,x2,y1,y2/] B --> C[d:=sqrt(sqr(x2-x1)+sqr(y2-y1))] C --> D[/an,Sn/] D --> E([tamom]) </pre>	<pre> #include <math.h> #include <iostream> int main() { float x1,x2,y1,y2,d; cout<<"x1="; cin>>x1; cout<<"x2="; cin>>x2; cout<<"y1="; cin>>y1; cout<<"y2="; cin>>y2; d=sqrt(sqr(x2-x1)+sqr(y2-y1)); cout <<"d=" <<d; system("PAUSE"); return 0; } </pre>

8-masala. Birinchi hadi B, maxraji Q va hadlari soni N ga teng geometrik progressiyaning hadlarining yig'indisini hisoblang.

Algoritm	C++ da dasturi
<pre> graph TD A([boshlash]) --> B[/b,q,n/] B --> C[s:=(b*(1-exp(n*log(q))))/(1-q);] C --> D[/S/] D --> E([tamom]) </pre>	<pre> #include <math.h> #include <iostream> int main() { float B,q,n,S; cout<<"B=";cin>>B; cout<<"q=";cin>>q; cout<<"n=";cin>>n; S=(B*(1-exp(N*log(q))))/(1-q); cout <<"S=" <<S; system("PAUSE"); return 0; } </pre>

3.2. Matematik masalalarga tarmoqlanuvchi algoritmi va dastur tuzish

1-masala. Berilgan x sonini $[2,5]$ oraliqqa tegishli yoki tegishli emasligini aniqlash algoritmi va dasturini tuzing.



Bu dastur uchun kompyuter quydagи natijalarni beradi:

x ning qiymatini kriting 4


x soni [2, 5] oraliqqa tegishli

x ning qiymatini kriting 7

x soni 5 dan katta


*x ning qiyatini kirit 1
x soni 2 dan kichik*

2-masala. Sportchi musobaqada M – o‘rinni egalladi. U qanday medal olganini aniqlansh dasturini tanlash operatori orqali tuzing.



Komputer bu dastur uchun quyidagi natiani beradi:
*sportchi nechanchi urinn oldi? 5 sportchi medal olmagan
 sportchi nechanchi urinn oldi? 1 oltin*
3-masala. O’quvchilarni olgan baholarini ifodalash dasturini tuzing.

algoritmi



C++ tilida dastur

```

#include <iostream>
#include <math.h>
using namespace std;
int main()
{
    int a;
    cout<<" bahoni kiritng ";
    cin>>a;
    switch(a)
    {
        case 1:cout<<"juda yomon"<<endl;break;
        case 2: cout<<"yomon"<<endl; break;
        case 3:cout<<"qoniqarli"<<endl;break;
        case 4: cout<<"yaxshi"<<endl; break;
        case 5:cout<<"a'lo"<<endl;break;
        default: cout<<"bunday baho yo'q";
    } system("pause");
    return 0;
}
  
```


Komputer bu dastur uchun quyidagi natijalarni beradi:

Bahoni kiritng 4 yaxshi


Bahoni kiritning 1 yomon

4-masala. $ax^2 + bx + c = 0$ ($a \neq 0, b \neq 0, c \neq 0$) kvadrat tenglamani

yechish algoritmi va dasturini tuzing.



2-masala. $y=2x+1$ funksiyaning qiymatini x ning $[-15, 5]$ oraliqdagi butun qiymatlarida hisoblash algoritmi va dasturni tuzing.




Shart bo'yicha takrorlash operatorlari yordamida.

1-masala. Shart bo'yicha sikl operatoridan foydalanib quyidagi ifodaning qiymatini eps aniqlik bilan hisoblash algoritmini va dasturini tuzing: $P = \prod_{i=1}^{\infty} \frac{1}{i^2 + 1}$, bu yerda eps – kichik haqiqiy son.

Bunda hisoblash jarayoni ko'paytma qiymati berilgan haqiqiy son eps dan kichik yoki unga teng bo'lguncha davom etadi, yani $eps <= 1/(i*i+1)$ yoki $eps >= 1/(i*i+1)$ shartlari tekshiriladi.

<i>algoritm</i>	<i>Dastur (while yordamida)</i>
<pre> graph TD A[boslash] --> B[EPS] B --> C[P1 := 1; i := 1] C --> D[P := P · (1 / (i² + 1))] D --> E[i := i + 1] E --> F{1 / (i² + 1) >= eps} F -- ha --> C F -- yo'q --> G[P ni chiqarish] G --> H[tamom] </pre>	<pre> # include <iostream.h> using namespace std; int main () { int n,i; float s,eps; s=0; i=1; cout<<"Ixtiyoriy juda kichik son kiritng"; cin>>eps; while (1. / (i * i + 1) > eps) { s=s+1./ (i * i + 1); i=i+1; } cout << "yig'indi =" << s << endl; system("pause"); return 0; } </pre>
	<i>Dastur (do while yordamida)</i> <pre> # include <iostream.h> using namespace std; int main () { int n,i; float s,eps; s=0; i=1; cout<<"Ixtiyoriy juda kichik son kiritning"; cin>>eps; do { s=s+1./ (i * i + 1); i=i+1; } while (1. / (i * i + 1) > eps); cout << "yig'indi =" << s << endl; system("pause"); return 0; } </pre>


2-masala. A va B natural sonlar berilgan bo‘lsin. Ularning eng katta umumiyligi bo‘luvchisini toping. Bu masalani yechish "Yevklid algoritmi" asosida amalga oshiriladi. Bu algoritmga ko‘ra toki A va B sonlari bir-biriga teng bo‘lib qolmaguncha, kattasidan kichigi ayrilaveradi. Har gal ayirma shu sonlardan kattasini ifodalab turgan o‘zgaruvchi nomi bilan belgilab qo‘yiladi. Bu jarayon A = B bo‘lganda to‘xtaydi. Yechim sifatida A yoki B ni olish mumkin.



C++ tilida dastur

Dastur (while yordamida)	Dastur (do while yordamida)
<pre># include <iostream.h> using namespace std; int main() { int a,b; cout<<"Iikkita butun son kiriting"; cin>>a>>b; while (a!=b) {if (a>b)a=a-b; else b=b-a;} cout <<a<<endl; system("pause"); return 0; }</pre>	<pre># include <iostream.h> using namespace std; int main() { int a,b; cout<<"Iikkita butun son kiriting"; cin>>a>>b; do {if (a>b)a=a-b; else b=b-a;} while(a!=b); cout <<a<<endl; system("pause"); return 0; }</pre>

3-masala. $y= \sin(2x-1)$ funksiyani $[a,b]$ oraliqda h qadam bilan qiymatlarini hisoblash algoritmi va dasturini tuzing.



C++ tilida dastur


Dastur (while yordamida)	Dastur (do while yordamida)
<pre># include <iostream.h> # include <math.h> using namespace std; int main() { float a,b,h,y,x; cout<<"oraliq qiymatni kiritng "; cin>>a>>b; cout<<" qadamni kiritng "; cin>>h; x=a; while (x<=b) { y=sin(2*x-1); cout<<x<<y; x=x+h;} system("pause"); return 0; }</pre>	<pre># include <iostream.h> # include <math.h> using namespace std; int main() { float a,b,h,y,x; cout<<" oraliq qiymatni kiritning "; cin>>a>>b; cout<<" qadamni kiritng "; cin>>h; x=a; do { y=sin(2*x-1; cout<<x<<y; x=x+h;} while (x<=b); system("pause"); return 0; }</pre>

Ichma-ich joylashgan sikllar

1-masala. $S = \sum_{k=1}^{15} \sum_{n=1}^{10} (2a^k + x^n)$ ifodaning qiymatini hisoblash dasturini tuzing.

<i>algoritmi</i>	
<pre> graph TD start((bosqlash)) --> init[/a, b, h/] init --> xAssign[x = a] xAssign --> calc[v = sin(2x - 1)] calc --> vOutput[/v/] vOutput --> xUpdate[x = x + h] xUpdate --> decision{x <= b} decision -- ha --> calc decision -- yo'q --> tamom((tamom)) </pre>	
C++ tilida dastur	
<i>Dastur (for yordamida)</i>	<i>Dastur (while yordamida)</i>
<pre> #include <iostream.h> #include <math.h> using namespace std; int main() { int n,k; float a,x, s,s1; cout<<"a va x ga ixtiyoriy son kiritng"; cin>>a>>x; s=0; for (k=1; k<= 15; k=k+1) { s1=0; for (n=1; n<= 15; n=n+1) s=s+ 2*pow(a,k)+pow(x,n); s1=s1+s; } cout << "yig'indi =" <<s1; system("pause"); return 0; } </pre>	<pre> #include <iostream> #include <math.h> using namespace std; int main() { int n,k; float s,p,s1,a,x; cout<<" a va x ga ixtiyoriy qiymat bering"; cin>>a>>x; s=0; k=0; while(k=k+1, k<=15) { n=0;s1=0; while(n=n+1, n<=15) { s1=s1+ 2*pow(a,k)+pow(x,n); s=s+s1; } cout << " yig'indi =" <<s; } system("pause"); return 0; } </pre>

2-masala. Ko'paytirish jadvali elementlarini hosil qilish algoritmi va dasturini tuzing. Buning uchun ichma-ich joylashgan sikl operatorlaridan foydalanamiz.



C++ tilida dasturi

```

#include <iostream>
#include <math.h>
using namespace std;
int main()
{
    int i,j,n;
    float s,p;
    cout<<" Ixtiyoriy butun son kiriting ";
    cin>>n;
    s=0; p=1;
    for(i=1; i<=n; i=i+1)
    {
        for(j=1; j<=n; j=j+1)
            cout<<(i*j)<<'\t';
        cout<<'\n';
    }
    system("pause");
    return 0;
}
  
```

3-masala. $S = \sum_{k=1}^{15} \sum_{n=1}^{10} (i! + j!)$ ifodani hisoblash dasturini tuzing.


C++ tilida dastur

<pre># include <iostream.h> # include <math.h> using namespace std; int main () { int n,k; float a,x, s,s1,f,f1; cout<<"a va x ga ixtiyoriy son kiritng"; cin>>a>>x;</pre>	<pre>s=0;f=1; for (k=1; k<= 15; k=k+1) { s1=0;f=f*k;f1=1; for (n=1; n<= 10; n=n+1) {f1=f1*n; s=s+ f+f1;} s1=s1+s;} cout << "yig'indi =" <<s1; system("pause"); return 0;}</pre>
--	---

3.3. Massiv elementlari bilan ishslash algoritmi va dasturini tuzish Bir o'lchovli massiv elementlari bilan ishslash.

1-masala. $A[1..100]$ butun sonli massivda qiymati 7 ga teng elementlar sonini aniqlash algoritmi va dasturini tuzing.

Dastlab 7 ga teng bo'lgan elementlarni sanash uchun $s := 0$ o'zgaruvchi tanlanadi. So'ngra, massiv elementlarini bittadan kiritiladi. Har bir kiritilgan element 7 soni bilan taqqoslanadi. Agar $a[i]$ element 7 ga teng bo'lsa, s ning qiymati 1 ga oshiriladi. Keyin navbatdagi elementga o'tiladi. Bu jarayon 100 marta takrorlanadi. Qo'yilgan masala uchun algoritm va dastur quyidagicha yoziladi:




C++ tilida dastur

```
#include <iostream.h>
#include <conio.h>
int main()
{int a[100]={9,0,7,7,5,7,4,5,7,3,2,6,7,8,}, n, i;
 float s,p;
 cout<<"massiv elementlari soni-";
 cin>>n; s=0;
 for (i=0;i<=n-1;i++)
 if(a[i]==7) s=s+1;
 cout << "7 ga teng elementlar soni = "<<s;
 getch();
 system("pause");
 return 0;
}
```

2-masala. 10 ta haqiqiy elementli massivdagi eng katta va eng kichik elementlarni topish algoritmi va dasturini kiritng.

Bu masalani yechish uchun avval massivning barcha elementlari aniqlab olinadi. So‘ngra, birinchi elementni izlangan element deb faraz qilinadi va qolgan elementlar uchun qilingan farazni to‘g‘ri, noto‘g‘riliqi tekshiriladi. Agap eng katta (eng kichik) degan elementdan ham kattaroq (kichikroq) element topilib qolsa, izlangan element sifatida u qabul qilinadi va tekshirishni kelgan yeridan ana shu element uchun davom ettiriladi.

Bu masalaning algoritmi va dasturi quyidagicha bo‘ladi :



C++ tilida dastur

```
#include <iostream.h>
#include <conio.h>
int main()
{ int a[10], i; int max,min;float s,p;
for (i=0;i<=9; i=i+1)
cin>>a[i];  max=a[0]; min=a[0];
    for (i=0;i<=9;i++)
    { if (a[i]>max) max=a[i];
if (a[i]<min) min=a[i];
    }
cout << " max="<<max<<"\t"<< "min="<<min;
getch();
return 0;
}
```

Bu dastur uchun avval kompyuterga massiv elementlari kiritiladi.

1 – element 36

2 - element 22

3 - element 27

4 - element 25

5 - element 29

6 - element 21

7 - element 32

8 - element 11

9 - element 24

10 - element 34

Bu ma'lumotlar uchun kompyuter bergan natija qo'yidagicha bo'ladi:

kiritilgan elementlar ichida

eng katta element 36


eng kichik element 11

3-masala. Biror bir massiv kiritilsin va shu massivning minimal va maksimal qiymatlari orasidagi elementlar ekranga chiqarilsin.

Masalan: 2,3,1,3,4,5,6,7,4,3,5, Javob: 1,3,4,5,6,7 || -1,2,3,7,2,1, -3,-4, 2,1 , Javob: 7,2,1,-3,-4

C++ tilida dastur

```
#include<iostream.h>
#include<conio.h>
using namespace std;
int main()
{
    double a[50],max,min; int i,n,b,t;
    cout<<"Massiv o`lchami kiritilsin:\nn="; cin>>n;
    for (i=1;i<=n;i++)
    {
        cout<<"a["<<i<<"]="; cin>>a[i];
    }
    min=a[1]; max=a[1];
    for (i=1;i<=n;i++)
    {
        if(min>a[i])
        {
            min=a[i]; b=i;
        }
        if(max<=a[i])
        {
            t=i; max=a[i];
        }
    }
    if(t<b)
        for(i=t;i<=b;i++)
            cout<<a[i]<<",";
        else
            for(i=b;i<=t;i++)
                cout<<a[i]<<",";
    getch(); }
```




```
Massiv o'chami kiritilsin:  
n=10  
a[1]=4  
a[2]=3  
a[3]=6  
a[4]=2  
a[5]=6  
a[6]=3  
a[7]=1  
a[8]=4  
a[9]=5  
a[10]=3  
6,3,1,
```

4-masala. a[i] massivning elementlarini [1..200] oraliqdagi sonlardan tasodify holda hosil qiling, elementlarni chop eting va ularni eng kattasini toping.

C++ tilida dastur


```
#include <iostream.h>  
#include <conio.h>  
#include <time.h>  
int main()  
{int a[10],b[10],c[10], i;  
    int k,n,max,min;  
for(int i = 0; i < 10; i++)  
    a[i] = 1 + rand() % 200;  
    for (i=0;i<10;i++)  
cout << a[i]<<" ";  
    cout<<"\n"<<"\n";  
    max=a[0];  
    for (i=0;i<10;i++)  
if (a[i]> max) max=a[i];  
    cout << "elementlarning kattasi="<<max;  
    system("pause");  
    return 0;  
}
```



```
42 68 135 101 170 125 79 159 163 65  
elementlarning kattasi=170
```

5-masala. Sinfdagisi N o'quvchining informatika fani bo'yicha imtihondan olgan baholari berilgan bo'lsin. Har bir o'quvchining bahosi o'rtacha o'zlashtirish bahosidan qanchaga farq qilishini aniqlash algoritmi va dasturini tuzing.

Bu masalani yechish uchun har bir o'quvchi olgan baholarni kiritib, umumiylar yig'indisi topiladi. Umumiylar yig'indini o'quvchilar soni N ga bo'lib, o'rtacha o'zlashtirish aniqlanadi. Keyin har bir o'quvchining bahosidan o'rtacha o'zlashtirish bahosini ayirib, oradagi farq topiladi.



6-masala. A[1..N] massiv elementlarini o'sish tartibida joylashtirish algoritmi va dasturini tuzing.

Massivlar haqidagi masalalar ichida eng ko'p uchraydigani bu uning elementlarini o'sish yoki kamayish tartibida tartiblash masalasiadir. Uni yechish usullari ko'p bo'lib, ulardan birortasini boshqasidan ustun

qo‘yib bo‘lmaydi. Har bir usul elementlarning joylashishiga ko‘ra boshqasidan yaxshi bo‘lishi mumkin.

1-usul. Berilgan massiv elementlari ichidan eng kichigini topib, uning o‘rnini 1- element bilan almashtiriladi. Demak, 1-element tartiblandi. Endi 2-element tartiblanadi. Buning uchun qolgan elementlar ichidan eng kichigi topilib, uning o‘rnini 2-element bilan almashtiriladi va hokazo.

Bu jarayon N-1 marta takrorlanganda massiv elementlarini tartiblash tugaydi. Bu usul uchun dastur quyidagicha yoziladi:

program tartiblash ;

const n = 100 ;

var c, min : real ; i, j, k : integer;

a : array[1..n] of real;

begin writeln('massiv elementlarini kiritng');

for i:=1 to n do readln (a[i]);

for i:=1 to n do begin min:= a[i] ; k:= i;

for j := i +1 to n do

*if min>a[j] then begin (*eng kichik element va uning tartib raqami aniqlanmoqda*) min:= a[j]; k:= j; end s:= a[i];*

*(*eng kichik element bilan tartiblanayotgan element o‘rinlari almashtirilib, ekranga chiqrilmoqda.*) a[i]:= a[k]; a[k]:= s ; writeln(a[i]:8:3) end;*

end.

Bu usulni eng kichik elementni chiqarish usuli deyiladi.

Ikki o‘lchovli massiv elementlari bilan ishlash.

1-masala. Haqiqiy sonlardan iborat A(n,n) o‘lchovli massiv berilgan. Uning barcha elementlari yigindisi va ko‘paytmasini hisoblash algoritmi va dasturini tuzing.

Bu masalani yechish uchun avval N soni kiritiladi. Keyin boshlang’ich qiymati 0 ga teng bo‘lgan S va 1 ga teng bo‘lgan P o‘zgaruvchi e’lon qilinadi.

So’ngra ichma-ich joylashgan sikllar yordamida massivning navbatdagi elementi kiritiladi va uning qiymatini S ga qo’shib, P ga ko‘paytiramiz.

Sikllar tugagandan so’ng S va P ning qiymatini chiqaramiz.

<i>algoritm</i>	<i>dastur</i>
<pre> graph TD A([boslash]) --> B[N] B --> C[A(N,N) massiv] C --> D[S := 0; P := 1; I := 1] D --> E[J := 1] E --> F[S := S + A(I,j); P := P * a[i][j];] F --> G[J := J + 1] G --> H{J <= N} H -- ha --> E H -- yo'q --> I[I := I + 1] I --> J{I <= N} J -- ha --> F J -- yo'q --> K[S, P] K --> L([tamom]) </pre>	<pre> int main() { int a[3][3], i, j, n; float s, p,; s=0; p=1; cout<<"massiv tartibini kirititing="; cin>>n; for (i=0; i<3; i++) for(j=0; j<3; j++) { cout<<"a["<<i<<"]"<<"["<<j<<"]"="; cin>>a[i][j]; } s=s+a[i][j]; p=p*a[i][j]; cout << "s="<<s<<"\t" << "p=" <<p; getch(); return 0; } </pre> <p>C:\Documents and Settings\User\Мои документы\1231.exe</p> <pre> massiv tartibini kirititing=3 a[0][0]=1 a[0][1]=2 a[0][2]=3 a[1][0]=4 a[1][1]=5 a[1][2]=6 a[2][0]=7 a[2][1]=8 a[2][2]=9 s=45 p=362880_ </pre>

2-masala. A(n,n) massivning ustun elementlari yig'indisi va ko'paytmasini hosil qiling va ularni chop eting.

C++ tilida dastur

```

int main()
{
    int a[3][3]={8,-9,6,-5,-3,12,-13,16,17},i,j;
    float s,p;;
    s=0; p=1;
    for ( i=0; i<3; i++)
    {
        for ( j=0; j<3; j++)
        cout<<"\t" <<a[i][j]<<" ";cout<<"\n";
    }
    for (j=0;j<3;j++)
    {
        for (i=0;i<3;i++)
    }
  
```

```

{ s=s+a[i][j]; p=p*a[i][j];}
    cout<<"\n"<<"\n"<<"\t"<<j<<"-ustun elementlari yig'indisi va
ko'paytmasi" <<"\n"<<"\n";
cout << "\t"<<"s="<<s<<"\t"<<"p="<<p; }
    getch();
return 0;
}

```

```

C:\Documents and Settings\офшэшё\Прею\Прсюшш ёСюы\С++\
8      -9      6
-5      -3      12
-13     16      17

0-ustun elementlari yig'indisi va ko'paytmasi
s=-10   p=520
1-ustun elementlari yig'indisi va ko'paytmasi
s=-6    p=224640
2-ustun elementlari yig'indisi va ko'paytmasi
s=29   p=2.74959e+08

```

3-masala. $n \times n$ o`lchovli massiv shaxmat doskasi ko`rinishida bo`lsin, har bir katak 4 ta element o`rnini egallagan bo`lishi kerak; qora kataklar bu 1 dan tashkil topgan elementlar, oq kataklar 0 (nol)dan tashkil topgan elementlar.

C++ tilida dastur

```

#include<iostream.h>
#include<conio.h>
int main()
{
    int a[100][100], n,i,j,b,c;
    cout<<"Massiv ulchamlari:";
    cout<<"n=";
    cin>>n;
    b=1;c=n;
    for(i=1; i<=n; i++)
        for(j=1; j<=n; j++)
    {
        a[i][j]=0;
    }
    for(i=1; i<=n; i+=4)

```

```

for(j=1; j<=n; j+=4)
{
    a[i][j]=1;
    a[i][j+1]=1;
    a[i+1][j]=1;
    a[i+1][j+1]=1;
}
for(i=3; i<=n; i+=4)
for(j=3; j<=n; j+=4)
{
    a[i][j]=1;
    a[i][j+1]=1;
    a[i+1][j]=1;
    a[i+1][j+1]=1;
}
for(i=1; i<=n; i++)
{
for(j=1; j<=n; j++)
    cout<<a[i][j]<<" "; cout<<endl; }
getch(); }
```

0	0	1	0
0	1	0	0
1	1	0	0
0	0	1	0
0	1	1	0
1	0	0	1
0	0	1	1
0	1	0	0
1	1	0	0

1	1	0	0	1	1	0	0	1	1	0	0
1	1	0	0	1	1	0	0	1	1	0	0
0	0	1	1	0	0	1	1	0	0	1	1
0	0	1	1	0	0	1	1	0	0	1	1
0	0	1	1	0	0	1	1	0	0	1	1
1	1	0	0	1	1	0	0	1	1	0	0
1	1	0	0	1	1	0	0	1	1	0	0
0	0	1	1	0	0	1	1	0	0	1	1
0	0	1	1	0	0	1	1	0	0	1	1
0	0	1	1	0	0	1	1	0	0	1	1
1	1	0	0	1	1	0	0	1	1	0	0
1	1	0	0	1	1	0	0	1	1	0	0
0	0	1	1	0	0	1	1	0	0	1	1
0	0	1	1	0	0	1	1	0	0	1	1
1	1	0	0	1	1	0	0	1	1	0	0


4-masala. Haqiqiy sonlardan iborat $A(n,n)$ o'lchovli massiv berilgan. Uning bosh diagonali elementlari yig'indisi va ko'paytmasini hisoblash algoritmi va dasturini tuzing.

<i>algoritmi</i>	<i>C++ tilida dastur</i>
<pre> graph TD start([boshlash]) --> N[N] N --> matrix[A(N,N) massiv] matrix --> init[S:=0; P:=1; I:=1] init --> J1[J:=1] J1 --> calc[S:=S+A(I,j); P:=P*A(I,j)] calc --> Jplus1[J:=J+1] Jplus1 --> cond1{J <= N} cond1 -- ha --> loop_start[I:=I+1] cond1 -- yo'q --> end loop_start --> cond2{I <= N} cond2 -- ha --> calc cond2 -- yo'q --> tamom([tamom]) calc --> S_P[S, P] S_P --> tamom </pre>	<pre> #include <iostream.h> #include <conio.h> using namespace std; int main() { int a[3][3]={8,-9,6,-5,-3,12,-13,16,17},i,j; float s,p;; s=0; p=1; for (i=0;i<3;i++) for (j=0;j<3;j++) if (i==j) {s=s+a[i][j]; p=p*a[i][j];} cout << "s=" << s << "\t" << "p=" << p; getch(); return 0;} </pre> <p>Выбрать C:\Documents and Settings\User\Мои документы\1231.exe s=22 p=-408</p>

2-masala. 3 ta uchburchak tomonlarining uzunliklari bilab berilgan. Ularning yuzalarini hisoblash dasturini tuzing.


C++ tilida dasturi

```
#include <iostream.h>
#include <conio.h>
#include <math.h>
using namespace std;
float yuza(int a,int b,int c)
{float s,p;
p=(a+b+c)/2; s=sqrt(p*(p-a)*(p-b)*(p-c));
return s;}
int main()
{float a1,b1,c1,a2,b2,c2,a3,b3,c3,s1,s2,s3;
cin>>a1>>b1>>c1>>a2>>b2>>c2>>a3>>b3>>c3;
s1=yuza(a1,b1,c1);s2=yuza(a2,b2,c2);s3=yuza(a3,b3,c3);
cout<<"1-uchburchak yuzasi=<<s1<<"\n";
cout<<"2-uchburchak yuzasi=<<s2<<"\n";
cout<<"3-uchburchak yuzasi=<<s3<<"\n";
system("pause");
return 0;
}
```



```
C:\Documents and Settings\фъшәшёғерсюйш ёюы\C++\Abbos\FoyFunk2.exe
9 8 7 8 6 7 9 6 7 8
1-uchburchak yuzasi=26.8328
2-uchburchak yuzasi=15.4919
3-uchburchak yuzasi=20.9762
Process returned 0 (0x0)   execution time : 52.641 s
Press any key to continue.
```

4-masala. Uchburchak uchlarining koordinatalari (x_1, y_1) , (x_2, y_2) , (x_3, y_3) berilgan bo'lsin. (x, y) koordinatali nuqta shu uchburchakkiga tegishli bo'la olish yoki olmasligini aniqlovchi dastur tuzing.



Berilgan uchburchak yuzasi S bo‘lsin.Uchburchak uchlarini (x , y) koordinatali nuqta bilan tutashtirib, 3 ta uchburchak hosil qilinadi. Ularning yuzalari mos ravishda S_1 , S_2 va S_3 bo‘lsin. Agar (x , y) nuqta berilgan uchburchakning ichida yotsa, $S = S_1 + S_2 + S_3$ bo‘lishi kerak. Aks holda nuqta uchburchak ichida yotmaydi. Ko‘rinib turibdiki, bu yerda uchlarining koordinatalari berilgan to‘rtta uchburchak yuzalarini hisoblashga to‘g‘ri kelmoqda. Uchburchak uchlarining koordinatalari uchun formal o‘zgaruvchilarni (a_1, b_1), (a_2, b_2) va (a_3, b_3) tarzida tanganadi. Bu uchburchakning tomonlari va yarim perimetrini belgilash uchun mos ravishda A , V , S va R o‘zgaruvchilari olinadi. Ular masala shartida ko‘rsatilmagani uchun lokal o‘zgaruvchilar hisoblanadi. So‘ngra ketma-ket to‘rt marta ($x_1, x_2, x_3, y_1, y_2, y_3$), (x, x_1, x_2, y, y_1, y_2), (x, x_2, x_3, y, y_2, y_3) va (x, x_1, x_3, y, y_1, y_3) joriy o‘zgaruvchilar uchun protseduraga murojaat qilinadi. Ya’ni uchlarining koordinatalari ana shu nuqtalarda yotgan uchburchaklarning yuzalari S_1 , S_2 , S_3 va S larni hisoblab topiladi. So‘ng masalani yechish g‘oyasiga ko‘ra $S = S_1 + S_2 + S_3$ munosabatini o‘rinli bo‘lishi yoki bo‘lmasligiga qarab xulosa chiqariladi.

C++ tilida dasturi

```

float uza (float al, float a2, float a3, float bl, float b2, float b3)
{float a,b,c,p;
a= sqrt(pow(a2-al,2) + pow(b2-bl,2)) ;
b = sqrt(pow(a3-a2,2) + pow(b3-b2,2)) ;
c= sqrt(pow(a3-al,2) + pow(b3-bl,2)) ;
p= (a + b + c) / 2 ; return sqrt(p*(p-a) *(p-b) *(p-c)) ;}
int main()
{float x,xl,x2,x3,y,yl,y2,y3,s,s1;
cout<< "uchburchakning birinchi uchi"; cin>>xl>> yl;
cout<< "uchburchakning ikkinchi uchi"; cin>>x2>> y2;
cout<< "uchburchakning uchinchi uchi"; cin>>x3>> y3;
cout<< "nuqtaning koordinatasi"; cin>>x>> y;
s=uza(xl,x2,x3,yl,y2,y3)+ uza(x,xl,x2,y,yl,y2)+uza(x,x2,x3,y,y2,y3) ;
s1=uza (x,xl, x3,y,yl,y3) ;
if (s==s1) cout<< " nuqta uchburchakka tegishli"; else cout<< "
nuqta uchburchakka tegishli emas";
system("pause");
return 0;
}

```


uchburchakning birinchi uchi 2 3
uchburchakning ikkinchi uchni 1 2
uchburchaiming uchinchi uch 0 —3
nuqtaning koordinatasi 0 0
berilgan nuqta uchburchakka tegishli emas
uchburchakning birinchi uchi 1 2
uchburchakning ikkinchi uchni 2 3
uchburchakning uchinchi uchi 3 4
nuqtaning koordinatasi 2 2.5
berilgan nuqta uchburchakka tegishli

4-masala. $S = \frac{1,2 + t(1+x) + 2t(2,2+x)}{t(x^2 - 1) + (2x+1)}$ ifodani qiymatini

hisoblash algoritmi va dasturini tuzing. Bu yerda $t(x) = \sum_{i=1}^5 \sum_{k=1}^3 \frac{(x+1)^2}{i+k}$ funksiya bo'lib, uning qiymati x argumentga bog'liq ravishda o'zgaradi.

Bu masalani yechish algoritmini tuzish uchun, birinchi navbatda noma'lum x o'zgaruvchiga qiymat beramiz. $t(x) = \sum_{i=1}^5 \sum_{k=1}^3 \frac{(x+1)^2}{i+k}$ funksiyani qiymatini hisoblash jarayonini qism dastur (function) shaklida ifodalaymiz va x ning har bir qiymatida unga murojoatni amalga oshirib boramiz, hamda murojoat qilishdan hosil bo'lgan qiymatlarni mos ravishda P, P1,P2,P3 orqali belgilab boramiz. Hosil bo'lgan qiymatlarni formulaga qo'yib, S ning qiymatini hisoblaymiz va natijani chop etamiz.

Algoritmi



C++ tilida dasturi

```


#include <iostream.h>
#include <conio.h>
#include <stdio.h>
#include <math.h>
float sum(float x)
{int i,j; float s,s1; s=0;
for (i = 1; i<=3; i=i+1)
{s1=0; for (j = 1; j<=3; j=j+1)
s=s+pow(2,1+x)/(i+j);s1=s1+s;} return s1;}
int main()
{float a,y;
cout<<"a ga qiymat bering = "; cin>>a;
y=(1.2+sum(1+a)+2* sum(2.2+a))/(sum(a*a-1)+sum(2*a+1));
cout<< "y ning qiymati= "<< y;
system("pause");
return 0;
}

```

5-masala. Ikkita a,b o`zgaruvchi e`lon qilinsin va bu o`zgaruvchilardan foydalangan holda qush() va ayir() funksiyalari tuzilib, dasturni asosiy qismida $(a+b)*(a-b)/((a+b)+(a-b))$ formula hisoblansin.

C++ tilida dastur

```
#include<iostream.h>
#include<conio.h>
#include<cmath>
using namespace std;
double qush(double x,double y)
{
    double z;
    z=x+y;
    return z;
}
double ayir(double x,double y)
{
    int z;
    z=x-y;
    return z;
}
int main()
{
    double a,b;
    cout<<"a=";    cin>>a;
    cout<<"b=";    cin>>b;
    cout<<qush(a,b)*ayir(a,b)/(qush(a,b)+ayir(a,b));
    getch();
}
```




25. Butun $N \times N$ ($3 \leq N < 100$) matrisa berilgan. Matrisaning chap diagonalidan yuqori elementlarini 1 bilan qolgan qismini esa 0 bilan to‘ldiring.

Kiruvchi ma ’lumotlar: Birinchi satrda N soni berilgan.


Chiquvchi ma ’lumotlar: N x N o’lchamli matrisani masala sharti bo‘yicha chiqaring.

Kiritishga misol	Chiqarishga misol		
3	111		
	110		
	1 0 0		
5	111	1	1
	111 1 1		
	111 0 0		
	110 0 0		
	100 0 0		

5.7.Funksiyadan foydalanib dastur tuzishga doir masalalar.

1. Sonni o’nlik sanoq sistemasidan o’n otilik sanoq sistemasiga (hamda teskarisiga) o’tkazuvchi funksiya tuzing.
2. Sonni o’nlik sanoq sistemasidan sakkizlik otilik sanoq sistemasiga o’tkazuvchi funksiya tuzing.

3. Sonni o‘nlik sanoq sistemasidan ikkilik sanoq sistemasiga o‘tkazuvchi funksiya tuzing.
4. Sonni o‘n otilik sanoq sistemasidan ikkilik sanoq sistemasiga o‘tkazuvchi funksiya tuzing.
5. Sonni o‘n otilik sanoq sistemasidan sakkizlik sanoq sistemasiga o‘tkazuvchi funksiya tuzing.
6. Sonni sakkizlik sanoq sistemasidan ikkilik sanoq sistemasiga o‘tkazuvchi funksiya tuzing.
7. Q sonini P darajasini topuvchi funksiya tuzing.
8. P sonini oxiridan L sonini qo‘shuvchi funksiya tuzing.
9. Berilgan to‘g‘ri burchakli uchburchakning katetlari yordamida gi-potenuzasini topuvchi funksiya tuzing
10. Berilgan ikki nuqtaning koordinatasi asosida ular orasidagi masofani topuvchi funksiya tuzing.
11. Berilgan sondagi qo‘shni raqamlarining raqamlarining yig‘indisiga teng bo‘lgan raqamni o‘chirivchi funksiya tuzing.
12. Berilgan N soni ikkita tub sonni yig‘indisi bo‘lishini tekshiruvchi funksiya tuzing.
13. Berilgan son 11 ga bo‘linsa 1 aks holda o chiqaruvchi funksiya tuzing.
14. Berilgan sonni K o‘rindagi raqamini N o‘rindagi raqami bilan al-mashtiruvchi funksiya tuzing.
15. Sonni raqamlarini o‘sish (kamayish) tartibida saralovchi funksiya tuzing.
16. Uchburchakni uchta uchining koordinatalari berilgan. Uning yuzasini topuvchi funksiya tuzing.
17. So‘z berilgan. Shu so‘zni palindromlikka tekshiruvchi funksiya tuzing. Masalan, kiyik. So‘z palindrom bo‘lsa “Palindrom” aks holda “Palindrom emas” so‘zini chiqaring.
18. . Besh burchakning uchlarining koordinatalari $x_1, y_1, x_2, y_2, \dots, x_5, y_5$ berilgan. Beshburchakdagi uchburchakni uchta uchining koordinatalari berilgan. Uning yuzasini topuvchi funksiya tuzing.



19. Sonni tublikka tekshiruvchi funksiya tuzing va barcha uch xonali tub sonlarni chiqaring.
20. Barcha tub sonlar ichidan “egizak”larini topuvchi funksiya tuzing. Tub sonlar “egizak” deyiladi, agarda ular 3 ga farq qilsa. Masalan, 41 va 43. Uch xonali sonlar ichidan barcha “egizak”larni chiqaring.
21. Ikkita son berilgan. Ularni raqamlari yig‘indisi kattasini toping. Sonni raqamlari yig‘indisini topuvchi funksiya tuzing.
22. Ikkita son berilgan. Ularning raqamlaridan soni ko‘pini toping. Sonni raqamlari sonini topuvchi funksiya tuzing.
23. 6 xonali barcha baxtli sonni toping. Agarda 6 xonali sonni dastlabki uchta raqamini yig‘indisi oxirgi uchta raqamini yig‘indisiga teng bo‘lsa baxtli son deyiladi. 6 xonali sonni raqamlarini uchtalab yig‘indisini topuvchi funksiya tuzing.
24. Berilgan sonni palindromlikka tekshiruvchi funksiya tuzing. Masalan, 1221. Son palindrom bo‘lsa “Palindrom”, aks holda “Palindrom emas” so‘zini chiqaring.
25. Berilgan a va b sonlarini EKUBini topuvchi funksiya tuzing.
26. Berilgan a va b sonlarini EKUKini topuvchi funksiya tuzing.
27. Berilgan a, b va c sonlarini EKUBini topuvchi funksiya tuzing.
28. Berilgan y (yil), o (oy) va k (kun) sonlari berilgan. Shu sonlarni kiritgan holda qaysi kunga to‘g‘ri kelishini aniqlovchi dastur tuzing. Masalan, 2019 8 2 uchun “Juma” chiqishi lozim.
29. 0110100110010110 tartibda berilgan ketma–ketligining $n - o$ rnida necha soni turganligini topuvchi dastur tuzing. Bu ketma–ketlik birinchi elementi 0 ga teng. Keyingi elementlari esa berilgan satrni 0 ni 1 ga 1 ni esa 0 ga o‘girgan holatga ko‘chirilgan ya’ni 0 1 10 1001 10010110
30. 2^{2^n} ning 10^9 ga bo‘lgandagi qoldiqni hisoblovchi rekursiv funksiya tuzing. n soni [1; 1000000] oraliqda bo‘lishi mumkin.

5.8. Ko'rsatgich funksiyalardan foydalanib dastur tuzish

1. $a[n][m]$ massiv elementlarini $[0; 10000]$ oraliqdagi sonlar bilan to'ldiring. Bu massivning har bir satr elementlarini o'sish tartibida chiqaring.
2. $a[n][m]$ massiv elementlarini $[0; 10000]$ oraliqdagi sonlar bilan to'ldiring. Uning eng katta va eng kichik elementini toping. Agarda bunday elementlar ko'p bo'lsa, ularning sonini chiqaring.
3. $a[n][m]$ massiv elementlarini $[-1000; 1000]$ oraliqdagi tasodifiy sonlar bilan to'ldiring. Uning eng katta va eng kichik elementlarini nomer(indeks)larini toping.
4. $a[n][m]$ massiv elementlarini $[-10000; 10000]$ oraliqdagi tasodifiy sonlar bilan to'ldiring. Uning eng katta va eng kichik elementlarining ayirmasini toping.
5. $a[n][m]$ massiv elementlarini $[-500; 500]$ oraliqdagi tasodifiy sonlar bilan to'ldiring. Bu massivni ustun elementlarini o'sish tartibida chiqaring.
6. $a[n][m]$ massiv elementlarini $[-900; 900]$ oraliqdagi tasodifiy sonlar bilan to'ldiring. Bu massivni bosh diagonal elementlarini o'sish tartibida chiqaring. Albatta mos ravishda satrlari ham o'zgarishi lozim.
7. $a[n][m]$ massiv elementlarini $[0; 100000]$ oraliqdagi tasodifiy sonlar bilan to'ldiring. Elementini qiymati 200 dan kattalari sonini va ularning o'rta arifmetigini toping.
8. $a[n][m]$ massiv elementlarini $[-1000; 1000]$ oraliqdagi tasodifiy sonlar bilan to'ldiring. Bu massivning bosh diagonal elementlarini kamayish tartibida chiqaring.
9. $a[n][m]$ massiv elementlarini $[-100000; 100000]$ oraliqdagi tasodifiy sonlar bilan to'ldiring. Elementining qiymatini bir vaqtda 5 ga va 3 ga qoldiqsiz bo'linadiganlarining soni va ularni yig'indisini toping.
10. $a[n][m]$ massiv elementlarini $[-10000; 10000]$ oraliqdagi tasodifiy sonlar bilan to'ldiring. Massivni chap diagonal elementlarini kamayish tartibida chiqaring.
11. $a[n][m]$ massiv elementlarini $[-10000; 10000]$ oraliqdagi tasodifiy sonlar bilan to'ldiring. Massiv elementlari tublari sonini va ularning yig'indisini chiqaring.
12. $a[n][m]$ massiv elementlarini $[-10000; 10000]$ oraliqdagi tasodifiy sonlar bilan to'ldiring. Massivning eng katta va eng kichik elementlari sonini chiqaring.

13. $a[n][m]$ massiv elementlarini $[-1000; 1000]$ oraliqdagi tasodifiy sonlar bilan to‘ldiring. Massivning eng oxirgi manfiy elementining nomerini aniqlang va chiqaring.
14. $a[n][m]$ massiv elementlarini $[-1000; 1000]$ oraliqdagi tasodifiy sonlar bilan to‘ldiring. Massivning eng oxirgi musbat elementining nomerini aniqlang va chiqaring.
15. $a[n][m]$ massiv elementlarini $[-1000; 1000]$ oraliqdagi tasodifiy sonlar bilan to‘ldiring. Massivning eng oxirgi manfiy elementining nomerini aniqlang va chiqaring.
16. $a[n][m]$ massiv elementlarini $[-1000000; 100000]$ oraliqdagi tasodifiy sonlar bilan to‘ldiring. Massivning musbat va manfiy elementlarining yig‘indisini toping.
17. $a[n][m]$ massiv elementlarini $[-1000; 1000]$ oraliqdagi tasodifiy sonlar bilan to‘ldiring. Massivning eng oxirgi manfiy elementining nomerini aniqlang va chiqaring.
18. $a[n][m]$ massiv elementlarini $[-10000; 10000]$ oraliqdagi tasodifiy sonlar bilan to‘ldiring. Massivning eng oxirgi manfiy elementining nomerini aniqlang va chiqaring.
19. $a[n][m]$ massiv elementlarini $[-1000; 1000]$ oraliqdagi tasodifiy sonlar bilan to‘ldiring. Berilgan massiv elementlarining a va b oraliqdagilari sonini toping.
20. $a[n][m]$ massiv elementlarini $[-1000; 1000]$ oraliqdagi tasodifiy sonlar bilan to‘ldiring. Massivni manfiy elementlarini ularning absolyut qiymati bilan almashtiring va almashtirishlar sonini chiqaring.

5.9. Murakkab darajadagi masalalarga algoritm va dastur tuzing

1. «*Ko’ndalang diagonal*». $A(m,n)$ massivning, indekslari ayirmasi berilgan K soniga (K -manfiy son ham bo’lishi mumkin) teng bo’lgan ($i=j=k$), elementlari yig‘indisini toping.
2. «*Kvadratchalar*». Har bir elementi 0,1,5 yoki 11 ga teng $A(m, m)$ massiv berilgan. Har birida elementlari har xil bo’lgan to’rtliklar $A(i,j)$, $A(i+1,j)$, $A(i,j+1)$, $A(i+1,j+1)$ miqdorini toping.
3. «*Sanoq sistemalari*». $M(9)$ massivda qandaydir natural sonning I – sanoq sistemasida raqamlari yozilgan. ($M(1)$ -birlar xonasi va h.k.). Birlar xonasidan boslab turib, J-sanoq sistemasida bu son raqamlarini chop eting. I,J sonlar 10 dan oshmaydi.

4. «**Kalendar**». Kun, oy, yilni bildiruvchi uchta a,b,c sonlar berilgan. Shu kunning yil boshidan hisoblangandagi n-tartib raqamini toping. Ko'rsatma: tartib raqami 400 ga bo'linadigan, shuningdek tartib raqami 4 ga bo'linib, 100 ga bo'linmaydigan yillar kabi yili hisoblanadi.
5. «**So'zning matnga kiritilishi**». Butun sonli X(n) va Y(k) 2 ta massivlar berilgan. $x_{i+1}=u_1, x_{i+2}=u_2, \dots, x_{i+k}=u_k$ shartlarni qanoatlantiruvchi va $x_{i+1}, x_{i+2}, \dots, x_{i+k}$, ketma-ket keluvchi «k» ta elementlarni birinchi massivdan tanlab olish mumkinmi? Bu masalani yechuvchi va Ha yoki Yo'q javoblarni beruvchi dasturni yozing.
6. «**Nollar seriyasi**». A(n) butun qiymatli massiv berilgan. Massivning elementlari nolga teng va ketma-ket keluvchi eng uzun ketma-ketligi uzunligini toping.
7. «**Egar nuqta**». A(m,n) sonli massiv berilgan. O'z satrida eng kichik bo'lган element o'z ustunida eng katta bo'lsa, u egar nuqta deyiladi. Agar massivda egar nuqta bo'lsa, u yotgan satr va ustun raqamini, agar unday nuqta bo'lmasa, nol sonini chop eting.
8. «**Kasrni qisqartirish**». Natural «m» va «n» sonlar berilgan. Umumiy bo'luvchiga ega bo'lмаган shunday natural m_1 va n_1 sonlarni topish kerakki, $m_1/n_1 = m/n$ bo'lsin.
9. «**Massivlarning qo'shilishi**». «M» va «N» sonlar va ikkita tartibga solingan massivlar: $a_1 \leq a_2 \leq \dots \leq a_m$ hamda $v_1 \leq v_2 \leq \dots \leq v_n$ berilgan. Bu elementlardan tartibga solingan uchinchi massivni hosil qiling: $s_1 \leq s_2 \leq \dots \leq s_{m+n}$ Ko'rsatma: «M» va «N» lar katta sonlar bo'lganda dasturdagi amallar miqdoriga e'tibor bering.
10. «**Moda**». Butun sonli A(n) massivda eng ko'p uchraydigan sonni toping. Agar bunday sonlar bir nechta bo'lsa, ulardan bittasini aniqlang.
11. «**Markaziy qishloq**». «K» ta qishloq mavjud. Agar i -qishloqda tez yordam punkti joylashtirilsa, chaqiruv bo'yicha j -qishloqqa borish $a_{ii} + a_{ij}$ ($1 \leq i, j \leq k, i \neq j$) vaqtini oladi.. Shunday i -qishloq tartib raqamini topingki, undan eng uzoq qishloqqa borish uchun kam vaqt sarflansin. A(k,k) massiv berilgan. Unda hamma a_{ij} elementlar noldan katta va a_{ij} - element a_{ji} elementga teng bo'lmasligi mumkin.
12. «**Tartib indekslari**». A(n) sonli massiv berilgan . 1, 2,...,n sonlarning shunday, i_1, i_2, \dots, i_n o'rın almashtirishni topingki, natijada $a_{i1} \leq a_{i2} \leq \dots \leq a_{in}$ bo'lsin.
13. «**Nollashтирish**». Berilgan ikki o'lchovli A(m,n) massivda noli bo'lган satr va ustun elementlarini nollar bilan almashtiring.

Shart. Yordamchi bir o'lchovli massivdan foydalanish mumkin, lekin yordamchi ikki o'lchovli massiv ishlatish mumkin emas .

14. «*Ulgurji xarid*». Paypoq jufti 105 so'm, bog'lami (12 juft) 1025 so'm, qutisi (12 bog'lam) 11400 so'm turadi.

Xaridor sotib olmoqchi bo'lgan paypoqlarning n juft soniga ko'ra, xaridor sotib olishi kerak bo'lgan n1,n2,n3 quti, bog'lam, paypoqlar juftini hisoblab beruvchi dastur tuzing.


Tushuntirish. 11 juft paypoq o'rniga bir bog'lamni xarid qilish arzonga tushadi.

15. «*To'ntarilgan sonlar*». A(N) sonli massiv berilgan. Massivning maksimal uzunlikdagi kesmasini topish kerak. Unda bиринчи son oxirgisiga, ikkinchi son oxirgisidan bitta oldingisiga va h.k. teng bo'lsin . Bu kesma uzunligini chop eting.

16. «*Ikki marta monoton*». Sonlarning A(m,n) massivi satrlar va ustunlar bo'yicha kamayib borish tarzida tartiblangan, ya'ni hamma $i=1,\dots,m$ lar uchun, $a_{i1} \leq a_{i2} \leq \dots$ hamma $j=1,\dots, n$ lar uchun, $a_{1j} \leq a_{2j} \leq \dots$. Massiv elementlari ichidan berilgan «x» soniga teng bo'lganini toping. Agar bunday element bo'lmasa, «Yo'q » deb chop eting. Majburiy shart. Yechimda amallar soni $m*n$ atrofida emas, $m+n$ atrofida bo'lsin.

17. «*Tetraedrlar*». Ikkita teng to'g'ri M va N tetraedrlar qirrasiga M1,M2,M3,M4 va N1,N2,N3,N4 sonlar rasmida ko'rsatilgan tartibda yozilgan.

Tetraedrlarni bir xil sonlar yozilgan qirralari bilan bir-biriga mos tushirib, joylashtirish mumkinmi? «Ha» yoki «Yo'q» javob berilsin .



18. «*Kasr davri*». «M» va «N» natural sonlar berilgan. O'nlik M/N kasr davrini chop eting. Masalan, $1/7$ kasr uchun davr 142857 ga teng, kasr chekli bo'lsa, uning davri bitta 0 raqamiga teng bo'ladi.


19. «*Arra*». X(m) massiv berilgan. Eng uzun «arra» shaklidagi (tishlari yuqoriga qaragan) ketma-ket keluvchi sonlar qatori uzunligini toping.

$$X[p+1] < X[p+2] > X[p+3] < \dots > X[p+k]$$

20. «*Nollar oxiriga*». Bir o'lchovli massiv berilgan. Uning nolga teng bo'lмаган hamma elementlarini, tartibni saqlagan holda, massiv boshi-

ga, nollik elementlarini, yangi massiv ishlatmasdan turib, massiv oxiriga joylashtiring.

21. «***Har xil raqamlik sonlar***». O'nlik sanoq sistemasidagi sonlar ichidan ikkita raqami bir xil bo'limgan barcha to'rt xonali natural sonlarni chop eting.
22. «***0,1,2 larning o'rnini almashtirish***». X(n) massivda har bir element 0,1 yoki 2 ga teng. Massiv elementlari o'rnini shunday almashtirningki, natijada avval hamma nollar, keyin birliklar, nihoyat, hamma ikkiliklar joylashsin (qo'shimcha massiv ishlatalish mumkin emas).
23. «***Arifmetik amallar***». Yozilgan (((((1?2)?3)?4)?5)?6 ifodada har bir ? belgi o'rniiga +, -, *, /, arifmetik amallardan bittasini shunday qo'yish kerakki, hisoblash natijasi 35 bo'lsin (bo'lishda bo'linmadagi kasr qism tashlanadi). Bitta yechimni topish yetarli.
24. «***Tez daraja***». «A» haqiqiy va «K» natural sonlar berilgan. Darajaga ko'tarish amalidan foydalanmasdan (bu yerda «K» juda katta son bo'lishi mumkin, natijada «K» ko'paytirishni bajarib bo'lmay qoladi) «A^k»ni hisoblang va chop eting.
25. «***Har xil sonlar***». «M» natural son va A(m) butun qiymatli massiv berilgan. Bu massivda nechta har xil sonlar bor? Masalan: 5,7,5 dan iborat uch elementli massivda har xil sonlar ikkita (5 va 7).
26. «***Minimumlarning maksimumi***». X(m,n) massivda hamma sonlar har xil. Har bir satrdan eng kichik elementni tanlash, so'ngra bu kichik elementlarning eng kattasini aniqlash dasturini tuzing. X-massivda tanlangan son yotgan satr va ustun raqamlarini aniqlang.
27. «***Spiral***». N sonini kriting va $n \times n$ o'lchovli ikki o'lchamli massivni spiral bo'yicha 1,2,... natural sonlari bilan to'ldiring.



28. «***Ichki to'plam bo'yicha yig'indi***». Butun qiymatli A(n) massiv va «M» son berilgan. Elementlarning shunday qism to'plamini A[i₁], A[i₂],..., A[i_k] ($1 \leq i_1 < \dots < i_k \leq n$) topish kerakki, $A[i_1] + A[i_2] + \dots + A[i_k] = M$ bo'lsin. Bunday to'plam bor, deb faraz qilinadi.
29. «***Labirint***». Yo'lovchi labirintdan (boshi berk yo'l) chiqa oladimi? Agar chiqa olsa, unda yo'lovchining chiqishdan boshlang'ich nuqtasiga bo'lgan yo'lini chop eting. Labirint 40x40 o'lchamli «A»massiv bi-

lan berilgan. Unda agar (k,m) katakdan o'tish mumkin bo'lsa, $a[k,m]=0$, (k,m) katakdan o'tish mumkin bo'lmasa, $a[k,m]=1$. Yo'lovchining boshlang'ich nuqtasi, o'tish mumkin bo'lgan, $[i,j]$ katakda. Yo'lovchi, agar kataklar bitta umumiy tomonga ega bo'lsa, bir katakdan ikkinchisiga o'ta oladi. Yo'lovchi chegara katakka (ya'ni (k,m), bu yerda « k » va « m ») yoki 40 ga teng) yetsagina labirintdan chiqadi.

30. **«Mukammal sonlar».** Agar natural son o'zining barcha bo'luvchilarini (1 ham hisoblanadi) yig'indisiga teng bo'lsa, u mukammal son bo'ladi. Berilgan M sonidan kichik barcha mukammal sonlarni topish dasturini tuzish.

31. **«Hosil qilinmaydigan son».** R(n) natural sonlar massivi berilgan. Shunday eng kichik natural sonni topish kerakki, uni R massivning hech bir elementlari yig'indisi ko'rinishida ifodalab bo'lmasin. Yig'indi bitta qo'shiluvchidan ham iborat bo'lishi mumkin, lekin massivning har bir elementi unga faqat bir marta kira oladi.

32. **«Do'mbira».** Aylana bo'yicha 12 ta son yozilgan : $a_1, a_2, \dots, a_{12},$. Agar k-tartib raqamidan boshlab, ularni qo'shib yozsak, X_k vektor hosil bo'ladi: $X_k = (a_k, a_{k+1}, a_{k+11})$, bu yerda a_{13} ni a_1 , a_{14} ni a_2 va h.k. bildiradi. Agar birinchi tengmas juftdayoq $a_{k+i} < a_{p+i}$ ($i=0,1,\dots$) bo'lsa, X_k vektor X_r vektordan kichik deb hisoblanadi. Shunday « k » ni topish kerakki, vektor X_k eng kichik bo'lsin.

33. **«Kublar yig'indisi».** Berilgan N natural sonni 2ta natural sonlar kublarining yig'indisi ($N=i^3+j^3$) ko'rinishida necha xil usul bilan yozish mumkin? Qo'shiluvchilarning o'rin almashtirilishi yangi usulni bermaydi. 1/3-darajaga ko'tarish amalidan foydalanish mumkin emas.

34. **«Raqamlarning berilgan yig'indisi».** Raqamlari yig'indisi berilgan natural songa teng bo'lgan barcha uch xonalik o'nlik sanoq sistemasidagi sonlarni aniqlang.

35. **«Poker».** Beshta sondan iborat massiv berilgan. Ularning ichidan beshtasi bir xil bo'lsa-1; to'rttasi bir xil bo'lsa-2; uchtasi va ikkitasi bir xil bo'lsa-3; uchtasi bir xil bo'lsa-4; ikkita ikkitalik bir xil bo'lsa-5; ikkitasi bir xil bo'lsa-2; aks holda-7 sonini chop eting.

36. **«Kvadratlар yig'indisi».** Berilgan M natural sonni ikkita natural sonlar kvadratlari yig'indisi ko'rinishida yozish mumkinmi?

VI-bob. Nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamkashga doir test savollari.

6.1. Algoritm va algoritmlash jarayoniga doir test savollari

1. Algoritmning xossalari toping

- a) chiziqli,tarmoqlanuvchi,takrorlanuvchi
- b) aniqlanganlik, tushunarllilik, diskretlik, ommaviylik,natijaviylik
- c) aniqlanganlik, tushunarllilik, diskretlik, tarmoqlanuvchi,takrorlanuvchi
- d) chiziqli,tarmoqlanuvchi, diskretlik, ommaviylik,natijaviylik

2. Algoritm bu:

- a) amallar ketma-ketligi
- b) chekli amallar ketma-ketligi
- c) buyruqlar va amallar ketma-ketligi
- d) a),b),c)

3. Algoritmning berilish usullari qanday

- a) matn orqali
- b) formulalar orqali
- c) jadval ko`rinishida
- d) matn, formula, jadval ,dastur, algoritmik til,blok-sxema

4. Algoritm turlarini ko`rsating

- a) chiziqli, tarmoqlanuvchi,takrorlanuvchi
- b) chiziqsiz, tarmoqlanuvchi,takrorlanuvchi
- c) tarmoqlanuvchi
- d) takrorlanuvchi

5. blok qanday ko'rsatmani bildiradi?

- a) Shart tekshiradi
- b) Hisoblash bajarishni
- c) Boshlanishni
- d) Qiymat kiritishni

6. Quyidagilardan qaysi biri algoritm ko'satmasi bo'la olmaydi?

- a) "Sakrash mumkin"
- b) "2 karra 3 necha bo'ladi?"
- c) "Tugallansin"
- d) a va b

7. blok qanday ko'rsatmani bildiradi?

- a) Shart tekshiradi
- b) Oddiy harakatni
- c) Boshlanishni

d) Qiymat kiritishni



8. blok qanday ko'rsatmani bildiradi?

- a) Shart tekshiradi
- b) Oddiy harakatni
- c) Boshlanishni
- d) Qiymat kiritishni



9. blok qanday ko'rsatmani bildiradi?

- a) Shart tekshiradi
- b) Oddiy harakatni
- c) Boshlanishni
- d) To'g'ri javob yo'q

10. Algoritm so'zi qaysi olim nomi bilan bog'liq

- a) Abu Rayxon Beruniy
- b) Al-Xorazmiy
- c) Ibn Sino
- d) Mirzo Ulug'bek

11. Algoritm javobini aniqlang :

1. *Boshlash.*

2. $x:=3; y:=2; x:=\sqrt{y} \cdot 2$ hisoblansin.

3. $x:=\sqrt{x}+y$ hisoblansin

4. x va y chiqarilsin.

5. *Tamom.*

- a) 8 va 2 b) 2 va 8 c) 10 va 2 d) 2 va 10

12. Algoritm javobini aniqlang :

1. *Boshlash.*

2. $a:=1; b:=2; a:=3$ bajarilsin

3. a, b va a ni qiymati chiqarilsin

4. *Tamom.*

- a) 1;2;3 b) 1;1;3 c) 2;1;3 d) 3;2;3

13. Algoritm javobini aniqlang

1. *Boshlash.*

2. $x:=1; y:=1; z:=0$ hisoblansin

3. agar $x>1$ va $y>0$ bo'lsa $z:=1$ va 5 ga o'tilsin

4. aks holda $z:=2$

5. z ni qiymati chiqarilsin

6. *Tamom.*

- a) 1 b) 2 c) 0 d) -1

14. f ning qiymatini aniqlang

1. *Boshlash.*

2. $i:=2$ bajarilsin
 3. $i:=i+1$ hisoblansin.
 4. $f:=i*i$ hisoblansin
 5. agar $i>3$ bo 'lsa $f:=f^2$ hisoblansin va 7 ga o'tilsin.
 6. aks holda $f:=f^{1/2}$
 7. f ni qiymati chiqarilsin.
- a) 2 b) 3 c) 36 d) 81

15. Algoritm natijasini aniqlang?

1. Boshlash.
 2. $A:=10$; $B:=8$; $S:=6$ berilsin.
 3. agar $A>B$ va $S>B$ bo'lsa $y:=A+B-S$ hisoblansin va 5 ga o'tilsin.
 4. Aks holda $y:=A-B+S$ hisoblansin.
 5. y ning qiymati chiqarilsin.
 6. Tamom.
- a) 12 b) 8 c) 10 d) 14

16. Algoritm natijasini aniqlang?

1. *Boshlash.*
2. $a:=12$; $b:=14$; $s:=10$ deb olinsin.;
3. agar $a>b$ yoki $b>s$ bo'lsay:= $a+b-s$ hisoblansin va 5 ga o'tilsin.
4. $y:=a-b+s$ hisoblansin,
5. Y ning qiymati chiqarilsin.
6. *Tamom.*

- a) 16 b) 14 c) 8 d) 6

17. Algoritm natijasini aniqlang.

1. *Boshlash.*
 2. $A:=22$; $B:=18$; $D:=20$ deb hisoblansin.
 3. agar $A>18$ bo'lsa $D:=A-B$ hisoblansin.
 4. D ning qiymati chop etilsin.
 5. *Tamom.*
- a) 5 b) 20 c) 8 d) 4

18. Algoritm natijasini aniqlang:

1. *Boshlash.*
 2. $X:=2$; $p:=1$ deb olinsin.
 3. $P:=P*(2*x-2)$ hisoblansin
 4. $X:=X+3$ bajarilsin
 5. agar $X<=6$ bo'lsa 3 ga o'tilsin;
 6. Aks holda P ning qiymati chiqsin.
 7. *Tamom*
- a) 20 b) 16 c) 2 d) 24

19. Algoritm natijasi nimaga teng?

1. *Boshlash.*
 2. $X:=-2$; $y:=4$; $A:=-2$ deb olinsin.
 3. agar $A*A-y>x*x$ bo'lsa $z:=y+A$ hisoblansin va 5 ga o'tilsin.
 4. Aks holda $z:=X+A$ bajarilsin.
 5. A ni qiymati chiqarilsin.
 6. *Tamom.*
- a) -5 b) 1 c) 7 d) -4

20. Algoritm natijasi nimaga teng?

1. *Boshlash.*
 2. $k:=0$; $x:=1$ deb olinsin.
 3. $k:=k+1$ hisoblansin
 4. $x:=x*k$ bajarilsin.
 5. agar $k<5$ bo'lsa 3 ga o'tilsin;
 6. k va x ning qiymati chiqarilsin.
 7. *Tamom.*
- a) 4;24 b) 4;120 c) 4;12 d) 5; 120

6.2. C++ dasturlash tiliga doir test savollari

1. Interpretator qanday ishlaydi

- a) Interpretator dasturni o'qish jarayonida uning komandalarini ketma-ket mashina tiliga o'tkazadi.
- b) Interpretator yaxlit programma kodini biror bir oraliq forma obekt fayliga o'tkazadi.
- c) Faqatgina kompilyasiya qiladi.
- d) To'g'ri javob berilmagan.

2. Kompilyator qanday ishlaydi

- a) Kompilyator dasturni o'qish jarayonida uning komandalarini ketma-ket mashina tiliga o'tkazadi.
- b) Kompilyator yaxlit programma kodini biror bir oraliq forma - obyekt fayliga o'tkazadi.
- c) Faqatgina kompilyasiya qiladi.
- d) To'g'ri javob berilmagan.

3. Strukturaviy dasturlashning asosiy g'oyasi ...

- a) Bo'laklavahukmronlikqil.
- b) Dasturning yaxlitligi
- c) Dasturning mustahkamligi
- d) To'g'ri javob berilmagan.

4. Obyektga mo'ljallangan dasturlashning asosiy maqsadi ...

- a) Dasturni bir qancha bo'laklarga bo'lish.

- b) Berilganlar va ular ustida amal bajaruvchi proseduralarni yagona obyekt deb qarash
- c) Berilganlar alohida, ular ustida amal bajaruvchi prosedura va funksiyalar alohida faoliyat ko'rsatadi.
- d) To'g'ri javob berilmagan.

5. Obyektga mo'ljallangan dasturlashning uch asosiy prinsiplari ...

- a) Inkapsulyasiya, Dekapsulyasiya, Polimorfizm
- b) Inkapsulyasiya, Merosxo'rlik, Polimorfizm
- c) Induksiya, Deduksiya, Merosxo'rlik
- d) To'g'ri javob keltirilmagan.

6. Inkapsulyasiya bu - ...

- a) Tashqi konstruksiyada qo'llaniladigan yashirinlik yoki obyektning avtonomligi xossasi inkapsulyasiya deyiladi.
- b) Yangi berilganlar tipi (sinf) oldindan mavjud bo'lgan sinfni kengaytirishdan hosil bo'lishidir.
- c) shaklning ko'p xilligidir.
- d) To'g'ri javob keltirilmagan.

7. Dekrement nima

- a) Qiymatni 1 ga oshirish ($a+=1$) b) Qiymatni 1 ga kamytirish ($a-=1$)
- c) Qiymat berish ($a=1$) d) to'g'ri javob keltirilmagan.

8 . Prefiks operatori qachon bajariladi

- a) qiymat o'zlashtirilguncha (++Age, --Age)
- b) qiymat o'zlashtirilgandan keyin (Age++, Age--) c) Farqi yo'q.
- d) To'g'ri javob keltirilmagan.

9. postfiks operatori qachon bajariladi

- a) qiymat o'zlashtirilguncha (++Age, --Age)
- b) qiymat o'zlashtirilgandan keyin (Age++, Age--)
- c) Farqi yo'q.
- d) To'g'ri javob keltirilmagan.

10. Butun sonli arifmetika ishlataladigan amalni ko'rsating:

- A) + B) % C) && D) ** E) !!

11. Ishorasiz butun turdag'i ma'lumotni tavsiflash uchun ma'lumot turini ko'rsating:

- A) long B) short C) char D) unsigned int E)
double

12. Ishorasiz ma'lumotlarni tavsiflashning ma'lumotlar turi:

- A) double B) float C) unsigned D) char E) int

13. O'zgarmaslarni aniqlash uchun preprocessorning qaysi direktiva-sidan foydalaniladi?

A) #include B) #define C) typedef D) union E) extern

14. Belgili o'zgarmas to'g'ri tavsiflanganini aniqlang

A) define S='A' B) #define S "A" C) #define S A D) #define S 'A'
E) define S="A"

15. Satrli o'zgarmas to'g'ri tavsiflanganini aniqlang

A) #define S 'stroka' B) define S="stroka" C) #define S='stroka'
D) define S stroke E) #define S "stroka"

16. C++ tilida ishorali miqdorlarni ko'rsatishda qaysi kalit so'zidan foydalaniladi

a) short b) long c) Unsigned d) To'g'ri javob keltirilmagan.

17. C++ tilida necha turdag'i o'zgarmaslar aniqlangan

a) Ikki turdag'i - literal va belgili
b) Uch turdag'i - short, long va Unsigned
c) Ikki turdag'i - oddiy va murakkab
d) To'g'ri javob keltirilmagan.

18. C++ tilida belgili o'zgarmasni aniqlashning necha usuli mavjud

a) # define direktivasi yordamida va const kalitli so'zi orqali
b) # definedirektivasi yordamida
c) const kalitli so'zi orqali
d) to'g'ri javob keltirilmagan.

19. C++ tilida bajariluvchi faylni hosil qilish uchun dastlab qanday amalni bajarish lozim

a) cpp kengaytirmali dastur kodi hosil qilinadi;
b) Dastur kodini kompilyasiya qilish orqali .obj kengaytmali obyektli fayl tuziladi;
c) Bajariluvchi faylni hosil qilish maqsadida .obj kengaytmali fayli zaruriy bibliotekalar orqali komponovka qilinadi;
d) To'g'ri javob keltirilmagan.

20. Inkrement nima

a) Qiymatni 1 ga oshirish (a+=1)
b) Qiymatni 1 ga kamytirish (a-=1)
c) Qiymat berish (a=1)
d) to'g'ri javob keltirilmagan.

21. Ifoda to'g'ri yozilgan satrni ko'rsating: $b = \frac{1 + \cos(y - 2)}{\frac{x^4}{2} + \sin^2 z}$

A) $b = 1 + \cos(y - 2) / (\text{pow}(x, 4) / 2 + \text{pow}(\sin(z), 2));$

B) $b = (1 + \cos(y - 2)) / \text{pow}(x, 4) / 2 + \text{pow}(\sin(z), 2);$

C) $b = (1 + \cos(y - 2)) / (\text{pow}(x, 4) / 2 + \text{pow}(\sin(z), 2));$

D) $b = (1 + \cos(y - 2))/(pow(x,4)/2 + \sin(pow(z,2)))$;

E) $b = (1 + \cos(y - 2))/(pow(4,x)/2 + pow(\sin(z),2))$;

22. Ifoda to'g'ri yozilgan satrni ko'rsating: $y = \ln|5x| + \operatorname{tg}x^3$

A) $y = \log(abs(5 * x)) + \tan(pow(x,3))$;

B) $y = \ln(abs(5x) + pow(\operatorname{tg}(x),3)))$;

C) $y = \log(abs(5 * x)) + \tan(pow(3,x))$;

D) $y = \ln(abs(5 * x)) + \tan(pow(x,3))$;

E) $y = \log(abs(5 * x)) + \operatorname{tg}(pow(x,3))$;

23. Ifoda to'g'ri yozilgan satrni ko'rsating: $a = \frac{\sqrt{|x-1|} - \sqrt[3]{|y|}}{1 + \frac{x^2}{2} + \frac{y^2}{4}}$

A) $a = \operatorname{sqr}(abs(x-1)) - pow(abs(y),1/3)/(1 + pow(x,2)/2 + pow(y,2)/4)$;

B) $a = (\operatorname{sqrt}(abs(x-1)) - \operatorname{sqrt}(abs(y)))/(1 + pow(x,2)/2 + pow(y,2)/4)$;

C) $a = (\operatorname{sqrt}(abs(x-1)) - pow(abs(y),1/3))/(1 + \operatorname{sqr}(x)/2 + \operatorname{sqr}(y)/4)$;

D) $a = \operatorname{sqrt}(abs(x-1)) - pow(abs(y),1/3)/(1 + pow(x,2)/2 + pow(y,2)/4)$;

E) $a = (\operatorname{sqrt}(abs(x-1)) - pow(abs(y),1/3))/(1 + pow(x,2)/2 + pow(y,2)/4)$;

24. Ifoda to'g'ri yozilgan satrni ko'rsating: $y = \cos^2 x + \sqrt[3]{\pi + (2-x)^5}$

A) $y = \operatorname{sqr}(\cos(x)) + pow(3.14 + pow(2-x,5),1/3)$;

B) $y = pow(\cos(x),2) + \operatorname{sqrt}(3.14 + pow(2-x,5))$;

C) $y = pow(\cos(x),2) + pow(3.14 + pow(2-x,5),1/3)$;

D) $y = \cos(pow(x,2)) + pow(3.14 + pow(2-x,5),1/3)$;

E) $y = pow(\cos(x),2) + pow(3.14 + pow(5,2-x),1/3)$;

25. Ifoda to'g'ri yozilgan satrni ko'rsating: $a = \frac{2\cos(x-\pi)}{3 + \sin^2 y}, b = 1 + \frac{z^2}{3 + \frac{z^2}{5}}$

A) $a = 2 * \cos(x-3.14)/(3 + pow(\sin(y),2));$
 $b = 1 + \operatorname{sqr}(z)/(3 + pow(z,2)/5);$

B) $a = 2 * \cos(x-3.14)/3 + pow(\sin(y),2);$
 $b = (1 + pow(z,2))/(3 + pow(z,2)/5);$

C) $a = 2 * \cos(x-3.14)/(3 + \operatorname{sqrt}(\sin(y)));$
 $b = 1 + pow(z,2)/(3 + pow(z,2)/5);$

D) $a = 2 * \cos(x-3.14)/(3 + \sin(pow(y,2)));$
 $b = 1 + pow(z,2)/(3 + pow(z,2)/5);$

$a = 2 * \cos(x-3.14)/(3 + pow(\sin(y),2));$
 $E) b = 1 + pow(z,2)/(3 + pow(z,2)/5);$

26. Ifoda to'g'ri yozilgan satrni ko'rsating: $y = \sqrt[5]{x^3 + 4} + \sin x^4 + \operatorname{tg}x^3$

A) $y = pow(pow(x,3)+4,1/5) + \sin(pow(x,4)) + \tan(pow(x,3))$;

B) $y = \text{pow}(1/5, \text{pow}(x, 3) + 4) + \text{pow}(\sin(x), 4) + \text{tg}(\text{pow}(3, x));$

C) $y = \text{pow}(1/5, \text{pow}(x, 3) + 4) + \sin(\text{pow}(4, x)) + \tan(\text{pow}(3, x));$

D) $y = \text{pow}(\text{pow}(x, 3) + 4, 1/5) + \sin(\text{pow}(x, 4)) + \text{pow}(\tan(x, 3));$

E) $y = \text{pow}(\text{pow}(x, 3) + 4, 1/5) + \text{pow}(\sin(4, x)) + \text{pow}(\text{tg}(x, 3));$

27. Ifoda to'g'ri yozilgan satrni ko'rsating: $y = \sqrt[4]{e^{3x} + 7} + \cos x^5 + \ln|3x + 7|$

A) $y = \text{pow}(\exp(3*x) + 7, 1/4) + \cos(\text{pow}(x, 5)) + \ln(\text{abs}(3*x + 7));$

B) $y = \text{pow}(\exp(3*x) + 7, 1/4) + \text{pow}(\cos(5, x)) + \log(\text{abs}(3*x + 7));$

C) $y = \text{pow}(\exp(3*x) + 7, 1/4) + \cos(\text{pow}(5, x)) + \log(\text{abc}(3*x + 7));$

D) $y = \text{pow}(\exp(3*x) + 7, 1/4) + \cos(\text{pow}(x, 5)) + \log(\text{abs}(3*x + 7));$

E) $y = \text{pow}(\exp(3*x) + 7, 1/4) + \text{pow}(\cos(x, 5)) + \ln(\text{abs}(3*x + 7));$

28. Ifoda to'g'ri yozilgan satrni ko'rsating: $y = \ln 5x + x^5 \sin^3 x + \text{tg} x^4$

A) $y = \ln(5*x) + \text{pow}(x, 5) \text{pow}(\sin(x), 3) + \tan(\text{pow}(x, 4));$

B) $y = \log(5*x) + \text{pow}(x, 5) * \text{pow}(\sin(x), 3) + \tan(\text{pow}(x, 4));$

C) $y = \log(5*x) + \text{pow}(x, 5) * \sin(\text{pow}(x, 3)) + \text{tg}(\text{pow}(x, 4));$

D) $y = \log(5*x) + \text{pow}(5, x) * \sin(\text{pow}(x, 3)) + \tan(\text{pow}(x, 4));$

E) $y = \ln(5*x) + \text{pow}(x, 5) \text{pow}(\sin(x), 3) + \text{tg}(\text{pow}(4, x));$

29. Ifoda to'g'ri yozilgan satrni ko'rsating: $y = \text{tg} \sin \pi x + x^7 + \sqrt[3]{e^{2x+3}}$

A) $y = \text{tg}(\sin(\pi*x)) + \text{pow}(x, 7) + \exp((2*x+3)/3);$

B) $y = \tan(\sin(\pi*x)) + \text{pow}(7, x) + \exp(2*x+3/3);$

C) $y = \text{tg}(\sin(\pi*x)) + \text{pow}(7, x) + \exp((2*x+3)/3);$

D) $y = \text{tg}(\sin(\pi*x)) + \text{pow}(x, 7) + \exp(2*x+3/3);$

E) $y = \tan(\sin(\pi*x)) + \text{pow}(x, 7) + \exp((2*x+3)/3);$

30. Ifoda to'g'ri yozilgan satrni ko'rsating: $y = \ln|5x+3| + \cos \pi x^2 + \text{tg} x^3$

A) $y = \log(\text{abc}(5*x+3)) + \cos(\pi*x*x) + \tan(\text{pow}(x, 3));$

B) $y = \ln(\text{abs}(5*x+3)) + \cos(\pi*x*x) + \text{tg}(\text{pow}(x, 3));$

C) $y = \log(\text{abs}(5*x+3)) + \cos(\pi*x*x) + \tan(\text{pow}(x, 3));$

D) $y = \ln(\text{abc}(5*x+3)) + \cos(\pi*x*x) + \tan(\text{pow}(x, 3));$

E) $y = \log(\text{abs}(5*x+3)) + \cos(\pi*x*x) + \text{tg}(\text{pow}(x, 3));$

31. Preprocessorning qaysi direktivasi grafik funksiyalar bilan ishlashni amalga oshiradi?

A) #include <conio.h>

B) #include <graphics.h>

C) #include <math.h>

D) #include <stdio.h>

E) #include <dos.h>

32. Preprocessorning qaysi direktivasi matematik funksiyalar bilan ishlashin amalga oshiradi?

A) #include <math.h> B) #include <stdio.h> C) #include <conio.h>

D) #include <string.h> E) #include <graph.h>

33. Ekranni tozalash amali uchun preprocessorning qaysi direktivasidan foydalilaniladi?

- A) #include <conio.h> B) #include <graph.h> C) #include <math.h>
D) #include <stdio.h> E) #include <string.h>

34. Preprocessorning qaysi direktivasi satrlar bilan ishla funksiyalar bilan ishlashni amalga oshiradi?

- A) #include <conio.h> B) #include <graph.h> C) #include <string.h>
D) #include <stdio.h> E) #include <stdlib.h>

35. Dastur natijasini aniqlang:

```
main()  
{int x=4, y=3, w =1, t;  
 w++;  
 t=++x-y;  
 y--;  
 cout<<"t="<<t<<x<<y<<w;}
```

- A) t=2,4,2,3 B) t=2,5,2,2 C) t=3,4,3,2 D) t=1,2,1,3 E) t=4,4,2,3

36. Dastur natijasini aniqlang:

```
main()  
{int s=7, t=9, z=7, x, y, f;  
 x=!(s>t)||(s>z);  
 y=++x--z;  
 f=!(y>=z);  
 cout<<"x=" <<x<<"y=" <<y<<"f=" <<f; }
```

- A) x=1, y=7, f=0 B) x=2, y=8, f=1 C) x=2, y=9, f=0 D) x=2, y=8, f=0
E) x=2, y=7, f=0

37. Dastur natijasini aniqlang:

```
main()  
{int a=20,b=3,c=4,x,y,z;  
 x=a++;  
 y=!(++b<c);  
 z=x--y;  
 cout<<"x=" <<x<<"y=" <<y<<"z=" <<z; }
```

- A) x=20, y=1, z=22 B) x=19, y=1, z=21 C) x=19, y=0, z=20
D) x=19, y=1, z=20 E) x=20, y=0, z=20

38. Dastur natijasini aniqlang:

```
main()  
{int a=12,b=13,c=14,x,y,z;  
 x=++a;
```

```

y=++b<c&&c--<a;
z=!(b<a);
cout<<"x= "<<x<<"\ty="<<y<<"\tz="<<z; }
A) x=13, y=0, z=0    B) x=12, y=0, z=0    C) x=12, y=1, z=0    D)
x=13, y=0, z=1
E) x=12, y=0, z=1

```

39. Dastur natijasini aniqlang:

main()

```

{int x=4,y=17,z=3,s,d,f;
s=(int)y/x+z;
d=y%x+s%z;
f=++x--y;
cout<<"s= "<<s<<,f=<<f<<,d=<<d; }
A) s=2, f=21, d=3    B) s=7, f=21, d=2    C) s=7, f=20, d=2
D) s=7, f=21, d=0    E) s=7, f=22, d=3

```

40. Dastur natijasini aniqlang:

main()

```

{int a=9,b=25,c=8,x,y,z;
x=++a+b%7;
y=!(b++<c&&c--<a--);
z=(b>++a%3);
cout<<"x= "<<x<<,y=<<y<<,z=<<z; }
A) x=14, y=0, z=1    B) x=14, y=1, z=0    C) x=13, y=1, z=0
D) x=13, y=1, z=1    E) x=14, y=1, z=1

```

41. Dastur natijasini aniqlang:

main()

```

{int a=4,b=6,c=1,s,d,f;
s=a++;
d=--a+c--;
f=a<b&&c<d;
cout<<"s= "<<s<<,f=<<f<<,d=<<d; }
A) s=4, f=1, d=5    B) s=4, f=0, d=4    C) s=4, f=1, d=6 D) s=4, f=0, d=5
E) s=5, f=0, d=5

```

42. Dastur natijasini aniqlang:

main()

```

{int x=10,y=4,z=3,a,b;
a=!(x>y);
b=a++-z--;
cout<<"a="<<a<<, b=<<b; }

```

- A) a=0, b=-3 B) a=1, b=-2 C) a=2, b=-2 D) a=1, b=-3 E) a=2, b=-3

43. Dastur natijasini aniqlang

main()

```
{int s=17,t=29,z=47,x,y,f;  
x=!(s>t)&&(s>z);  
y=x++ +--z;  
f=(y>=z);  
cout<<"x= "<<x<<" ,y=" <<y<<" ,f=" <<f; }
```

- A) x=1, y=46, f=1 B) x=2, y=47, f=1 C) x=1, y=47, f=1
D) x=1, y=46, f=0 E) x=2, y=46, f=1

44. C++ tilidagi har bir dastur qaysi main() fuksiyasini o'zida saqlaydi

- a) main() b) iostream.h c) #include d) To'g'ri javob keltirilmagan.

45. To'g'ri yozilgan operatorni toping: agar $a \leq b$ va $c < 3$ bo'lsa, u holda $a = (c+b)$ bo'lsin.

- A) if ($a \leq b$ && $c < 3$) $a = c+b$;
B) if (($a \leq b$) && $c < 3$) $a = c+b$;
C) if ($a \leq b$) && ($c < 3$) $a = c+b$;
D) if ($a \leq b$!! $c < 3$) $a = c+b$;
E) if ($a \leq b$ & $c < 3$) $a = c+b$;

46. To'g'ri yozilgan operatorni toping: agar x va y lardan bittasi manfiy bo'lsa, u holda son 0,5 ga oshirilsin.

- A) if ($x < 0$ & $y < 0$) { $x += 0.5$; $y += 0.5$; }
B) if ($x < 0$ || $y < 0$) { $x += 0.5$; $y += 0.5$; }
C) if ($x < 0$ && $y < 0$) { $x += 0.5$; $y += 0.5$; }
D) if ($x < 0$! $y < 0$) { $x += 0.5$; $y += 0.5$; }
E) if ($x < 0$ || $y < 0$) $x += 0.5$; $y += 0.5$;

47. To'g'ri yozilgan operatorni toping: agar $a \geq b \geq c$ bo'lsa u holda har bir qiymatni uning kvadrati bilab almashtiring.

- A) if ($a \geq b$ && $b \geq c$) $a^* = a$; $b^* = b$; $c^* = c$;
B) if ($a \geq b$ && $b \geq c$) { $a^* = a$; $b^* = b$; $c^* = c$; }
C) if ($a \geq b$ || $b \geq c$) { $a^* = a$; $b^* = b$; $c^* = c$; };
D) if ($a \geq b$ & $b \geq c$) { $a^* = a$; $b^* = b$; $c^* = c$; }
E) if ($a \geq b$) && ($b \geq c$) { $a^* = a$; $b^* = b$; $c^* = c$; }

48. To'g'ri yozilgan operatorni toping: x va y berilgan, agar ular $(0,5; 2)$ oraliqqa tegishli bo'lmasa, u holda sonlarni 10 marta kamaytiring.

- A) if (($x \leq 0.5$ && $x \geq 2$) || ($y \leq 0.5$ && $y \geq 2$)) { $x /= 10$; $y /= 10$; }
B) if (($x \leq 0.5$ || $x \geq 2$) && ($y \leq 0.5$ || $y \geq 2$)) { $x /= 10$; $y /= 10$; }

- C) if ((x<=0.5 || x>=2) && (y<=0.5 || y>=2)) x/=10; y/=10;
 D) if (x<=0.5) || (x>=2) && (y<=0.5) || (y>=2) { x/=10; y/=10; }
 E) if ((x<=0.5 || x>=2) & (y<=0.5 || y>=2)) x/=10; y/=10;

49. To'g'ri yozilgan operatorni toping: a va b berilgan, ularning kichigini yig'indining yarmi bilan, kattasini ko'paytmaning ikkilanganligi bilan almashtiring.

- A) if (a<b) { a1=(a+b)/2; b1=2*a*b; }
 B) if (a<b) { a=(a+b)/2; b=2*a*b; }
 C) if a<b a1=a+b/2; b1=2*a*b;
 D) if a<b { a=(a+b)/2; b=2*a*b; }
 E) if (a<b) a1=(a+b)/2; b1=2*a*b;

50. To'g'ri yozilgan operatorni toping: agar $a \leq b \leq c \leq d$ bo'lsa, u holda har bir qiymatni ularning eng kattasi bilan, aks holda har bir qiymatni ularning kvadrati bilan almashtiring.

- A) if (a<=b & b<=c & c<=d) a=b=c=d else { a*=a; b*=b; c*=c; d*=d; }
 B) if (a<=b) && (b<=c)&&(c<=d) a=b=c=d else { a*=a; b*=b; c*=c; d*=d; }
 C) if (a<=b && b<=c && c<=d) a=b=c=d; else a*=a; b*=b; c*=c; d*=d;
 D) if (a<=b && b<=c && c<=d) a=b=c=d; else { a*=a; b*=b; c*=c; d*=d; }
 E) if (a<=b || b<=c || c<=d) a=b=c=d; else a*=a; b*=b; c*=c; d*=d;

51. To'g'ri yozilgan operatorni toping: agar ikki sonning yig'indisi 1 dan kichik bo'lsa ularning o'rta arifmetigin, aks holda ularning o'rta geometrigini hisoblang.

- A) if (x+y>1) s=(x+y)/2; else s=sqr(x*y);
 B) if (x+y<1) s=(x+y)/2; else s=sqrt(x*y);
 C) if (x+y>1) s=x+y/2; else s=sqr(x*y);
 D) if (x+y<1) s=(x+y)/2 else s=sqrt(x*y);
 E) if (x+y<1) s=x+y/2 else s=sqrt(x*y);

52. Dastur natijasini aniqlang:

```
main()
{ int i=3, p=1;
  for(;i*i*i>0;i--) p*=i*(i+1); cout<<"i="<< i<<"p="<< p; }
A) i=1, p=144    B) 0, 72   C) i=0, p=72    D) i=1, p=72   E)    i=0,
p=144
```

53. To'g'ri tuzilgan dasturni aniqlang: x_1, x_2, x_3, x_4 ; sonlari berilgan, $x_1x_4+x_2x_3+x_3x_2+x_4x_1$ ni hisoblang.

- A) p=x; s=0; for(i=0;i<4;i++) s+=*(p+i)**(p+3);
 B) p=x; s=1; for(i=0;i<4;i++) s*=-*(p+i)**(p+3-i);

- C) $p=x; s=0; \text{ for}(i=1;i<=4;i++) s+=*(p+i)**(p+3-i);$
 D) $p=x; s=0; \text{ for}(i=1;i<=4;i++) s+=*(p+i)**(p+3+i);$
 E) $p=x; s=0; \text{ for}(i=0;i<4;i++) s+=*(p+i)**(p+3-i);$

54. To'g'ri tuzilgan dasturni aniqlang: a_1, \dots, a_6 butun sonlar berilgan, (a_1-a_6) (a_3-a_4) (a_5-a_2) ni hosil qiling.

- A) $px=a; p=0; \text{ for}(i=0;i<6;i+=2) p+=*(px+i)-*(px+5-i);$
 B) $px=a; p=1; \text{ for}(i=0;i<6;i++) p*=*(px+i)-*(px+5);$
 C) $px=a; p=0; \text{ for}(i=0;i<3;i++) p+=*(px+i)-*(px+5+i);$
 D) $px=a; p=1; \text{ for}(i=0;i<6;i+=2) p*=*(px+i)-*(px+5-i);$
 E) $px=a; p=1; \text{ for}(i=0;i<3;i++) p*=*(px+i)-*(px+5-i);$

55. To'g'ri tuzilgan dasturni aniqlang: x_1, x_2, x_3, x_4 lar berilgan, $x_1-x_4, x_2-x_4, x_3-x_4$ ketma-ketlikni hosil qiling.

- A) $p=x; \text{ for}(i=0;i<3;i++) *(p+i)=*(p+i)-*(p+3);$
 B) $p=*x; \text{ for}(i=0;i<3;i++) *(p+i)=*(p+i)-*(p+3);$
 C) $p=x; \text{ for}(i=0;i<3;i+=2) *(p+i)=*(p+i)-*(p+3);$
 D) $p=x; \text{ for}(i=0;i<3;i++) *p+i=*(p+i)-*(p+3);$
 E) $p=x; \text{ for}(i=0;i<3;i+=2) *(p+i)=*(p+i)-*(p+3-i);$

56. To'g'ri yozilgan dasturni toping: $\sum_{k=1}^{\infty} \frac{(-1)^k (k+1)x^k}{3^k}$ ifofadani ε aniqlikda hisoblash.

- A) $k=1; \text{ do } \{ ak=\text{pow}(-1,k)*(k+1)*\text{pow}(x,k)/\text{pow}(3,k); k++; s+=ak; \}$
 while ($\text{abs}(ak)<\varepsilon$);
 B) $k=1; \text{ do } \{ ak=\text{pow}(-1,k)*(k+1)*\text{pow}(x,k)/\text{pow}(3,k); k++; s+=ak; \}$
 while ($\text{abs}(s)>\varepsilon$);
 C) $k=1; \text{ do } ak=\text{pow}(-1,k)*(k+1)*\text{pow}(x,k)/\text{pow}(3,k); k++; s+=ak;$
 while ($\text{abs}(ak)>\varepsilon$);
 D) $k=1; \text{ do } \{ ak=\text{pow}(-1,k)*(k+1)*\text{pow}(x,k)/\text{pow}(3,k); k++; s+=ak; \}$
 while ($\text{abs}(ak)>\varepsilon$);
 E) $k=1; \text{ do } \{ ak=\text{pow}(-1,k)(k+1)\text{pow}(x,k)/\text{pow}(3,k); k++; s+=ak; \}$
 while ($\text{abs}(ak)>\varepsilon$);

57. To'g'ri yozilgan dasturni toping: $\prod_{k=1}^n \left(1 + \frac{\sin(kx)}{k!}\right)$ ifodani hisoblash.

- A) $k=p=f=1; \text{ while } (k<=n) \{ f*=k; p*=(1+\sin(k*x))/f; k--; \}$
 B) $k=p=f=1; \text{ while } k<=n \{ f*=k; p*=(1+\sin(k*x))/f; k++; \}$
 C) $k=p=f=1; \text{ while } (k<=n) \{ f*=k; p*=(1+\sin(k*x))/f; k++; \}$
 D) $k=p=f=1; \text{ while } (k<=n) \{ f*=k; p*=(1+\sin(k*x))/f; k++; \}$
 E) $k=p=f=1; \text{ while } (k<=n) \{ f*=k; p*=(1+\sin(k*x))/f*k; \} k++;$

58. To'g'ri yozilgan dasturni toping: $\sum_{k=1}^{\infty} \frac{1}{\sqrt{|x|} + k^2}$ ifodani ε aniqlikda hisoblash.

- A) k=1; do { ak=1/(sqrt(abs(x))+pow(k,2)); k++; s+=ak; } while(abs(ak)>ε);
- B) k=1; do { ak=1/(sqrt(abs(x))+pow(k,2)); k++; s+=ak; } while (abs(ak)<ε);
- C) k=1; do sqrt(abs(x))+pow(k,2)); k++; s+=ak; while (abs(ak)>ε);
- D) k=1; do { ak=1/(sqrt(abs(x))+pow(k,2)); k++; s+=ak; } while (abs(s)<ε);
- E) k=1; do { ak=1/sqrt(abs(x))+sqr(k); k++; s+=ak; } while (abs(s)>ε);

59. To'g'ri yozilgan dasturni toping: $\sum_{i=1}^n ix + 1$ ni hisoblash.

- A) i=1; while (i<=n) { s+=i*x+1; i++; }
- B) i=1; while (i<n) { s+=ix+1; i++; }
- C) i=1; while i<=n s+=i*x+1; i++;
- D) while (i<=n) s+=i*x+1; i++;
- E) i=1; while (i<=n) { s+=i*x+1; i--; }

60. Dastur natijasini aniqlang:

m=0; i=1; do { m+=1/(2*i+1); i--;} while (i>=1);
 A) 1.0; B) 1/3; C) 0.2; D) 0.75; E) 0.15.

61. Dastur natijasini aniqlang:

```
main()
{int i=5,p=1;
 while (--i>1) p*=i;
 cout<<"i="<<i<<"p="<<p;}
```

A) i=1, p=120 B) i=1, p=24 C) i=0, p=24 D) i=24, p=1 E) i=0, p=120

62. Dastur natijasini aniqlang:

```
main()
{ int k,f; float p;
 k=f=p=1;
 while (++k<=3)
 f*=k;
 p*=1/f;
 cout<<k<<f<<p;}
```

A) k=4 f=6 p=0.083 B) 4 6 0.167 C) k=5 f=24 p=0.042

D) k=4 f=6 p=0.167 E) k=5 f=6 p=0.167

63. For operatori to'g'ri foydalanilgan qatorni ko'sating:

- A) main (){ int i, j; for(i=6; j=0; j<10; i--, j++); cout<<i<<j; }
- B) main () { int i, j; for(i=6, j=0; j<10; i--; j++) cout<<i<<j; }
- C) main () { int i, j; for(i=6, j=0, j<10; i--, j++); cout<<i<<j; }
- D) main () { int i, j; for(i=6, j=0; j<10; i--, j++) cout<<i<<j; }
- E) main () { int i, j; for i=6, j=0; j<10; i--, j++ cout<<i<<j;

64.Dastur natijasini aniqlang:

m=0; i=1; do { m+=1/(2*i-1); i--; } while (i>=1);

- A) 1.0; B) 1/3; C) 0.2; D) 0.75; E) 0.15.

65. To'g'ri tuzilgan dastur bo'lagini ko'rsating: a[10] massivning manfiy elementlarini kvadratga ko'tarish.

- A) for(i=0; i<10; i++) if (a[i]<0) a[i]=sqrt(a[i],2);
- B) for(i=0; i<10; i++) if (a[i]<0) a[i]=pow(a[i],2);
- C) for(i=0; i<=10; i++) if (a[i]<0) a[i]=pow(a[i],2);
- D) for(i=0, i<10, i++) if (a[i]<0) a[i]=pow(a[i],2);
- E) for(i=0; i<10; i++) if a[i]<0 a[i]=pow(a[i],2);

66. To'g'ri tuzilgan dastur bo'lagini ko'rsating: a[30] massivni hosil qiling, bu yerda a_i=2*i+1.

- A) for (i=0; i<30; i++) { a[i]=2*i+1; cout<<a[i]; }
- B) for (i=0; i<30; i++) a[i]=2*i+1; cout<<a[i];
- C) for (i=0; i<30; i++) { a[i]=2*i+1; } cout<<a[i];
- D) for (i=1; i<30; i++) a[i]=2*i+1; cout<<a[i];
- E) for (i=1; i<30; i++) { a[i]=2*i+1; cout<<a[i]; }

67. To'g'ri tuzilgan dastur bo'lagini ko'rsating: a[n] massivning musbat juft elementlari sonini aniqlash.

- A) for(i=0;i<n;i++); if (a[i]>0 && a[i]%2 == 0) k++;
- B) for(i=0;i<n;i++); if (a[i]>0 !! a[i]%2 == 0) k++;
- C) for(i=0;i<n;i++); if (a[i]>0 & a[i]%2 == 0) k++;
- D) for(i=0;i<n;i++); if (a[i]>0 && a[i]%2 == 0) k++;
- E) for(i=0;i<n;i++); if (a[i]>0 && a[i]%2 == 0) k++;

68. Dastur natijasini aniqlang:

```
double a[7]={2,3,1,4,-2,5,6};
```

```
main()
```

```
{ int i;
```

```
for(i=0;i<7;i+=2)
```

```
    a[i]=pow(a[i],3);
```

```
    for(i=0;i<7;i++)
```

```
        cout<<a[i]<<" ";}
```

- A) 8 3 1 4 –8 5 216 B) 2 27 1 64 –2 125 6 C) 8 27 1 64 –8 125 216
 D) 3 31 64 –2 5 216 E) 2 3 1 4 -8 125 216

69. Dastur natijasini aniqlang:

```
int a[10]={1,3,5,2,8,6,12,9,13,20};
```

```
main()
```

```
{ int i, k=0;
```

```
for(i=0;i<10;i+=3) if (a[i]%2 == 0) k++; cout<<k; }
```

- A) 4 B) 2 C) 3 D) 5 E) 6

70. Dastur natijasini aniqlang:

```
int a[10]={2,4,5,7,8,6,3,12,19,9};
```

```
main()
```

```
{ int i, max=2;
```

```
for(i=0;i<10;i+=2) if (a[i]>max) max=a[i]; cout<<max; }
```

- A) 12 B) 19 C) 9 D) 8 E) 6

71. b[10] massivni hosil qilish to'g'ri tuzilgan dasturni aniqlang:

A) for(i=0;i<10;i++); b[i]=5*i-1;

B) for(i=0,i<10;i++) b[i]=5*i-1;

C) for(i=0;i<10;i++) b[i]=5*i-1;

D) for(i=0;i<10;i++) b[i]=5i-1;

E) for(i=0;i<9;i++) b[i+1]=5*i-1;

72. Dastur natijasini aniqlang:

```
int a[8]={1,2,3,4,5,-2,6,16};
```

```
main()
```

```
{ int i, p=1; for(i=0;i<8;i++) if (a[i] % 2 != 0) p*=a[i]; cout<<p; }
```

- A) 256 B) 216 C) 16 D) 15 E) 360

73. Dastur natijasini aniqlang: a[15] massivning birinchi 0 elementiga elementlar yig'indisi.

A) i=0; do { s+=a[i]; i--;} while (a[i] == 0 && i<15);

B) i=0; do s+=a[i]; i++; while (i != 0 && i<15);

C) i=0; do { s+=a[i]; i++; } while (i == 0 && i<15);

D) i=0; do { s+=a[i]; i++; } while (a[i] != 0 & i<15);

E) i=0; do { s+=a[i]; i++; } while (a[i] != 0 && i<15);

74. Dastur natijasini aniqlang:

```
int a[9]={2,3,4,6,9,8,12,12,11};
```

```
main() {int i; s=0;
```

```
for (i=0; i<9; i+=2) if (a[i] % 2 == 0) s+=a[i]; cout<<s; }
```

- A) 26 B) 18 C) 16 D) 25 E) 36

75. A[7,7] massivning toq satrlarida joylashgan musbat elementlar yig'indisi aniqlash to'g'i yozilgan qatorni ko'rsating:

